

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

JURAYEV BOXODIR TURDALIYEVICH

XVI – XVIII ASR O‘RTALARIDA BUXORO XONLIGINING
TARIXSHUNOSLIGI

UDK: 94(575.146)

Jurayev Boxodir Turdaliyevich

XVI – XVIII asr o‘rtalarida Buxoro xonligining tarixshunosligi/ B.Jurayev – T.:
2023. – 183 b.

Mas’ul muharrir:

Tursunov Saypulla Narzullayevich

tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Isxoqov Mirsodiq Mirsultonovich

tarix fanlari doktori, professor

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

tarix fanlari doktori, professor

Mazkur monografiyada tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbek davlatchiligi tarixshunosligida Buxoro xonligi tarixining o‘rganilishi, tarixiylik, determinizm, rivojlanish tamoyillari va empirik va gnoselogik usullari asosida yoritilishi mazkur muammoga oid xulosalarni mukammallashtirishda foydalanish bilan izohlanadi.

Shuningdek, XVI-XVIII asr o‘rtalari Buxoro xonligining tarixshunosligi bo‘yicha turli davrlarda nashr qilingan ilmiy tadqiqotlar xususida yaxlit va to‘liq tasavvur hosil qilish, ular asosida ilmiy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Monografiyadagi materiallardan Buxoro xonligi tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar yaratishda, o‘quv, uslubiy qo‘llanmalar, darsliklar tayyorlashda, shuningdek, Oliy o‘quv yurtlari O‘zbekiston tarixi, tarixshunoslik o‘quv fanlarida hamda maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

Mazkur monografiya Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kengashining yigilishida nashrga tavsiya etilgan (2023-yil 4 martdagi 3-sonli bayonnomasi).

© B. Jurayev, 2023

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlaridagi ijobiy o'zgarishlar natijasida ilk davlatchilikka asos solgan qadimgi davlatlarning kelib chiqish tarixiga oid manbalarni o'rganish, shu tufayli ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy taraqqiyotga qo'shgan hissasini mintaqaviy geografik joylashuviga qarab aniqlash uchun alohida e'tibor berilmoqda. Buning uchun xalqlarning va davlatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, yuksalishi va tanazzulga uchrash sabablariga oid qadimiy qo'l yozma manbalarni topish, aniqlash va uni tarix sahifalariga kiritish asosida tarixiy-madaniy meros va sivilizatsiya taraqqiyotining hududlarga xos jihatlarini yanada chuqurroq o'rganishga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda.

Dunyoni rivojlangan AQSh, Angliya, Rossiya, Germaniya, Fransiya va Italiya mamlakatlarida tarix-ijtimoiy gumanitar fanlar sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni o'ziga jalb etayotgan Buxoro shahri tarixiga taalluqli manbalarni o'rganishga e'tibor kuchayib bormoqda. Chunki, jahon tammaduniga asos solgan Buxoro shahri hududida Buxorxudotlar, Somoniylar, Buxoro xonligi (Shayboniylar, Ashtarxoniylar), Buxoro amirligi va BXSR kabi tariximizda muhim ahamiyat kasb etgan davlatlarning poytaxti sifatida faoliyat ko'rsatib kelganligi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan 2022-2026-yillarga mo'jallangan Taraqqiyot strategiyasi dasturi asosida; "O'zbek xalqining necha ming-yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lgani barchaga yaxshi ma'lum"¹, uning bir necha mingyillik tarixi

¹ Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –Б. 5.

davomida bu hududda yirik davlat birlashmalari vujudga kelganligiga oid manbalarni aniqlash, o'z milliy davlatchilik tarixini manbalar asosida ochib berishdek ulkan vazifa turibdi. Jumladan, Buxoro xonligining Shayboniylar va Ashtarxoniylar hamda Mang'itlar sulolasining tarixini o'rganish dolzarb muammoga aylanib, xalqimizning o'tmish tarixidagi xo'jalik hayoti, siyosiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishidagi boy tajribalarga oid manbalarni o'rganish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 2017-yil 19-maydagi PQ-2980-son "2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yilning 23-noyabridagi 930-son "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Buxoro xonligi tarixshunosligining asosiy masalalari rus, sovet, xorijiy va mahalliy taqdiqotlar asnosida shakllanganligini ta'kidlash o'rinlidir. Ushbu turli davrlarda bajarilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, mavzu doirasida ma'lum bir xronologik davr yaxlit umumiy tarixshunosligi holatini aks ettiruvchi tadqiqot hali yaratilmagan. Umuman olganda mazkur davr tarixshunosligini shartli ravishda quyidagi to'rt guruh adabiyotlariga bo'lish mumkin:

1) XIX - XX asr boshlaridagi rus sharqshunoslari, sayohatchilari, elchilari, o'lkashunos olimlari asarlari;

2) Sovet davridagi olib borilgan tadqiqotlar;

3) Mustaqillik-yillaridagi izlanishlar va nashr qilingan ilmiy adabiyotlar;

4) Mavzuga oid xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi 1-bobda batafsil berilgan.

I BOB. BUXORO XONLIGI TARIXSHUNOSLIGIDA MUAMMONING QO‘YILISHI VA YECHIMLARI

I.1. Ilmiy tadqiqotlarda Buxoro xonligi tarixshunosligining yoritilishi hamda turli yondashuvlar

Jahondagi qadimiy madaniy markazlardan biri bo‘lgan Buxoro shahri tarixi har qanday tarixiy tadqiqotchini o‘ziga jalb qilmasdan qolmaydi. Mazkur shahar asrlar davomida ko‘plab sulolalar davrida davlat poytaxti va iqtisodiy-madaniy markaz sifatida e’tibor qozonib kelgan. Bunday davlatlar qatorida Buxorxudotlar, Somoniylar, Buxoro xonligi (Shayboniylar, Ashtarxoniylar), Buxoro amirligi va BXSR larini ta’kidlab o‘tish mumkin. Shuningdek Buxoro zaminida mashhur, donishmand allomalar voyaga yetgan bo‘lib, Nosir Buxoriy, Shamsiddin Buxoriy, Ubaydullah Buxoriy, Mushfiqiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Turdi Farog‘iy kabi allomalar tadqiq etilayotgan davrda yashab ijod qilganlar.

Shahar o‘zining zamonaviy qiyofasini Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasi davrida XVI-XVII asrlarda, masjid va madrasalarning ko‘pchiligi, karvonsaroy va hammomlar, qal’a devorlari va darvozalari, shuningdek, yirik me’moriy ansambl va maqbaralar qurilgan davrda egalladi. Bugungi kunda tarixshunoslik masalasini ob’ektiv baholash va yosh avlodga aniq tarzda yoritib berish bugungi kunda tarixshunoslik masalasini ob’ektiv baholash va yosh avlodga aniq tarzda yoritib berish Chunki, o‘tmish ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ijtimoiy - iqtisodiy turmush tarzi, siyosiy aloqalari va boy an’analarga ega bo‘lib, hozirgi davrda har tomonlama munosabatlarni ongli ravishda rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki, o‘tmish ajdodlarimiz

tomonidan yaratilgan ijtimoiy - iqtisodiy turmush tarzi, siyosiy aloqalari va boy an'analarga ega bo'lib, hozirgi davrda har tomonlama munosabatlarni ongli ravishda rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Buxoro xonligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda muhim va esda qolarli voqea-hodisalar yuz berganligiga tarixiy manbalar guvohlik beradi. Ushbu manbalarda qadimgi va o'rta asrlar davri hamda Buxoro xonligi-yillaridagi tarixiy voqeyilik kengroq tahlil etilgan. Biroq, olib borilgan tadqiqotlardan Buxoro xonligining tarixi, ya'ni, XVI asrning boshlaridan XVIII asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy xo'jalik hayoti tarixi, diplomatik munosabatlari tarixshunoslik fanida mukammal ilmiy tahlil etilmaganligi ma'lum bo'ladi.

Buxoro xonligi XVI-XVIII asr o'rtalariga qadar bo'lgan davrda tarixshunosligi masalasi o'ziga xos tarixga ega. Xonlik tarixini to'laqonli o'rganishda tarixiy yozma manbalar, arxiv xujjatlari, tarixiy ilmiy adabiyotlar qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, mazkur davrning o'rganilish darajasi tadqiqot ob'ekti sifatida ilmiy jihatdan o'rganilmaganligini hisobga olib va uning metodologik asoslaridan kelib chiqib mavzuga bevosita taalluqli bo'lgan adabiyotlarni shartli ravishda to'rt guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- birinchi guruhga taalluqli adabiyotlar ro'yxatiga Buxoro xonligi tarixiga oid Rossiya imperiyasi davrida rus sharqshunoslari, tomonidan xonlik tarixiga oid manbalarni o'rganish hamda mavzuni yoritishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar;
- ikkinchi guruh adabiyotlariga sovet davrida tarixshunoslar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar;

- uchinchi guruhga mansub adabiyotlarga vatanimiz mustaqillik-yillarida olib borilgan kuplab ilmiy izlanishlar, tadqiqot mavzusi doirasida yozilgan dissertatsiyalar;

- to'rtinchi guruhga oid adabiyotlarga Buxoro xonligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy hayotiga doir chet tillarida nashr qilingan ilmiy adabiyotlar tashkil qiladi.

Birinchi guruhga, mintqa hududining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingunga qadar bo'lgan rus sharqshunoslari, o'lkashunos-olimlari, elchilari, harbiy sayohatchilarining asarlarini kiritish mumkin. Shuningdek, ushbu guruhdan Rossiya tomonidan O'rta Osiyo xonliklari bosib olinganidan to sovetlar hokimiyat tepasiga kelgunga qadar bo'lgan adabiyotlar ham joy olgan.

Buxoro xonligi hududiga XVI – XVIII asrlar davomida Antoniy Djenkinson, Florio Beneveni hamda Ivan Xoxlov kabi elchi va sayohatchilar tashrif buyurganliklari ma'lum. Yevropa mamlakatlari sayyohlari va olimlari yozib qoldirgan asarlar ichida ingliz savdo va diplomatiya vakili A.Jenkinson²ning esdaliklari Buxoro va Xiva xonligining XVI asr tarixi haqida muhim ma'lumot beradi.

Buxoroga XVIII asrda ham ko'plab rus savdogarlari va elchilari kelganligi ma'lum. Ularga misol qilib, 1753-yilda Xiva va Buxoro orqali samaralik savdogar D.Rukavkinni³ keltirish mumkin. XVIII asrning 80-yillarida Buxoroga rus elchisi A.Bekchurin kelgan. 1794-yilda esa. T.S.Burnashev o'z sayohati davomida qoldirgan hisobotida savdo munosabatlari, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, qo'shnlarning ahvoli

² Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке [Текст] / Пер. с англ. Ю.В. Готье; Отв. ред. Н.Л.Рубинштейн. - Ленинград: [б. и.], 1937. –С. 306.

³ Рукавкин Д. Описания пути из Оренбурга к Хиве и Бухарам в 1753 г. // Новости литературы. Кн.5. – СПб.: 1823. –С. 25.

va boshqa masalalar xususida yetarlicha ma'lumotlar keltirib o'tgan⁴. Shuningdek, unter ofitser Yefremov⁵ va mitropolit Xrisanflarning⁶ ham ma'lumotlari muhim hisoblanadi.

XIX asrdagi rus sayohatchi tadqiqotchilaridan Ye.K.Meyendorfn⁷ "Orenburgdan Buxoroga sayohat ("Puteshestvie iz Orenburga v Buxaru")", P.Savelevning⁸ "Buxoro 1835-yilda ("Buxara v 1835 godu")", N.Xanykovning⁹ "Buxoro xonligi tavsifi ("Opisanie Buxarskogo Xanstva")", "Zapiski" P.I.Demezov va I.V.Vitkevich¹⁰larni keltirib o'tish mumkin.

Yevropa sayyohlari ichida taniqli venger sharqshunos olimi A.Vamberi¹¹ yozib qoldirgan asarda ham Buxoro va Xiva tarixi bo'yicha ham eng qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Ushbu davrga oid adabiyotlar qatoriga yuqorida keltirilgan XIX asr 60-yillaridan XX asr 20-yillariga qadar nashr etilgan ilmiy adabiyotlar ham kiradi. Rus taqddiqotchilarining mazkur davrga oid asarlarida, asosan Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga nisbatan mustamlakachilik siyosati ruhida yoritilgan. Lekin ko'pchilik mualliflar o'z asarlarida tarixiy jarayonlarni ob'ektiv tahlil qilishga harakat qilganlar. Shuning uchun ham ularning ilmiy ishlarida keltirilgan ma'lumotlar tadqiqotimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

⁴ Записки и словесные объяснения Мендиара Бекчурина об испытанных им во время бытности в Бухарии разных подробностей о состоянии сего города. – Пг.: 1916; Бурнашев Т.С. Путешествие от сибирской линии до города Бухары в 1749 году и обратно в 1795. // Сибирский вестник. Ч. 1-3. – СПб.Д 818.- С. 68.

⁵ Ефремов. Десятилетнее странствование и приключения в Бухарии, Хиве, Персии и Индии и возвращение оттуда через Англию в России. – СПб.:1876, 1794 и 1811; Новое изд. – М.: 1950. – С. 18.

⁶ Хрисанф, митрополит Новопатрасский.О странах Средней Азии., посещенных им в 1790 г. / Введ. и примеч. В.В.Григорьева и чтения в Обществе истории и древности России при Московском университете. Кн.1. – М.: 1861. – С. 1-28.

⁷ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: 1975. –С. 17.

⁸ Савельев П. Бухара в 1835 году с присоединением известий обо всех европейских путешественниках, посетивший этот город до 1835 года включительно. – СПб.: 1836. –С. 21.

⁹ Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – М.: 1843. –С.9.

¹⁰ Записки о Бухарском ханстве /Отчеты П.И. Демезона и И В. Виткевича. – М.: Наука, 1983. – С. 143.

¹¹ Вамбери А. Путешествие по Сречней Азии. – СПб.:1865. – С. 170.

Rossiya tomonidan Markaziy Osiyoning katta qismining bo'ysundirilishi XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoro tarixi bo'yicha ham, xususan, Rossiya-Buxoro o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarga doir ilmiy nashrlarning ko'payishiga olib keldi¹².

Rossiya-Sharqiy savdo muammolariga bevosita bag'ishlangan eng asosiy ishlar qatorida mustamlaka davri rus tadqiqotchilarining (asosan, O'rta Osiyoga yuborilgan sayohatchilar, harbiy amaldorlar va olimlar) ma'ruzalari, xotiralari, statistik ma'lumotlari, esdaliklari, ilmiy tadqiqotlarini ta'kidlash kerak. Jumladan: F.I.Lobysevich, D.N.Logofet, A.I.Gluxovskoy, P.L.Grossul-Tolstoy, A.D.Grebenkin, M.V.Grulev, F.F.Martens, V.Dolinskiy, A.E.Snesareva, A.F.Kostenko, L.N.Sobolev, N.Stremouxov va boshqalar¹³. Ularning tadqiqotlarida Buxoro amirligining geografik joylashuvi, ichki siyosiy kurashning mohiyati, ma'muriy davlati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, aholi tarkibining ayrim masalalari ochib berilgan.

Buxoro xonligining tarkibidagi ayrim hududlari (viloyatlari) etnografiyasiga oid, xususan, ularning ijtimoiy, siyosiy, harbiy holatiga oid ma'lumotlar rus mualliflaridan N.Karazin, M.N.Galkin, A.Shemanskiy, A.L.Kun, V.V.Radlov, G.Arandarenko, V.I.Lipskiy, H.A.Mayev,

¹² Семенов А Изучение исторических сведений о российской внешней торговле и промышленности с первой половины XVII столетия по 1858 год. В 3-х ч. – СПб.: 1859. -Ч. 1. – С. 295. Ч. 2. – С. 376.- Ч. 3. –С. 536.

¹³ Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 1-2. - СПб., 1911. –С. 340. 354 .; Ўша муаллиф. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб.: Изд. Березовский В., 1909. – С. 239.; Лобысевич Ф.И. Поступательное движение в Среднюю Азию в торговом и дипломатическо-военном отношении. – СПб.: 1900. – С. 206.; Глуховской А.И. Записка о значении Бухарского ханства для России и о необходимости принятия решительных мер для прочного водворения нашего влияния в Среднюю Азию. - СПб.: 1867; Ўша муаллиф: Плен в Бухаре // Русский инвалид, 1868.- № 97. – С. 100.; Гребенкин А.Д. Родословная мангитской династии // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып.3. – СПб.: 1874; Гроссул-Толстой П.Л. Дела русского оружия и политики в Средней Азии. — Одесса: В типогр. бр. Гроссул-Толстых, 1871. // http://militera.lib.ru/h/grossul_tolstoy_p1/03.html; Грулёв М.В. Соперничество России и Англии в Средней Азии. – СПб.: Изд. Березовского, 1909. – С. 380.; Мартене Ф.Ф. Россия и Англия в Средней Азии. – СПб.: 1880. –С. 91.; Добромыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический, очерк. Вып. 1-4. – Ташкент: 1912. - 6, 2 – С. 520.; Долинский В. Об отношениях России к среднеазиатским владениям и об устройстве среднеазиатской степи. – СПб.: 1865. –С. 577.

B.Litvinov¹⁴lar asarlarida tadqiq etilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlari hanuzgacha tarixshunoslik nuqtai nazaridan yetarlicha tahlil etilmagan. Shunday bo'lsa-da, mazkur adabiyotlar Buxoro xonligi ichki siyosatini ochib berishda nihoyatda qimmatli sanaladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli jarayonlari, bozorlari, hunarmandchiligi, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish, irrigatsiya masalalari, xo'jalik munosabatlari, transport-kommunikatsiya tizimi va ularning ahamiyati M.F.Gavrilov, N.Karazin, N.I.Kostomarov, A.L.Kun, V.V.Krestovskiy, V.Oshanin, V.I.Lipskiy, N.F.Petrovskiy, A.P.Xoroshxinlarning¹⁵ ishlarida o'z aksini topgan.

C.B.Jukovskiy, A.Vamberi, N.P.Ignatev, N.G.Zalesov, P.P.Melgunov, N.Pantusov, M.Mixaylov, N.I.Veselovskiy hamda A.Semyonov¹⁶ va boshqa ko'plab tadqiqotchilarining ishlarida Buxoroning

¹⁴ Галкин М.Н. Агиографические и исторические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю. – СПб.: Изд. Я.А.Исакова, 1868. –С. 336.; 15 л. илл.; Каразин Н. Оружие и доспехи наших противников в Средней Азии // «Нива». – 1874, - №15. – С. 233-235.

¹⁵ Гаврилов М.Ф. Рисола сартовских ремесленников. Исследование прядения мусульманских цехов. – Ташкент: 1912; Каразин И. Земледелие Зеравшанской долины. //«Нива». – 1874.- № 30,- С.465-467; Костомаров Н.И. Очерк торговли Московского государства в XVI—XVII столетиях / Соч. Т. 20. – СПб: 1906; Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского // Русский вестник. – 1884. №6. – С. 621; Кун А. Л. Бухарские порядки. Заметки о порядке взимания поземельных податей // Туркестанские ведомости. – 1873. № 32; Ўша муаллиф: Вакуфи // «Туркестанские ведомости». – 1872. №21; Липский В. И. Флора Средней Азии, т.е. русского Туркестана и ханства Бухары и Хивы. Т. 3. – СПб: 1902-1903; Ошанин В. Отчет по изучению шелководства // «Сельское хозяйство». – 1879; Петровский Н.Ф.О шелководстве в Средней Азии // Туркестанские ведомости». – 1872. №47, 48; Хорошхин А.П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – СПб: 1876, - С. 531.; Ўша муаллиф: Заметки о зякате в Бухарском ханстве. Сборник статей, касающихся Туркестанского края А.П.Хорошхина. – СПб: 1876.

¹⁶ Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – Петроград, 1915, - (Труды общества русских ориенталистов; №2). –С. 215.; Ўша муаллиф: К истории отношения России с Бухарой и Хивой конца XVIII века. Посольство переводчика Бекчурина в Бухару в 1781 г, // Восточный сборник. Кн. 2. – Пг: 1916. – С. 273-340; Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М.: Изд-во А.М.Мамонтова. – 1867. – С. 369; Залесов И.Очерк дипломатических сношений России с Бухарою с 1836 по 1843 год // Военный сборник, 873. № 27. – С. 3-46; Ўша муаллиф: Посольство в Хиву и Бухару полковника Игнатьева в 1858 г. // Русский вестник. – 1871, № 2, - С: 421-474; Ўша муаллиф: Очерк дипломатических сношений России с Бухарой с 1836 по 1843 гг, // Военный сборник, - 1862, №3, (Туркестанский сборник. Т. 382. – Ташкент: Библиот. им. Навои); Игнатьев Н.П. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. флигель-адъютанта полковника И. Игнатьева. – СПб.: 1897. – С. 278; Мельгунов П.П. Очерки по истории русской торговли IX-XVIII вв. – М.: Издание магазина “Сотрудник школ” А.К. Запеской. 1905. –С. 279.; Михайлов М. Наша среднеазиатская торговля // Всемирный труд. – 1867. Февраль. – С. 235-244; Пантусов Н. Торговые и караванные дороги в Туркестанском крае. – СПб.: 1876; Веселовский Н. Иван Данилович Хохлов, русский посланник в Персию и Бухару в XVII в. // Журнал Министерства народного просвещения. – 1891. Кн. I. – С.42-72; Ўша муаллиф: Мангытская династия, ныне

qo'shni va Rossiya bilan tashqi aloqalari tarixi bayoni keng yoritilganligini ta'kidlash lozim.

XIX asrning eng yirik hamda taniqli olimlari, tarixchi-sharqshunoslar tomonidan O'rta osiyo va Rossiya munosabatlari tarixi masalasiga katta hissa qo'shdilar. Ushbu ilmiy izlanishlar orasida, avvalo, Buxoro amirligining tarixini o'rganilishida V.V.Grigorevning¹⁷ tadqiqotlari alohida o'rin tutadi.

Ushbu guruhga XIX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asr boshlarida nashr qilingan adabiyotlarni kiritish mumkin. Bu davrda rus tarixchilari, sayohatchilari va geograflari tomonidan O'rta Osiyodagi xonliklar, jumladan, Buxoro xonligi (amirligi) tarixiga ham oid bir qator kitoblar nashr qilingan. Bular jumlasiga M.A.Terentev¹⁸, D.N.Logofet¹⁹, N.A.Mayev²⁰, N.Xanykov²¹, N.Pokotilo²², V.V.Radlov²³ hamda V.I.Lipskiy²⁴ va boshqalarni misol keltirish mumkin. Mazkur davr adabiyotlari, asosan, O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar va undan keyingi davrga xos bo'lib, xonliklarning ijtimoiy, harbiy, geografik hamda etnografik holatiga urg'u berilgan.

царствующая в Бухаре // Туркестанские ведомости. - 1878.-№ 28; Ўша муаллиф: Русские невольники в среднеазиатских ханствах // Туркестанские ведомости. -1879. - № 34; Ўша муаллиф: Прием в России и отпуск среднеазиатских послов в XVII-XVIII столетиях. По документам главного архива министерства иностранных дел // Журнал Министерства народного просвещения. – СПб.: 1884. – Июль. Отд. 2. – С. 68-105; Памятники дипломатических и торговых сношений Московской Руси с Персией // Изд. под ред. И. И. Веселовского. Т. 3. – СПб.: 1898; Семенов А. Изучение исторических сведений о российской внешней торговле и промышленности с первой половины XVII столетия по 1858 г. Ч. 1 -3. Гл.8. – СПб.: 1859. – С.375.

¹⁷ Григорьев В.В. Русская политика в отношении Средней Азии // Сб. государственных знаний. - СПб.: 1874. - Т. 1; Ўша муаллиф: Среднеазиатские дела. – М.: 1865 и др.-С. 9.

¹⁸ Терентьев Е.М. История завоевания Средней Азии. Т. 1-3. – СПб.: 1906.

¹⁹ Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 1-2. – СПб: 1911; Ўша муаллиф: Страна бесправия: Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб: 1909; Ўша муаллиф: В горах и равнинах Бухары (Очерк Средний Азии). – СПб: 1913. -С. 23.

²⁰ Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V, – СПб: 1879. с.77-129; Ўша муаллиф: Географический очерк Гиссарского и Кулябского бегства. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V, – СПб.: 1879. – С. 255-280.

²¹ Рожевич Р.Ю. Поездка в Южную и Среднюю Бухару в 1906 г. Известия ИРГО, Т. XIV, Вып 9, 1908;

²² Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб.: 1843.; Записки о Бухарском ханстве (отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича) // Центральная Азия в источниках и мемуарах. – М.: 1983. –С. 34.

²³ Радлов В.В. Средняя Зерафшанская долина. Записки РГО по отделению этнография. Т. IV, 1880;

²⁴ Липский В.И. Горная Бухара. Т. 1. – СПб.: 1902.

XIX-XX asr boshlarida Buxoro xonligi tarixining turli aspektlarida taniqli bo‘lgan N.P.Ostroumov²⁵, N.I.Veselovskiy²⁶, A.A.Semyonov²⁷ va V.V.Bartold²⁸ kabi tarixchi-sharqshunoslar tomonidan tadqiq etilib, ilmiy asarlar yozildi.

Adabiyotlar qatoriga Buxoro xonligining tarixi xususidagi sovet davrida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida yuzaga kelgan asarlarni kiritish mumkin. XX asrning 20-yillaridan boshlab, ushbu mavzuga oid adabiyotlarda asosiy e’tibor ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mahalliy aholi xo‘jalik hayoti faoliyatining turli sohalari, yer egaligi shakli, qishloq xo‘jaligining ahvoli, hunarmandchilik va savdo-sotiq muammolariga qaratganlar. Bunday tadqiqotchilar sirasiga I.A.Remez, V.L.Vyatkin va L.A.Ziminlarni kiritish mumkin. Keyingi davrlarda esa manbalarga tayangan holda Buxoro xonligi tarixining yer-suv munosabatlari, iqtisodiy hayoti masalalarini A.X.Xamrayev, O.D.Chexovich, M.A.Abduraimov hamda A.Madjlisovlar tomonidan o‘rganilganligini ta’qidlashimiz mumkin.

T.G.Tuxtametov, A.R.Muxamedjanov, H.A.Xalfin, H.A.Kislyakov, K.Sh.Shaniyazov, I.K.Xidoyatov, B.X.Karmysheva, G.Yu.Astanova, K.Z.Xakimova, A.Fayziyev va O.Bokiyevlarning ishlarida Buxoro

²⁵ Остроумов Н.П. Мадрасы в Туркестанском крае // Журнал Министерства народного образования. Новая сер. 4,7. Январь. – 1907; Остроумов, Н.П. Сарты / Этнографические материалы. Изд. автора. Вып. 1. -Ташкент, 1890. 137 е.; Вып. 2. - Ташкент, 1892. – С. 175.

²⁶ Веселовский Н. Мангытская династия, ныне царствующая в Бухаре. // Туркестанские ведомости. - 1878.- №28; Ўша муаллиф: Иван Данилович Хохлов, русский посланник в Персию и Бухару в XVII в. – ЖМИП, 1891. Кн. 1 и др.

²⁷ Семёнов А.А. В святой Бухаре // Русские ведомости. – 1899.- № 332, 351; Ўша муаллиф: По границам Бухары и Афганистана // ИВ. – 1902.- № 3 - 4; Ўша муаллиф: Средняя Азия. - М., 1911; Ўша муаллиф: Образцы таджикских официальных документов / Собрал и словарем снабдил А.А.Семёнов. Изд. Туркестанского восточного института. Учеб. сер. – Ташкент: 1923 и др. –С. 27.

²⁸ Бартольд В.В. Сочинение. Т.2. Ч. 2. - М.: 1964; Ўша муаллиф: История изучения Востока в Европе и России. Соч. Т. 9. – М.: 1977; Ўша муаллиф: К истории орошения Туркестана. Соч. т. 3, - М.: 1965; Ўша муаллиф: История культурной жизни Туркестана // Соч. Т. 2. Ч. 1. – М.: 1963. – С. 169-433.

amirligining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining turli jihatlarini ochib berilgan.

Buxoroning qo'shni mamlakatlar hamda Rossiya-Buxoro o'rtasidagi diplomatik va savdo-sotiq munosabatlari tarixiga oid ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan.

Ushbu masalalar yuzasidan Ye.V.Bunakov, P.O.Golubkov, Ye.L.Shteynberg, B.C.Batrakov, D.V.Valiyev, V.I.Yefimov va b.²⁹ning tadqiqotlari amalga oshirildi. Buxoroning siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojining umumiy jihatlarini P.P.Ivanov, A.B.Vildanov, B.A.Axmedov, A.Muxtarov hamda X.G.Gulyamov³⁰ kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etildi. O'rganilayotgan davrda Buxoro xonligining madaniy hayotining me'morchilik, ta'lim va adabiyotiga doir izlanishlar M.Ye.Masson, V.A.Shishkin, G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, Ye.M.Peshereva hamda O.A.Suxareva va b. yoritildi³¹.

²⁹ Бунаков Е.В. К истории сношений России с среднеазиатскими ханствами в XIX в. // Советское востоковедение. – 1941, №2. – С. 5-26; Голубков П.О. Торговом пути в Среднюю Азию и Индию через Россию предлагаемом. М.: 1948. –С. 15.; Штейнберг Е.Л. История британской агрессии на Среднем Востоке. Глава IV. — М.: Воениздат, 1951. –С. 212. // http://militara.lib.ru/h/shteynberg_el/04.html (дата обращения: 11.08.2013); Батраков В.С. К истории торговых связей Казахстана с Россией в XVIII-XIX вв. // Труды Среднеазиатского университета. Вып.78.; Исторические науки, Кн.2. – М.: 1956. – С.3-39; Валиева Д.В. Среднеазиатско-русские отношения в первой половине XIX в. Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран Востока в XVIII - начале XX в. – Ташкент: 1963. – С. 42-76; Ефимов В.И. К вопросу о взаимоотношениях России с Бухарой с конца XVIII до середины XIX в. // Труды Самарканд. Госунивер. им. А Навои. Материалы по истории Узбекистана. Нов. сер. Вып. 140. – Самарканд: 1964. – С. 23-42.

³⁰ Гулямов Х.Г. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 333.

³¹ Массон М.Е. Регистан и его медресе. Вып. 3. Среднеазиатский. – Ташкент: 1926. –С. 31.; Шишкин В. А. Архитектурные памятники Бухары. – Ташкент: 1936; Ўша муаллиф: Города Узбекистана. – Ташкент: 1943. –С. 40.; Пугаченкова Г.А. Чор Минор // <http://vsamirnaya-istoriya.ni/istoTicheskiz-pamyatniki/92-istoricheskiz-pamyatniki-bukhari/677-chor-minor.html>; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. – М.: 1965. – С. 375; Ремпель Л.И. Далекое и близкое. Бухарские записи. – Ташкент: 1982. –С. 302.; Пещерева Е.М. Бухарские золотошвей // Сборник музея Института антропологии и этнографии. Т. 16. – М.-Л.: 1959; Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара конца XIX — начала XX века. Ремесленная промышленность. – Ташкент: Изд-во АН Уз.ССР, 1962. –С. 194.; Ўша муаллиф: Ислам в Узбекистане. – Ташкент: 1960. –С. 86.; Ўша муаллиф: К истории городов Бухарского ханства (Историко-этнографические очерки). – Ташкент: Изд-во АН Уз. ССР, 1958. –С. 145.; Ўша муаллиф: Бухара; XIX - начало XX в. (позднефеодальный город и его население). – М.: 1966. – С. 328.

Sovet tuzumi davri tarixshunosligida Buxoro amirligi davri agrar munosabatlari A.Abduraimov³², N.N.Kislyakov³³ va N.X.Hamroyev.³⁴, A.A.Semyonov³⁵, B.X.Karmysheva³⁶, A.R.Muhammadjonov³⁷, M.G.Vahobov³⁸ning asarlarida o'rganilgan.

Buxoro tarixi bo'yicha yirik tadqiqotchi O.A.Suxarevaning³⁹ bir qator monografiyalari ushbu davr Buxoro xonligi ijtimoiy hayoti, xususan, shaharlari, aholisi va hunarmandchilik sanoati tarixini yoritishga xizmat qildi.

Amirlikning Qashqadaryo vohasidagi shaharlari tuzilishi M.Ye.Masson asarida atroflicha yoritilgan.⁴⁰ O'zbekistonning bu davr shaharlari va shahar hayoti, so'nggi o'rta asrlar davrida O'rta Osiyoda hunarmandchilik va savdo tarixini o'rganish ishiga G.A.Agzamova ham muhim hissa qo'shgan.⁴¹ J.Mirzaahmedov Buxoroning so'nggi o'rta asrlar davri badiiy (sirkor) kulolchiligiga bag'ishlab maxsus kitob chop etgan⁴².

Sovet davri tarixshunosligida ham ba'zi bir adabiyotlarda Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli bir yoqlama baho berilgan bo'lsa-da, ushbu davr tarixining turli sohalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar, manbalar tarjimalari amalga oshirildi. Bu esa o'z navbatida

³² Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI первой половине XIX в. Т.1. – Ташкент: 1966.

³³ Кисляков Н.А. Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX начале XX века. – М., Л., 1962. –С. 78.

³⁴ Хамраев А.Х. К вопросу о земельно - водных отношениях в Бухарском ханстве в XIX в. – Т.: 1948.-С. 41.

³⁵ Семёнов А.А. Очерки устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. – Сталинабад: 1954. – С. 59.

³⁶ Кармышева Б.Х. К этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: 1976.-С. 31.

³⁷ Вахабов М.Г. Формирование узбекской социалистической нации. – Ташкент: 1961.-С. 26.

³⁸ Мухамаджонов А.Р. Куйи Зарафшон воҳасининг суғорилиш тарихи. – Тошкент: 1977.-Б. 12. Мухамаджонов А.Р. История орошения Бухарского оазиса. – Ташкент: 1977. -С. 23.

³⁹ Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. (Историко-этнографические очерк) – Ташкент: 1957.; Сухарева О.А. Позднефеодалный город Бухара конца XIX начала XX в. Ремесленная промышленность. – Ташкент: 1962.; Ўша муаллиф: Бухара XIX-начало XX вв. (Позднефеодалный город и его население). – Ташкент: 1966.; Ўша муаллиф: Квартальная община Бухары. Ташкент: 1973.-С. 14.

⁴⁰ Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. Ташкент: 1973.-С. 33.

⁴¹ Агзамова Г.А. Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳар ҳаёти. – Тошкент: 2000; Ўша муаллиф. Сўнгги ўрта асрлар ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик ва савдо. Тошкент: 2000.-Б. 16.

⁴² Мирзаахмедов Д.К. К истории художественной культуры Бухары. – Ташкент: 1990. -С. 32.

XVI asrda Buxoro xonligining tashkil topishidan XVIII asr o'rtalarigacha bo'lgan davrlar tarixiga oid ilmiy tadqiqot ishlari saviyasining ortishiga xizmat qildi.

Buxoro xonligining Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida bunyodkorlik va ilm-fan taraqqiyoti masalalari V.V.Bartold, Semyonov, G.A.Pugachenkova hamda L.I.Rempel asarlarida ham ma'lum ma'noda o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin⁴³.

G.A.Pugachenkovaning O'rta Osiyo madaniyati va san'ati tarixi bo'yicha, xususan, o'rganilayotgan davr me'moriy obidalari tarixiga doir ko'plab nashr etilgan izlanishlari sovet davri tarixshunosligida ham salmoqli o'rin egallaydi⁴⁴.

Mazkur davr tarixshunosligida alohida o'rin egallagan olimlardan biri B.Ahmedov⁴⁵ bo'lib, u sovet tarixshunosligidayoq ushbu masalalarga e'tibor qaratgan tadqiqotchi hisoblanadi⁴⁶.

Buxoro xonligining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotiga oid ko'plab ma'lumotlarni O.D.Chexovych⁴⁷ va M.A.Abduraimov⁴⁸larning ilmiy ishlarida ham topish mumkin.

Bu mavzuga oid ilmiy izlanishlar xususida to'xtalar ekanmiz, R.G.Mukminovanning ilmiy izlanishlarini ta'kidlab o'tmasdan bo'lmaydi.

⁴³ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана / Соч. – М.: 1963. Том II. Ч. I. – С. 109-166; Ўша муаллиф. Культура мусульманства / Соч. – М., 1966. Том VI. – С. 141-204 ва бошқ.;

⁴⁴ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент, 1958. –С. 292.; Пугаченкова Г. А. Самарканд. Бухара. По древним памятникам Самарканда и Бухары. Изд. 2-е дополнение. – М., 1968. –С. 204.; Ўша муаллиф. Термез, Шахрисабз, Хива (Архитектурные памятники I – XIX вв.). – М.: Искусство, 1976. –С. 207.; Ўша муаллиф. Памятники искусства Советского Союза. Средняя Азия. Справочник-путеводитель. – М.–Лейпциг: Эдицион, 1983. – С. 426.

⁴⁵ Б. Ахмедов асарлари ҳақида қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: ЎМЭ Давлат илмий нашриёти, 2000. Жилд. I. – Б. 560.

⁴⁶ Ахмедов Б.А. Шайбонийлардан кейин аштархонийларнинг ҳокимият тепасига келиши // Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 184-195.; Ўша муаллиф: История Балха (XVI в. – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982.; Ўша муаллиф: Кўчманчи ўзбеклар давлати // Тарихдан сабоқлар. Т., 1994. – Б. 86.

⁴⁷ Чехович О.Д. Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве XVII-XIX вв. – Ташкент: 1954. – С. 56.

⁴⁸ Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI пер. пол. XIX. Т. 1. – Т.: 1966. –С. 368.

Olima Buxoro xonligi tarixiga oid yozma manbalardagi ma'lumotlar asosida davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotini batafsil yoritishga harakat qilgan⁴⁹.

H.Ziyayevning ushbu davrga oid bir qancha tadqiqotlarida asosan Buxoro xonligining qo'shni davlatlar bilan munosabatlari yoritib berilgan⁵⁰.

Buxoro xonligining umumiy tarixini yorituvchi asarlar qatoriga turli davrlarda nashr qilingan fundamental kitoblarni ham kiritish mumkin. Ularda xonlik tarixining barcha sohalariga oid ma'lumotlarni topish mumkin⁵¹.

Ushbu guruhni mustaqillik-yillarida davr tarixiga oid olib borilgan tadqiqotlar tashkil qiladi. Mazkur davr tarixshunosligi sovet davridagi tarixiy jarayonlarga bo'lgan mafkuraviy qarashlarni qaytadan ko'rib chiqish bilan xarakterlanadi.

Bu davr tarixshunosligida tadqiqot olib borgan mualliflar o'z asarlarida Buxoro xonligi tarixi masalasiga xolisona, manbalar orqali tarixiy voqeyilik va jarayonlarni ob'ektiv baholagan holda yoritishga yondashganliklari bilan xarakterlanadi.

Mustaqillik-yillarida Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchiligi tarixi" nomli asarida XVI-XIX asrlarda O'zbek davlatchiligi bo'limida

⁴⁹ Мукминова Р.Г. Очерки истории ремесла в Самарканде и Бухаре XVI в. – Ташкент, 1976. – 103 с.; Ўша муаллиф: Ремесло и торговля // История Самарканда. – Ташкент, 1969. Т. I. – С. 195-212; Ўша муаллиф: К истории ремесленных мастерских кархана. Средневековый Восток. История, культура, источниковедение. – М., 1980. –С. 196.; Ўша муаллиф: Бухара – столица ханства, город купцов искусных мастеров. ОНУ. 1997. № 9-10-11. – С. 52-57.

⁵⁰ Зиёев Ҳ. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI – XIX асрлар). – Тошкент: 1962. – Б. 43.; Ўша муаллиф: Переписка правителей Шейбанидов и Аштарханидов с Ираном и Индией // Исследования по истории, история науки и культуры народов Средней Азии. – Ташкент: 1993. – С. 99-109.

⁵¹ История Бухары с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Изд-во «Фан», 1976. –С. 381.; История Казахской ССР. С древнейших времен до наших дней. В 5 Т. [Гл. ред. колл.: А.Н.Нусупбеков (гл. ред.) и др.]. Т. 2. Развитие феодальных отношений. Образование казахской народности и Казахского ханства. – Алма-Ата: Наука, 1979. –С. 424.; История народов Узбекистана. Т.11. / Под ред. С.В. Бахрушина, В.Я.Непомнина, А.Шишкина. – Ташкент: 1947.-С. 511.; История Самарканда. Т.1.С древнейших времен до Великой Октябрьской социалистической революции. – Ташкент: 1969. –С. 484.; История таджикского народа. Т. 2. Кн. 2. – Москва: 1964. –С. 356; История Узбекистана. Т.3. (XVI – первая половина XIX века). – Ташкент: 1993. –С. 476.; История Узбекской ССР: в 2 т. – Т.1. – Кн. 2: Середина XVIII в. – 1917 г. / Институт истории и археологии АН Уз. ССР / Под ред. Мавлян Гафаровича Вахабова. 2-е изд., испр. – Ташкент: Издательство АН Уз. ССР. 1956. –С. 497.

Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolariga to'xtalib o'tgan. A.Ziyo Shayboniylar sulolasining o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'rnini yuqori baholaydi. Ushbu sulola vakillaridan, ayniqsa, Shayboniyxon (1501-1510), Ubaydullaxon (1533-1540) va Abdullaxon II (1556-1598) boshqaruvidagi davrlar mamlakatni yagona hokimiyat ostida birlashtirishga uringanliklarini ta'kidlaydi⁵². Tadqiqotchi ushbu harakatlar davomida Shayboniyxonni 1510-yilda Marv yaqinida Ismoil Safaviy tomonidan halok qilinishi bunga xalaqit berganligini, Ubaydullaxon davrida esa Buxoro xonligining mavqei yuksalib Safaviylarga qarshi muvaffaqiyatli kurashganligini e'tirof etadi. Ammo A.Ziyoing Abdullaxon II davriga kelib, butun bir mintaqa yagona markaz ostida birlashtirilganligi, Abdullaxon II Amir Temurdan so'ng Dashti Qipchoqqa nisbatan qat'iy siyosat yurgiza olgan yagona va so'nggi davlat arbobi⁵³ hamda aynan Abdullaxon II Ulug'tog'dan Hilmand daryosigacha, Sibir xonligidan Mashhadgacha bo'lgan ulkan hududni yana bir bor markaziy hokimiyat - Buxoro qo'l ostida birlashtirganligi, Amir Temurdan so'ng faqat u erishganligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotda Shayboniylar sulolasidan hokimiyat tepasiga kelgan Ashtarxoniylarning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rnini ham batafsil ochib berilgan. Ammo mualliflar tomonidan oldingi davrlarga nisbatan ushbu sulola vakillari hukmronlik-yillarida mamlakatda boshboshdoqlik, mahalliy kuchlarning va nufuzli amirlarning o'z manfaati yo'lida markaziy hukumatga qarshi kurashlari oxir oqibat davlatning nihoyatda

⁵² Зиё А.Б. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадмги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 235-257.

⁵³ Ўша асар. – Б. 41.

zaiflashuviga sabab bo'lganligi bayon qilingan⁵⁴. Ushbu holatlar XVIII asr o'rtalarida Buxoro xonligida siyosiy o'zgarishlarga olib keldi. Qisqa vaqt davomida Eron davlatiga qaramlikdan so'ng hokimiyat tepasiga Mang'itlar keladi hamda davlat ham Buxoro amirligi deya yuritila boshlangan. A.Ziyo o'z monografiyasida Buxoro xonligining davlat boshqaruvi, qo'shin tuzilishi, qo'shni davlatlar bilan aloqalari, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hamda madaniy hayotiga ham to'xtalib o'tgan.

Z.Muqimovning o'z tadqiqotida Movarounnahr va Xurosonda temuriylar davlati barham topishi, undan keyingi yuz-yil vaqt mobaynida ushbu hududda hukm surgan Shayboniylar davlati tarixi va huquqi xususidagi masalalar yozma manbalar hamda tarixshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari, hujjatlar to'plamlari asosida tahlil etishga harakat qilingan. Z.Muqimov Shayboniylarning hokimiyat tepasiga kelishi, Buxoro xonligida Shayboniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot, davlat boshqaruvi, yer egaligi, soliqlari, harbiy tarixi va huquqlari asosiy belgilarini asoslab berishga uringan. Muallif o'z tadqiqotida ilmiy xulosalar asosida Shayboniylar davlati va huquqining o'zbek xalqi davlatchiligi tarixida tutgan o'rini ko'rsatib berishga harakat qilgan⁵⁵.

Z.Muqimov Shayboniylar sulolasi haqida fikr bildirar ekan, mazkur sulola vakillaridan Muhammad Shayboniyxon (Shohbaxt), Ubaydullaxon va Abdullaxon II singari hukmdorlarni ilm-fan, adolat tarafdori bo'lganliklarini, ularning siyosat, davlat boshqaruvi, ilm-fan taraqqiyoti yutuqlari, shuningdek, ular davrida qurilgan me'moriy obidalar bilan xalqimiz haqli ravishda faxrlanishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi.

⁵⁴ Зиё А.Б. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадмги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 270

⁵⁵ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот. – Тошкент: “Адолат”, 2007. – Б. 156.

Tadqiqotchi o‘zbek davlatchiligi tarixi va huquqida ushbu sulolaga hali yetarlicha e‘tibor berilmagan⁵⁶, deya ta’kidlaydi.

Umuman olganda, Z.Muqimov mazkur holatga o‘z davrida V.V.Bartold ham alohida e‘tibor berib, O‘zbeklarning hukmronlik qilgan davrlari O‘rta Osiyo tarixining eng qorong‘i va yaxshi o‘rganilmagan davrlaridan biri bo‘lib qolmoqda, deb ta’kidlagan bo‘lsa, B.A.Ahmedov ham ushbu muammoning respublikamiz tarix fanida juda kam tadqiq etilganligiga e‘tibor qaratib: XV asrdagi o‘zbeklar davlatining ichki tuzumi yaxshi o‘rganilmaganligini ta’kidlaganligini e‘tirof etadi⁵⁷.

Bundan tashqari tadqiqotning tarixshunoslik qismida V.Bartold⁵⁸, A.Semyonov⁵⁹, B.Ahmedov⁶⁰, R.Mukminova⁶¹, G.Hidoyatov⁶² va Azamat Ziyov⁶³, “O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi”⁶⁴ nomli darslik, “O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi”⁶⁵ nomli o‘quv qo‘llanma asosida Buxoro xonligi Shayboniylar sulolasi hukmronlik-yillariga baho beradi⁶⁶. Ushbu mavzu doirasida Z.Muqimovning qator ilmiy tadqiqotlari bo‘lsa-da, ularning aksariyatida faqat Shayboniylar sulolasi tarixi bayon qilingan⁶⁷.

⁵⁶ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот. – Тошкент: “Адолат”, 2007. – Б. 3-4.

⁵⁷ Ўша асар – Б. 4.

⁵⁸ Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и в России. Изд. второе – Л.: 1925. – С. 258. Ўша муаллиф: История турецко-монгольских народов. Казахского высшего пед. института в 1926-27 учеб. году. Соч., Т., V. М., 1968. Ўша муаллиф: Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч., Т., I, М., 1963.

⁵⁹ Семёнов А.А. Шейбанихан и завоевание империи Темуридов; Ўша муаллиф: Первые Шейбаниды и борьба за Мавареннахр //Материалы по истории узбеков и таджиков. Выпуск 1. – Сталинобод:1954. –С. 85-111.

⁶⁰ Ахмедов Б.А. Кўчманчи ўзбеклар давлати // Тарихдан сабоқлар. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 54-100, Ўша муаллиф: Ўзбек улуси. – Тошкент: Нур, 1992. –Б. 149.

⁶¹ Мукминова Р.Г. К Истории аграрных отношений в Узбекистане в XVI в. по материалам «Вакфнаме». – Ташкент: “Фан”, 1996.

⁶² Қаранг: Ҳидоятлов Г.А. Менинг жонажон тарихим. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б.304.

⁶³ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар) – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 238.

⁶⁴ Эшанов А.И., Саматова Х.С., Уразаев Ш.З. История государства и права Узбекистана. Учебник. Часть I. – Ташкент: Ўқитувчи, 1969. – С. 62.

⁶⁵ Саидов А., Тошқулов Ж. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Ўқув қўлланмаси. – Тошкент: ИИБ Академияси. 1995. – Б. 32-34.

⁶⁶ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот. – Тошкент: “Адолат”, 2007. – Б. 4.

⁶⁷ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. –Б 123; Ўша муаллиф: Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). I қисм. – , Самарқанд: Зарафшон, 1998. – Б. 186-226.; Ўша муаллиф: Қилич ва қалам соҳиблари (давлат арбоблари ҳақида лавҳалар). – Самарқанд:

Mustaqillik-yillarida XVI-XVIII asrlarda Buxoro xonligi hayotining turli sohalariga oid bir qator dissertatsiyalar himoya qilindi. Jumladan, H.To‘rayev⁶⁸ doktorlik dissertatsiyasida XVI-XVII asrlar hayotida Jo‘ybor xojalarining o‘rni nihoyatda katta bo‘lganini hamda Movarounnahrda hukmronlik qilgan ikki sulola - Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida bu xonadon vakillari mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatganliklarini, shuningdek, Shayboniylardan Abdullaxon II markaz Buxoro atrofida mamlakatni yana qayta birlashtirish, markazlashtirish hamda yaxlitligini saqlab qolish yo‘lida kurashganligi va bu yo‘lda unga ko‘makchi bo‘lgan Jo‘ybor xojalarining ahamiyati katta bo‘lganligi ta’kidlanadi⁶⁹. Dissertatsiyada V.L.Vyatkin, Ye.E.Bertels, P.P.Ivanov, M.Y.Yuldashev, M.A.Abduraimov, I.G‘.Nizomiddinov, L.Rahmonova, B.A.Ahmedov hamda I.Saidaxmedovlarning tadqiqotlari asosida Buxoro xonligining Abdullaxon hukmronlik-yillarida Jo‘ybor shayxlarining ijtimoiy-xo‘jalik hayoti, ularning hokimiyatga ta’siri tahlili berilgan.

Bundan tashqari P.P.Ivanov bergan ma’lumotlarga tayanib Jo‘ybor xojalarning siyosiy nufuzi nafaqat Shayboniylar sulolasi, balki Ashtarxoniylar hukmdorlar-Boqimuhammadxon, Imomqulixon, Nadirmuhammadxon va Abdulazizxonlar davrida ham bo‘lganligi e’tiborga olingan⁷⁰.

G.Agzamovaning O‘rta Osiyo shaharlariga bag‘ishlangan maqolasida Samarqand, Qo‘qon, Xiva va Marg‘ilon shaharlari qatorida

Зарафшон, 1996.; Ўша муаллиф: Шайбонийлар данлати ва ҳукуки. Ўзбекистон миллий данлатчилик назарий ҳукукий асослари. Иккинчи китоб. – Т.: 2006. – Б. 60-113.

⁶⁸ Тўраев Ҳ. Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий – сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида жўйбор хожаларининг тутган ўрни. Тар.фан.док. ... автореф. – Тошкен: 2007.

⁶⁹ Тўраев Ҳ. Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий - сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида жўйбор хожаларининг тутган ўрни. Тар.фан.док. ... автореф. – Тошкен: 2007. - Б. 6.

⁷⁰ Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1954.

Buxoroga ham to‘talarkan, uning ham mudofaa devorlari bilan o‘ralganligi ta’kidlanadi⁷¹.

G.Sultonovning dissertatsiyasida⁷² XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro xonligining Qozoq va Yorkend xonliklari bilan olib borgan aloqalari mavzusi doirasida Buxoro xonligining Abdullaxon II davri markazlashgan davlat barpo qilinishi va uning mamlakat tashqi siyosatiga ta’siri ham ochib berilgan.

A.Zamonovning⁷³ tadqiqotida XVI asrda Buxoro xonligining tashqil etilishi va davlatni markazlashtirish uchun kurash, shayboniylar sulolasi davrida Buxoro xonligining harbiy-siyosiy holati, harbiy boshqaruv tizimi tahlil etilgan.

Buxoro xonligi va amirligining xo‘jalik hayoti, iqlim sharoiti, iqtisodiy aloqalari, etnik tarkibi, urf-odati, an‘analari surxon vohasi misolida olib borilgan ko‘plab ob‘ektiv ma’lumotlarni S.Tursunov⁷⁴, E.Qobilov⁷⁵, T.Pardayev, N.Tursunovlarning⁷⁶ asarlari va dissertatsiyalari xonlik tarixshunosligini tadqiq etishda muxim o‘rinni egallaydi. Ushbu davrga oid adabiyotlar turkumiga 2000-yilda nashr etilgan “O‘zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti”⁷⁷ kiritish mumkin. Mazkur kitoblar ham ushbu davr tarixini o‘rganishda ahamiyatlidir.

⁷¹ Агзамова Г. Сўнгги ўрта асрларда Ўрта Осиё шаҳарлари: умумийлик ва хусусийлик // Ўзбекистон тарихи. № 2. - Б. 56-63.

⁷² Султонова Г.Н. XVI асрнинг иккинчи ярмида Бухоро хонлигининг Қозоқ ва Ёркенд хонликлари билан алоқалари. Тар. фан. ном. илм. дар.дисс. автореф. - Тошкент: 2005.

⁷³ Замонов А.Т. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви (XVI аср). Тар. фан. бўй. фал. док. (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент: 2018.

⁷⁴ Турсунов С.Н. Д.Ёкубова. Сурхондарё тарихи. Тошкент. Тафаккур 2020.-Б.162, Турсунов С. Н., Қобилов Э. ва бошқ. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Тошкент: Шарқ, 2001. –Б. 94.

⁷⁵ Қобилов Э. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Тар.фан.док. ... автореф. — Тошкент: 2019. –Б. 20.

⁷⁶ С.Турсунов, Т.Пардаев, А.Қурбонов, Н.Турсунов.Ўзбекистон тарихи ва маданияти ҳамда Сурхондарё этнографияси. Тошкент 2006. –Б. 93

⁷⁷ Саъдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: 2000. –Б. 272.

XVI - XVII asrlarda Buxoro xonligidagi etnik jarayonlar xususida K.Shoniyozov⁷⁸ va A.Asqarovning⁷⁹ asarlarida birmuncha tadqiq etilgan.

XVII - XVIII asrning birinchi yarmi Buxoro xonligining Rossiya va qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalari va savdo munosabatlari tojikistonlik tadqiqotchilar D.X.Djurabayev⁸⁰, X.Pirumshoyeva va A.Saidova⁸¹larning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Keyingi davr adabiyotlariga asosan mavzu doirasidagi xorijiy tadqiqotlar misol bo'la oladi. Ushbu davrda xorij tarixshunosligida asosan, ingliz tilidagi tadqiqotlarda Buxoro xonligi tarixshunosligiga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratilmaganligini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Xorijda nashr qilingan asarlarning asosini O'rta Osiyo sivilizatsiyasining jahon kontekstidagi o'zni masalasida Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklari tarixi masalasi ko'tarilgan xolos. Bundan tashqari g'arb tarixshunosligida ham Buxoro xonligining tarixshunoslik masalasi tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

XIX asr boshlarida Buxoro xonligi tarixiga oid asarlar xorijiy davlatlarda chop etila boshlangan. Shunday kitoblardan biri 1823-yilda Berlinda chop etilgan bo'lib, unda Buxoro shahrininghamda xonlikning savdo munosabatlari haqida ayrim ma'lumotlar berilgan⁸². Buxoro xonligi

⁷⁸ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарк, 2001. –Б. 464.

⁷⁹ Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: 2007. –Б. 104.

⁸⁰ Джурабаев Д.Х. Монументальная и традиционная архитектура Бухарского эмирата на рубеже XVIII - XIX вв.// Научное обозрение. Сер.гуманит. наук. – 2010. - № 1-2. – С. 63-70.; Джурабаев Д.Х. Особенности кризиса политической власти в Бухарском ханстве в XVIII в. (на первом этапе правления Убайдуллахана (1702 - 1711 гг.) // Вестник ТГУПБП. – 2012. - № 2 (50). – С.228-234.; Джурабаев Д.Х. Борьба за централизацию государственной власти в период правления Мухаммад Рахим-хана (1747 - 1758) // Вестник ТГУПБП. – 2012. - № 3 (51). – С. 234-241.; Джурабаев Д.Х. Российское направление внешней политики Бухарского ханства в первой половине XVIII века. // Научное обозрение. Сер.гуманит. наук. - 2013. №3-4. - С. 159-164.

⁸¹ Пирумшоев Х. Российско-среднеазиатские отношения XVI-сер. XIX веков в русской историографии. - Душанбе: 2000. –С. 338.; Саидов А. О проблеме взаимоотношений Бухары и Балха в первой половине XVIII века по сведениям «Убайдулла-наме» // Вестник университета. Научный журнал Российско-Таджикского славянского университета. № 2 (14). -Душанбе: 2006; Ўша муаллиф: Политическая история Бухарского ханства в XVII - первой половине XVIII вв. - Душанбе: Ирфон, 2007. -С. 149.;

⁸² Ed. Eversmann. Reise von Orenburg nach Bukhara. Berlin, 1823.-P. 29.

tarixiga oid yana bir asar 1826-yilda Parij shahrida fransuz tilida nashr etilgan. Mazkur asarda Buxoro shahri, uning aholisi, savdo va hunarmandchiligi, xonlikdagi mansablar, Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi xususida ma'lumotlar keltirilgan⁸³. 1839-yilda Londonda ingliz tilida Buxoro tarixiga oid muhim asarlardan biri chop etildi⁸⁴.

Ushbu mavzuga oid dastlabki tadqiqotlardan biri sifatida F.Skrayn va Ye.Rossning Markaziy Osiyo tarixiga bag'ishlangan asarini keltirib o'tish mumkin. Lekin mazkur tadqiqot butun mintaqa tarixini eng qadimgi davrdan XIX asrga qadar bo'lgan davrni qamrab olgan bo'lib, umumiy tarix shaklida yozilgandir⁸⁵.

Bu xususda D.X.Djurabayevning ilmiy maqolasida Buxoro xonligi va Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlagan XIX-XX asrlarda ijod qilgan g'arblik ko'plab tadqiqotchilarning, xususan, D.Bouljer, E.Ross, F.Skrayn, A.Vamberi, J.Malleson, Dj.Kerzon, J.Dobson, V.Ye.Kurtis, J.F.Rayt, G.Norman, S.Grexem, V.Joxelson, J.Kunits, V.Koatez, Meri Xoldsvort va b. o'z asarlarida Markaziy Osiyo tarixining umumiy masalalariga e'tibor bergan, deya fikr bildiradi. Ularning asarlarida Buxoro xonligi va Buxoro amirligi tarixini chuqur va maqsadli o'rganish tadqiqot ob'ekti sifatida olinmagan⁸⁶. Lekin tadqiqotchi tomonidan asosan Buxoro amirligi (XVIII -XIX asrlar) ning xorijiy tadqiqotlarda o'rganilishi maqsad qilinganligi bois, Buxoro xonligining g'arb tarixshunosligida o'rganilishi masalasi ochiq qolgan.

⁸³ Bar. Meyendorf. Voyage de Orenborg an Bukhara fait en 1820. Paris 1826. –P. 27.

⁸⁴ Burns Alexander. Travels in to Bukhara. London, 1839. –P. 73.

⁸⁵ Scrine, F. H., Ross, Ye. D. The Heart of Asia. A History of Russian Turkestan and the Central Asian Khanates from the Earliest Times. London, 1899. –P. 42.

⁸⁶ Джурабаев Д.Х. Отражение истории Бухарского эмирата в исследованиях западных авторов // Научное обозрение. Исторические науки. . - № . ;URL: <https://science-history.ru/ru/article/view?id=38>

XX asrning 30-yillariga kelib xorijlik tadqiqotchilar o'zbek xonliklari tarixi bo'yicha asarlar yoza boshladilar. G'arb tarixchilarini qiziqtirgan masalalardan biri nafaqat siyosiy tarix, balki xonliklarning davlat boshqaruvi bilan bog'liq edi. Mazkur masalada ko'pchilik xorijlik tadqiqotchilarning fikri umumiy ekanligi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilganda ko'rinadi. J.Kunits bu haqda: davlat - ma'muriy-hududiy bo'linish jihatidan viloyatlar, tuman va qishloqlarga bo'lingan holda ularni boshqarishda beklar, amlokdor va oqsoqollar ishtirok etganligiga urg'u beradi. Muallif manbalarga tayangan holda mamlakat ijtimoiy hayotida islom dinining o'rni katta bo'lganligini ta'kidlaydi. J.Kunits Buxoroni O'rta Osiyoning yuz-yillar davomidagi tarixida "arab-fors madaniyatining markazi", "islom yuragi", 250 ga yaqin madrasa va masjidleri bor, ko'plab Qur'on tafsirchilari va fiqhshunos ulamolar yetishib chiqqan joy, deb ta'riflagan⁸⁷. Ingliz olimasi Meri Xoldstvortning 1959-yilda nashr qilingan «XIX asrda Turkiston. Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarining qisqacha tarixi»⁸⁸ monografiyasida muallif O'rta Osiyodagi uchchala xonlik tarixiga qisqacha bo'lsa-da to'xtalib o'tadi. Tadqiqotda XIX asr davriy chegara qilib belgilangan, ammo unda ilk bora g'arb tarixshunosligida xonliklarning siyosiy tarixiga katta e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin.

Xorijiy tadqiqotchilar orasidan O.Bartonning ilmiy izlanishlarini ham ta'kidlab o'tish o'rinlidir. O'z ishida asosiy e'tiborni Buxoro xonligining Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davrida qo'shni davlatlar va xalqlar, Moskva davlati bilan aloqa munosbatlariga qaratadi⁸⁹. Ushbu

⁸⁷ Kunits J. Dawn over Samarkand. The rebirth of Central Asia. - New York, 1935.-P. 12.

⁸⁸ Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. A brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. - Oxford, 1959. -P. 29.

⁸⁹ Burton, A. The Fall Herat to the Uzbegs in 1588 // Iran. XXVI. London The British Institute of Persian Studies. 1988. P. 119 - 123; Who was the first Ashtarkhanid Ruler of Bukhara? // Bulletin of the School of Oriental and African

muammo doirasida O.Bartoning kitobiga R.D.Makchesning tadqiqoti ham nihoyatda yaqin bo‘lib, unda XVII asrda Eronning O‘rta Osiyodagi xonliklar bilan aloqalari yoritiladi⁹⁰.

Ashtarxoniylarning (Astraxanda hukmronlik qilgan paytlarida) No‘g‘ay va Qrim xonliklari bilan munosabatlarining turli masalalari A.Bennigsen va K.Lemerse-Kulkudjay asarlarida o‘rganilgan⁹¹. Ushbu tadqiqotlar asosida XVI asr o‘rtalarida Ashtarxoniylarning siyosiy ahvoli va Movarounnahr hududiga kirib kelish sabablarini qisman xulosa qilish mumkin. Ayrim tadqiqotchilar O‘rta Osiyoning umumiy tarixiga bag‘ishlangan ilmiy asarlarda o‘rganilayotgan davr tarixiga to‘htalib o‘tishganliklarini ko‘rish mumkin. Jumladan, S.Soucek tomonidan nashr qilingan “History of Inner Asia”⁹² Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan sulolar qatorida Shayboniylar va Ashtarxoniylar tarixiga ham alohida boblar ajratilgan. Lekin ularda ham yuqorida ta’kidlaganidek, mazkur bo‘limlarda Buxoro xonligi tarixining umumiy masalalari va siyosati qisman ochib berilganligini ko‘rish mumkin.

S.Soucek Shayboniylarning mintaqada hokimiyat tepasiga kelishini, siyosiy boshqaruviga baho berarkan, ularni temuriylar bilan taqqoslaydi. Uning fikricha, ushbu sulola vakillari Temuriylarga o‘xshab turkiy sulolalardan bo‘lib, ulardan qipchoq lahjasida so‘zlashganliklari bilan farqlanadi. Ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi Abdullaxon II

Studies. University of London. London, 1988.Vol. 51. Part.3.; The Bukharian Trade 1588 - 1718. Indiana University. Research Papers on Inner Asia. Indiana, Bloomington. 1993. №23. –P. 32.

⁹⁰ McChesney, R.D. The Amirs of Muslim Central Asia in the 17th century // *Jornal of Oriental and African Studies*. 1983.26/1 .P. 33 - 70; «Barrier of Heterodoxy»: Rethinking of the Ties between Iran and Central Asia in the 17th century // *Pembroke Papers*. 1996. № 4. P. 231 -267.

⁹¹ Bennigsen A., Lemersier-Quelquejay Ch. Le Grand Horde Nogay et le probleme des communications entrer Empire Ottomane et l'Asie Centrale en 1552 – 1556 // *Turcica. Revue d'etudes torques*; Bennigsen A., Veinstein G. La Grande Horde Nogay et le commerce des steppes pontiques (fin XV - 1560) // *Turkienin sosyal ve economic tarihi*, 1071 - 1920. Ed. O. Okuyar, H. Inalcik. Ankara, 1980. P. 49 - 63.

⁹² Soucek S.A History of Inner Asia. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. // <https://www.cambridge.org/core/books/history-of-inner-asia/2B68237BDEDE5442BDE4F69A971AFD71#fndtn-metrics>

tomonidan o'g'li Abdulmo'mindan boshqa taxtga da'vogarlarining yo'q qilinishi sabab bo'ldi va Abdullaxon II bunga harbiy ittifoqdoshlari bo'lgan Usmoniylardagi tartibdan foydalangan bo'lishi mumkin⁹³, deb yozadi tadqiqotchi.

P.B.Goldenning "Sentralnaya Aziya v mirovoy istorii" nomli monografiyasi an'anaviy g'arb tendensiyasiga xos bo'lgan dunyo tarixining yevropasentrizm nazariya doirasidagi adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Muallif tomonidan mazkur asarda Markaziy Osiyo mintaqasining paleolit davridan to hozirgi kungacha bo'lgan tarixini yaxlit holda ochib berish asosiy maqsad qilib belgilangan. Nashrning Porox va imperiyalar inqirozi davri (The Age of Gunpowder and The Crush of Empires, 105-121-betlar) nomli sakkizinchi bobida tadqiq etilayotgan davrga daxldordir. P.B.Golden ushbu bo'limda Markaziy Osiyodagi hukmronlik qilayotgan sulolar harbiy qudratining XVI-XVII asrlarda ularga chegaradosh bo'lgan Safaviylar, Moskva podsholigi va Manchjurlar davlatlarida o'q otar qurollarning ishlatila boshlanishi bilan bog'laydi. Asarda mintaqaning iqtisodiy ahvoliga yevropaliklar tomonidan transokean savdo yo'llarining ochilishi katta salbiy ta'sir ko'rsatgan, degan ilmiy paradigmaga ilmiy adabiyotlar orqali qayta ko'rib chiqishga harakat qilingan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra O'rta Osiyolik savdogarlarning hind, rus va eron safaviylari bilan aloqalarida ko'tarilish yuz bergan⁹⁴.

Xorijda nashr qilingan adabiyotlar orasida "Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi" ("History of civilizations of Central Asia") turkumida yirik olti jildlik tadqiqotlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu

⁹³ Soucek. S.A History of Inner Asia. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – P. 177-194 //

⁹⁴ Central Asia in world history, By Peter B. Golden. The New Oxford World History Series. Oxford: Oxford University Press, 2011. – P. 115-116.

turkumning V jildi “XVI asrdan XIX asr o‘rtalarigacha” (“Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century”) o‘rganilayotgan davrga to‘g‘ri keladi⁹⁵. Bu to‘plamda ko‘plab tadqiqotchilarning Buxoro xonligining XVI asrdan XIX asrgacha bo‘lgan siyosati va davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari, mamlakatda olib borilgan pul-moliya siyosati, xonlikdagi madaniy-ma’naviy hayot masalalari keng yoritilganligi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa sifatida XIX asrdan to bugungi kungacha mahalliy va xorij tarixshunosligida Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotining turli masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar qilinganini aytish mumkin. Bir yarim asrdan ortiqroq vaqt davomida mazkur davr tarixshunosligiga oid an’anaviy konsepsiyalar hamda fikr-mulohazalar bildirilgan bo‘lsa-da, Buxoro xonligining tashkil topishidan to mang‘itlar hukmronligi o‘rnatilgunga qadar bo‘lgan tarixshunosligini yaxlit ochib beruvchi tadqiqot hanuzgacha yaratilmaganini ta’kidlash lozim. Shuning uchun ham ushbu davr tarixini tahlil qilish tarixshunosligimizdagi dolzarb masalalardan biridir.

I.2. O‘rganilayotgan mavzuga doir yozma manbalarning o‘rganilishi

Tarixiy manbashunoslikning o‘rganilishi XIX asr oxirida Yevropada ro‘y berib, tarixiy asarlarni kataloglashtirish ishlari bilan bevosita bog‘liqdir. Bu o‘rinda tuzilgan tarixiy manbalar kataloglari orasida ingliz olimi Charlz Ryoning ko‘p tomda nashr qilingan arab, fors va o‘zbek

⁹⁵ History of Civilizations of Central Asia. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. Vol. V. / Editors: Chahryar Adle and Irfan Habib. Co-editor: Karl M. Baipakov. – UNESCO. Multiple History Series UNESCO Publishing, 2003. – P. 910

tillaridagi sharq qo‘lyozmalari kataloglari o‘rta asrlar tariximizga tegishli bo‘lgan yozma manbalarni o‘rganishni boshlab bergan desak, adashmaymiz. Makur olim tomonidan yozma manbalarni tavsiflash tamoyili o‘zining mukammalligi va puxta o‘ylanganligi bilan alohida ajralib turadi. Ch.Ryoning “Britaniya muzeyidagi o‘zbek (qo‘lyozmalar katalogi)” (London, 1888, ingliz tilida) (Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum by Rieu Charles.-London: 1888.432 p.) katalogida tadqiqotimiz doirasidagi ko‘plab tarixiy asarlarning asosiy ma’lumotlari va o‘rganilish tarixi haqida ko‘plab ma’lumotlar topish mumkin.

Bundan tashqari mavjud kataloglar orasida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti sharq qo‘lyozmalari katalogini ham keltirib o‘tish o‘rinlidir⁹⁶.

Mustaqillik-yillari davrida manbashunoslik tarixiga katta hissa qo‘shgan olimlardan B. A.Ahmedovning “O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari”⁹⁷ va “O‘zbekiston tarixi manbalari”⁹⁸ kabi ilmiy asarlari nashrdan chiqdi.

Tadqiq etilayotgan davrga oid yozma manbalar guruhi nihoyatda ko‘p bo‘lib ular qatoriga XVI-XVIII asrlar tarixiy hayotini o‘zida aks ettiruvchi tarixnavislar tomonidan bitilgan asarlarni kiritish mumkin. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Mulla Shodiyning “Fathnoma”, Muhammad Yusuf Munshining “Tarixi Muqimxoniy”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Fazlulloh ibn Ro‘zbehonning

⁹⁶ Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР: Каталог / Под ред. чл.-кор. АН УзССР, действ. чл. АН ТаджССР, д-ра ист. наук, проф. А.А. Семёнова; Ин-т востоковедения. - Ташкент: [б. и.], 1952. – С. 45.

⁹⁷ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Тошкент: 1991. – Б. 152.

⁹⁸ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 352.

“Mehmonnomayi Buxoro”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Sharafnomai shohiy” (“Abdullanoma”), Abudrahmon Davlat Tole’ning “Tarixi Abulfayzxon”, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” (XVIII asrning birinchi yarmi) hamda Muhammad Qozimning “Nomayi alamoroyi Nodiriy”, Abulg‘ozi Baxodirxoning “Shajaraiy turk” asari kabi asarlarini keltirish mumkin. Bu tarixiy manbalar qisman o‘rganilgan xolos.

Yuqorida keltirilgan tarixiy manbalarda tarixiy voqealar va jarayonlar hukmdorlarning hokimiyatga kelish ketma-ketligi, ularning hokimiyat yuritishi xususidagi ma’lumotlar, taxt uchun o‘zaro kurashlar, ixtiloflar hamda kurashayotgan tomonlar o‘rtasida tuzilgan sulhlar, diniy va ijtimoliy mezonlar, shuningdek, adabiy an’analar va ular orasida tavofutlar keng yoritilgan bo‘ladi.

Tarixnavislar tomonidan yozilgan tarixiy manbalarda mualliflarning dunyoqarashi va o‘sha davr ommasining fikrlarini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek mazkur asarlarda davlat qurilishi hamda diplomatik munosabatlar haqidagi ma’lumotlarni ham topish mumkin. Yozma manbalarda iqtisodiy, huquq va ta’lim tizimi, ijtimoiy ahvol va xo‘jalik turmush tarzini yoritib beruvchi ma’lumotlar kam bo‘lsa-da, bu ularning qiymatini aslo pasaytirmaydi. Chunki mualliflarning so‘zlaridan bunday ma’lumotlarni aniqlab olish mumkin.

Buxoro xonligi tarixi doirasida tadqiqotchilar va olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, risolalar, maqolalar yaratilgan bo‘lib, tadqiqotlar asosan XVI-XVIII asrlardagi tarixnavislar tomonidan yozib qoldirilgan manbalarga tayanilgan holda yozilgan. Ushbu davrga tarixini o‘zida mujassam qilgan manbalar ko‘p bo‘lib, ular qisman yevropa va rus tillarida bosilib chiqqan. O‘zbekistonda esa ushbu tarixiy manbalardan ayrimlar rus

va o‘zbek tillarida tarjima qilingan bo‘lib, XX asrning o‘rtalaridan ularning nashrlari e‘lon qilinganligini ko‘rish mumkin. Mazkur vaqtda davr tarixini yoritib beruvchi asosiy tarixiy manbalardan “Abdullanoma”, “Ubaydullanoma”, “Mehmonnomayi Buxoro” va boshqalarning tarjimalari nashr qilindi⁹⁹.

Yozma manbalarning ilmiy muomalaga kiritilishi 1950-yillarda Buxoro xonligi tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar saviyasining birmuncha oshishiga olib keldi. Shuningdek, ayrim manbalar bo‘yicha bu-yillarda mazkur sohada nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi¹⁰⁰.

Olima R.G.Muqminova ham bu davrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, yer-huquqiy munosabatlari tarixini o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan tadqiqotchilardandir. Jumladan, Shayboniyxonning katta hajmli yagona vaqfnomasi “Vaqfnoma”ni rus tiliga tarjima va yer munosabatlariga oid qismlarini tadqiq qilib, uning faksimeliyasi bilan nashr ettirdi¹⁰¹.

1970-80-yillar oxiriga kelib esa, o‘zbek sharqshunoslari tomonidan ushbu davr tarixiga oid manbalarning ayrimlari tarjima qilinib, nashr etildi¹⁰².

Akademik D.Yusupova tomonidan Xondamirning ilmiy ijodiy faoliyati ham tadqiq etilgan bo‘lib,¹⁰³ rus tilida chop etilgan

⁹⁹ Хафиз-и Таныш Бухари. Шараф-нама-йи шахи (Книга шахской славы): Факс. рукописи Д 88. [В 4-х ч.] / Хафиз-и Таныш ибн Мир Мухаммад Бухари; Пер. с перс., введ. [С. 1-23], примеч. и указ. М.А. Салахетдиновой. – Москва: Наука, 1983. –С. 299, -С. 245.; Амин-и Бухари, Мир Мухаммед. Ubaydulla-namе / Пер. с тадж. с примеч. чл.-кор. Акад. наук УзССР проф. А.А. Семенова; Акад. наук Узбек. ССР. Ин-т востоковедения. – Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1957. –С. 326.; Фазлаллах ибн Рузбихан Исфахани. Михманнамеи Бухара (Записки бухарского гостя) / Перевод, предисловие и примечания Р.П.Джалиловой. Под редакцией А.К.Арендса. – Москва: 1976. – С. 538.

¹⁰⁰ Болдырев А.Н. Зайнабдин Васифи, таджикский писатель XVI в.: Опыт творч. биограф. - Сталинабад: 1957 (2-е изд. 1989). –С. 67.

¹⁰¹ Мукминова Р.Г. К Истории аграрных отношений в Узбекистане в XVI в. по материалам «Вакфнаме». – Т.: Фан, 1996. – С. 353.

¹⁰² Восифий Зайниддин. Бадоеул вақоеъ – Нодир воқеалар / Форсийдан Н.Норкулов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. –Б 216.; Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Китобдан парчалар. (Тўплади С. Аҳмад) – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1990.

¹⁰³ Юсупова Д.Ю. Творческое наследие Хондамира как источник по истории и истории культуры Центральной Азии XV-XVI вв.: Автореф. дис. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 2001. –С 67.; Ўша муаллиф. Маъасир ал-мулук

monografiyada Xondamirning tarjimai holi, ilmiy merosi va uning jahonda o'rganilishi – tarixshunosligi, hamda asarda yoritilgan Markaziy Osiyoning XV asrning oxirlari va XVI asr boshlaridagi davri bilan bog'liq tarixiy voqealarga doir ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi¹⁰⁴.

Umuman olganda G'iyosiddin Xondamir O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston hamda Hindistonning o'rta asrlardagi tarixiga oid 10 ga yaqin asar yaratganligi ma'lum. Biz uchun muhim bo'lgan Xondamirning eng yirik asari “Habib us-siyar fi axbor va afroz ul-bashar” (“Inson xabarlar va farzlarida do'stning tarjimai holi”) 1520-1524-yillar mobaynida yozilgan va vazir Karimuddin Xoja Habibulloh Sovajiya bag'ishlanib, asar nomi ham qisman shu vazir ismi bilan bog'langan. Asarda qadim zamonlardan, to 1524-yilga qadar Sharq mamlakatlarida, xususan, Eron, Afg'oniston, Iroq va Markaziy Osiyoda sodir bo'lgan voqealar qalamga olingan. Uning XV asrning so'nggi va XVI asrning birinchi choragida Movarounnahr hamda Xurosonning umumiy ahvolini aks ettirgan uchinchi jild uchinchi va to'rtinchi qismlaridagi ma'lumotlar yangiligi bilan katta ilmiy qimmatga egadir. Mazkur asar o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi.

Mazkur davr tarixiga oid manbalardan yana biri - “Badoyi' ul-vaqoyi'” (“Nodir voqealar”) nomli asar bo'lib, uning muallifi XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida o'tgan Zayniddin Vosifiydir. U 1485-yili Hirotda tug'ilgan.

Zayniddin Vosifiy Movarounnahr va Turkistonning ko'pgina shaharlari Samarqand, Buxoro, Yassi, Sabron, Shohruhiya, Toshkent va boshqalarida istiqomat qildi va mudarris, imom, tarbiyachi, masalan,

Хондамира - источник о деяниях государей эпохи Темура и Темуридов / Узбекистан в средние века. История и культура. – Ташкент, 2003. – С. 39-50.

¹⁰⁴ Юсупова Д. Жизнь и труды Хондамира. – Ташкент: Фан, 2006. – С. 322.

Suyunchxojaning kenja o‘g‘li Navro‘z Ahmadxonning tarbiyachisi bo‘lib xizmat qildi, Shohruhiyada bo‘lgan-yillari esa Keldi Muhammadxon hukumatida qozi askar lavozimida turdi. Vosifiy 1551-yili Toshkentda vafot etdi va muqaddas manzilgohlardan shayx Xovand Tohur mozoriga dafn qilindi¹⁰⁵.

Vosifiyning “Badoyi’ ul-vaqoyi” nomli tarixiy-memuar asarida 1512-1532-yillar orasida muallifning Xuroson va Movarounnahrda ko‘rgan-kechirganlari, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bayon etilgan. “Badoyi’ ul-vaqoyi”da Movarounnahrning XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga oid qimmatli ma’lumotlar ko‘p. Asar 1538-1539-yillari yozib tamomlangan.

“Badoyi’ ul-vaqoyi” ning qo‘lyozmalari ko‘p bo‘lib, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida o‘ndan ortiq nusxasi saqlanmoqda¹⁰⁶. Mazkur tarixiy manbaning tanqidiy matni rus olimi A.N.Boldyrev tomonidan ikki jildda chop etilgan¹⁰⁷. Asar shuningdek, Xorazmda 1826 va 1907-yillarda Dilovarxoja va Muhammad Amin to‘ra tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan¹⁰⁸. Ayrim parchalar rus tilida A.N.Boldirev va V.P.Yudin¹⁰⁹ tarafidan e‘lon qilingan. “Badoyi’ ul-vaqoyi” asari o‘zbek tiliga A.N.Boldyrevning tanqidiy matnidan

¹⁰⁵ Манбашунослик./ Тузувчилар: Абдумажид Мадраимов, Гавҳар Фузаилова. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2007. – Б. 246-247.

¹⁰⁶ Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекистана. История / Сост. Д.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Ташкент: Фан, 1998. –С. 13.

¹⁰⁷ Болдырев А.Н.Рукопись «удивительных событий» (мемуаров таджикского писателя XVI в. Васифи) в Государственной Публичной библиотеке им. М.Е.Салтыкова-Щедрина // Тр. / ГПБ. 1957. Т. 2 (5).

¹⁰⁸ Манбашунослик./ Тузувчилар: Абдумажид Мадраимов, Гавҳар Фузаилова. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2007. – Б. 246-247.

¹⁰⁹ Болдырев А.Н. Мемуары Зайн-ад-дина, как источник для изучения культурной жизни Средней Азии и Хорасана на рубеже XV—XVI вв. // Тр. Отд. Востока ГЭ. 1939. Т. 2. –С. 45.

foydalangan holda N.Norqulov tomonidan tarjima qilingan va nashr etilgan¹¹⁰.

“Mir’ot ul-mamolik” (“Mamlakatlar ko‘zgusi”) XVI asrda o‘tgan turk admirali Seydi Ali Reis asaridir. U 1554-yil boshida Suriyaning Basra shahridan sayohatini boshlaydi. Ushbu dengizchi hamrohlari bilan birgalikda Hindiston, Badaxshon, Movarounnahr, Xorazm, Dashti qipchoq, Xuroson va Iroqi Ajam (G‘arbiy Eron) ga sayohat qilgan. Yurtiga qaytgach, 1556-yilda sayohat qilgan mamlakatlari xususidagi ma’lumotlarni o‘z asariga muhrladi. Asarda muallif sayohat qilgan mamlakatlarning XVI asr o‘rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli va xalqi haqida qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz.

Seydi Ali Reis XVI asr o‘rtalarida Movarounnahrdagi siyosiy jarayonlar, Navro‘z Ahmad Baroqxon boshchiligida Shayboniylar bilan Usmonli turk davlati bilan bo‘lgan munosabatlar xususida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Ushbu asarda mamlakat va shaharlar, ularning osori atiqalari haqida ham qimmatli maxlumotlar keltirilgan.

“Mir’ot ul-mamolik” matnini Ahmad Javdod toshbosma usuli bilan 1895-yili Istanbulda chop etgan bo‘lsa, H.Vamberi ingliz tiliga tarjima qilib, Londonda chop etilgan. Shuningdek, asar Sh.Zunnunov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 1963-yili Toshkentda ham nashr etilgan¹¹¹.

Mazkur davr, ya’ni XVI asr boshidagi tarixni aks ettiruvchi manbalarga kiruvchi Mulla Shodiyning “Fathnoma” nomli tarixiy mavzudagi she’riy doston bo‘lib, unda Shayboniyxon boshliq Dashti qipchoq o‘zbeklari tomonidan Samarqandning istilo etilishi, 1501-yil iyun

¹¹⁰ Восифий Зайниддин. Бадоеъул вакоъ – Нодир воқеалар / Форсийдан Н.Норқулов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 216.

¹¹¹ Сейди Али Раис. Миръот ул-малолик / Ш.Зуннунов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1963. –Б. 62.

oyigacha bo'lgan asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar keng yoritilgan. Shuningdek, asarda Shayboniyxon askarlarining Turkiston, Andijon, Buxoro, Dabusiya va Qarshi viloyatlarini ishg'ol qilganliklari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud¹¹².

Bo'riboy Ahmedov bergan ma'lumotga ko'ra: Asar birorta tilga tarjima qilinmagan. Uning qo'lyozma nusxalari ko'pgina mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanadi. Rossiya va MDH mamlakatlarida "Fathnoma" dostonining beshta qo'lyozmasi mavjud. Bulardan ikkitasi Sankt-Peterburg Davlat universiteti kutubxonasida, ikkitasi Dushanbeda va bittasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida (Inv. № 5369) saqlanadi. Toshkentdagi qo'lyozma juda qimmatli bo'lib, XVI asrda ko'chirilgan¹¹³.

Xuddi shunga o'xshash yana bir mabalardan biri "Shayboniynoma" bo'lib, ushbu asar fors tilida bitilgan, she'riy doston hisoblanadi. Uning muallifi shoir va tarixnavis olim Kamoliddin Binoiydir (1453-1512-yy.). Hirotda ko'zga ko'ringan me'mor ustod Muhammadxon Sabz oilasida dunyoga kelgan. Yoshlik paytlari og'ir sharoitda, Shohruh Mirzo vafotidan keyin mamlakatda kuchayib ketgan toju taxt uchun kurash va o'zaro urushlar sharoitida kechdi. Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Kamoliddin Binoiy keng ma'lumotli kishi bo'lib, she'riyat, insho, ilohiyot, musiqa va tarix ilmlarini chuqur bilgan.

Binoiy dastlab xoja Ubaydulla Ahrorning to'ng'ich o'g'li va sulukda vorisi xoja Qutbuddin Yaxyo, so'ng Zahiriddin Bobur, undan keyin 1501-

¹¹² Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 199.; Манбашунослик./ Тузувчилар: Абдумажид Мадраимов, Гавҳар Фузаилова. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА "Фан" нашриёти, 2007. – Б. 146.

¹¹³ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 199.

yili to umrining oxirigacha, Shayboniyxon huzurida uning saroy shoiri va tarixchisi bo‘lib xizmat qildi¹¹⁴.

1507-yili Binoiy Shayboniyxon bilan birga Hirotga keldi va 1510-yilgacha ona shahrida istiqomat qildi. 1511-yili shaharga Ismoil Safaviy qo‘shinlari yaqinlashishi bilan, u yana Movarounnahr ga ketib qoldi va Qarshi shahrida kun kechirdi. Kamoluddin Binoiy 1512-yili Qarshi mudofaachilari safida turib shaharni Safaviylardan himoya qildi va o‘sha jangda halok bo‘ldi¹¹⁵.

Kamoliddin Binoiy Markaziy Osiyo, O‘zbekiston va Qozog‘istonning XV asrning so‘nggi choragi va XVI asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rganishda alohida qiymatga ega bo‘lgan “Shayboniynoma” nomli tarixiy dostonini yozdi. Binoiyning “Shayboniynoma” asarida ham asosan Shayboniyxon tavalludidan boshlab to Dashti qipchoq o‘zbeklari tomonidan Movarounnahr va Xorazmni 1505-yili bo‘ysundirilishigacha bo‘lgan davrda hududda bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar haqida hikoya qilinadi.

Xuddi “Fathnoma” singari “Shayboniynoma” asarining ham matni chop etilmagan. Lekin uning qo‘lyozma nusxalari ko‘p bo‘lib, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari fondida bir qancha qo‘lyozmalari mavjud¹¹⁶. Ular orasida yana bir qo‘lyozma bo‘lib, ushbu asarning xorazmlik mashhur tarixchi va tarjimon Muhammad Yusuf Bayoniy (1858-1923-yy.) tomonidan qilingan o‘zbekcha tarjimasidir. Mazkur

¹¹⁴ Манбашунослик./ Тузувчилар: Абдумажид Мадраимов, Гавҳар Фузаилова. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2007. – Б. 147-148.

¹¹⁵ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 199-201.

¹¹⁶ Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекистана. История / Сост. Д.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Ташкент: Фан, 1998. –С. 102.

asarning ayrim qismlari tarjimalarigina rus tilidagi majmualarda e'lon qilingan xolos¹¹⁷.

“Mehmonnomayi Buxoro” nomli Markaziy Osiyoning XV asr II - yarmi – XVI asr boshlaridagi voqealar bayoni mavjud asarlardan biridir. Asar muallifi Fazlulloh ibn Ruzbexondir. Ushbu asar va uning muallifi xususidagi dastlabki ma'lumotlar A.A.Semyonov va M.A.Salening tadqiqotlarida berilgan¹¹⁸.

U o'rta asr fanining yetuk bilimdonlaridan biri bo'lganligi Sulton Husayn Mirzo, Shayboniyxon hamda Ubaydullaxon saroyida zo'r e'tibor qozonishiga olib kelgan.

“Mehmonnomayi Buxoro” asarining ko'lyozmasining faqat ikkita nusxasi borligi ma'lum. Ulardan biri avtograf hisoblanib, O'zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda¹¹⁹. R.P.Jalilova va B.A.Ahmedov bergan ma'lumotga ko'ra ikkinchisi Turkiyada, “Nuri Usmoniya” kutubxonasiga qarashlidir (Tartib raqami 3431)¹²⁰. Ushbu qo'lyozma asosida asar matnini eron olimi Manuchehr Setude chop etgan¹²¹. Asarning faksimilesi, K.A.Arends muharrirligida ruscha qisqartirilgan tarjimasi, so'zboshi va izohlari bilan R.P.Jalilova tomonidan nashr qilingan¹²².

¹¹⁷ Шади. Фатх-наме. / Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII веков. (Извлечения из персидских и тюркских сочинений) // Пер. О.Ф.Акимускина и В.П.Юдина. – Алма-Ата.: Наука, 1969.

¹¹⁸ Қаранг: Семёнов А.А.К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана. “Труды АН Тадж ССР”, т. 12, вып. 1. – Сталинабад: 1954.; Ўша муаллиф: Шейбани-хан и завоевание им империи Тимуридов. “Труды АН ТаджССР”, т. 12, вып. I. – Сталинабад: 1954.; М.А.Салье. Малоизвестный источник по истории Узбекистана – “Михман-наме”. “Труды Ин-та востоковедения АН УзССР”, вып. 3, 1954.

¹¹⁹ Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекистана. История / Сост. Д.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Ташкент: Фан, 1998. –С. 28.

¹²⁰ Фазлаллах ибн Рузбехан Исфাহани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) [Текст] / Пер., предисл. и примеч. Р.П.Джалиловой; под ред. А.К.Арендса; [АН СССР, Отд-ние истории, АН УзССР, Ин-т востоковедения]. – Москва: Наука, 1976. –С. 197., -С. 334.; Ахмедов Б.А.Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 204.

¹²¹ Собрание восточн. рук. АН УзССР, т. I, № 1414.

¹²² Фазлаллах ибн Рузбехан Исфাহани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) [Текст] / Пер., предисл. и примеч. Р.П.Джалиловой; Под. ред. А. К.Арендса; [АН СССР, Отд-ние истории, АН УзССР, Ин-т востоковедения]. – Москва: Наука, 1976. –С. 197., -С. 334.

Asarning biz uchun qimmatli shundaki, unda Dashti qipchoq, Turkiston va qozoq ulusi geografik holati, o‘zbek va qozoqlarning kelib chiqishi, ularning etnik tarkibi, turmushi, urf-odati, shuningdek, boylarning xo‘jaligida qul mehnatidan foydalanish hollari haqida benihoyat qimmatli ma’lumotlar uchraydi¹²³.

XVI asrning birinchi yarmiga xos bo‘lgan Mirzo Muhammad Haydarning forsiy tilda bitilgan “Tarixi Rashidiy” asari hisoblanadi. Ushbu asarda Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ko‘plab ma’lumotlarni topish mumkin. Shuningdek, Movarounnahr, Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy-ijtimoiy tarixi, Koshg‘ar, Movarounnahr, Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘rganishda asosiy manbalardan biridir.

Mazkur asar Eduard Denison Ross tomonidan qisqartirilgan holda ingliz tilida nashr qilingan¹²⁴. Mustaqillik-yillarida “Tarixi Rashidiy” ning rus tilida so‘z boshi va zarur izohlar bilan chop etilgan¹²⁵. O‘zbek tilida ham bir necha ham ushbu asar bir necha bor chop etildi¹²⁶.

“Tarixi Rashidiy” asarining qo‘lyozma nusxasi O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda¹²⁷. Bundan tashqari qo‘lyozmalar nusxalari Sankt-Peterburg va ko‘pgina xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda.

¹²³ Манбашунослик./ Тузувчилар: Абдумажид Мадраимов, Гавҳар Фузаилова. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2007. – Б. 150.

¹²⁴ The Tarikh-i-Rashidi: of Mirza Muhammad Haidar, dughlat: a history of the Moghuls of Central Asia / an English version edited, with commentary, notes, and map by N. Elias; the translation by E. Denison Ross. – Sampson Low, Marston, and Company, 1895. – Б. 535.

¹²⁵ Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П.Джалиловой, Л.М.Епифановой. Примечания и указатели Р.П.Джалиловой и Л.М.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 606.

¹²⁶ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий / Таржимонлар: Ваҳоб Раҳмонов, Янглиш Эгамова. Масъул муҳаррир: академик Азиз Қайюмов. – Тошкент: Шарқ, 2010. –Б. 720.

¹²⁷ Мирзо Мухаммад Хайдар. Тарихи Рашидий / Қўлёзма. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти фонди. – № 1430.

Ushbu davr tarixini yoritishda XVI asrda o'tgan eron tarixchisi Hasanbek Rumludir "Ahsan ut-tavorix" asari ham qimmatli manbalardan biridir. Asar XII jildli bo'lsa-da, uning faqat so'nggi XI-XII jildlari saqlanib qolgan. Davriy nuqtai nazardan ushbu jildlarda 1405-1577-yillar orasida Eronda, shuningdek, Movarounnahr, Hindiston, Turkiya, Ozarbayjon va Gurjistonda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar-yilmayil bayon etilgan. Biz uchun esa mazkur asarning Safaviylar va Shayboniylar o'rtasidagi munosabatlar tarixi ochib berilgan ma'lumotlar qiziqdir.

Asarda 1495-1577-yillar orasida Eronning Buxoro va Xiva xonliklari bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari, Zahiriddin Muhammad Bobur bilan shoh Ismoil o'rtasida Shayboniylarga qarshi tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoq, Shayboniylar bilan Safaviylar o'rtasidagi Xuroson uchun kurash haqidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir¹²⁸.

Mazkur manba o'zbek olimlaridan B.Ahmedov, Azamat Ziyov va boshqalar tomonidan o'rganilib, tadqiqotlarda foydalanilgan. "Ahsan ut-tavorix" dan ayrim parchalar rus va gruzin va nemis tillariga o'girilib, to'plamlarda chop etilgan. Asosiy forsiy matn, ingliz tilida ikki bor (1931 va 1934-yillari) Ch.N.Seddon tomonidan Hindiston shahrida chop qilingan.

Tadqiqotimiz doirasidagi eng birlamchi manbalardan biri "Abdullanoma" yoki "Sharafnomayi shohiy" asaridir. Mazkur asar XVI asrda tarixchi olim Hofiz Tanish Buxoriy tomonidan bitilgan. Muallif 1584-yili Abdullaxon II (1583-1598) hukmronlik-yillarida saroy voqeanavisi, tarixchisi lavozimida ishlagan.

¹²⁸ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 212-213.

Hofiz Tanish o‘zining “Abdullanoma” yoki “Sharafnomayi shohiy” asari O‘zbekiston, Qozog‘iston, qisman, Afg‘oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi yoritiladi. Biz uchun ham asarning Shayboniylar davri tarixidan tashqari Buxoro xonligining qo‘shni mamlakatlar – Eron, Hindiston va Rossiya bilan o‘zaro aloqalari tarixi haqidagi ma’lumotlar nihoyatda qimmatlidir¹²⁹.

“Sharafnomayi shohiy” asari muqaddima, ikki qism va xotimadan iborat bo‘lib, Ubaydullaxon taxtga o‘tirgan 1533-yildan 1583-yillarga qadar hamda 1583-yildan keyingi davrdagi siyosiy tarix, Abdullaxonning shaxsi, uning bunyodkorlik sohasida olib borgan me’morchilik ishlari xususida ko‘plab qimmatli ma’lumotlar bor.

B.Ahmedov mazkur kitobga e’tibor qaratarkan, undagi siyosiy voqealar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ma’lumotlar, masalan, Buxoro xonligidagi yer egaligining iqto, suyurg‘ol va tanho kabi shakllari, turli-tuman soliq va jarimalar, masalan, ixrojot, xiroj, tag‘or, ulufa, qo‘nalg‘a, madadi lashkar, boj, begar, tomg‘a, o‘lja va uning jamiyatdagi o‘rni, asirni qulga aylantirish hollari; O‘zbekistonning yirik shaharlari va hunarmandchilikning umumiy ahvoli; Shayboniylar davlatining ma’muriy tuzilishi, Buxoro xonligi bilan Rossiya, Hindiston va Koshg‘ar o‘rtasidagi munosabatlar haqida qimmatli dalil va ma’lumotlar mavjud, deya ta’kidlaydi¹³⁰.

Ushbu asar manbashunoslar tomonidan bir qadar yaxshi o‘rganilganini ko‘rish mumkin. “Abdullanoma” ning qo‘lyozma nusxalari ko‘p. Uning asl matni katta qismi M.Saloxetdinova ruscha tarjimasi bilan

¹²⁹ Абдулланома // Ўзбекистон миллий энциклопедияси: - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2000 – 2005. – Б. 31-32.

¹³⁰ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 215.

chop etgan¹³¹. O‘zbek tiliga tarjima ishlari 1942-1952-yillari Sodiq Mirzayev tomonidan hamda oxirgi qismi Yu.Hakimjonov tomonidan 60-yillarda tarjima qilingan. Shunday bo‘lsa-da mazkur tarjima ikki jildda, zarur tuzatishlar, tadqiqot qismi va izohlari bilan 1966 va 1969-yillari B.Ahmedov tomonidan chop qilingan. B.Ahmedovning ta’kidlashicha asarning 3-4 jildlari nashrga tayyorlangan bo‘lib, ayrim sabablarga ko‘ra to‘la bosilmay qolgan¹³². Mustaqillik-yillarida ham ushbu yirik manbashunos olim “Abdullanoma” ni ikki kitob holida nashr ettirgan¹³³.

XVI asrda Hindistonda yashagan Abulfazl Allomiyning “Akbarнома” asarining muallifi bo‘lib, B.Ahmedov bergan ma’lumotga ko‘ra 1574-1602-yillari Boburning nabirasi Jaloluddin Muhammad Akbar (1556-1605-yy.) ning Bosh vaziri bo‘lgan va Hindistonning XVI asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o‘ynagan. “Akbarнома” yoki “Iqbolнома” asarida asosan Hindiston va Afg‘onistonning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan bahs yuritadi. Asar matni 1872-1877-yillari, G.Beverij tomonidan inglizchaga tarjima qilinib, 1903-1921-yillari Kalkuttada chop etilgan¹³⁴. Asarning boshqa tillarga tarjimalari yo‘q.

Abulfazl Allomiyning ushbu asarining biz uchun qimmatli jihati unda XVI asrda Boburiylar davlati va Buxoro xonligi o‘rtasidagi siyosiy va madaniy munosabatlariga oid ma’lumotlarning mavjudligidir.

¹³¹ Хафиз-и Таныш Бухари. Шараф-нама-йи шахи (Книга шахской славы): Факс. рукописи Д 88. [В 4-х ч.] / Хафиз-и Таныш ибн Мир Мухаммад Бухари; Пер. с перс., введ. [С. 1-23], примеч. и указ. М.А.Салахетдиновой. – Москва: Наука, 1983. –Б. 245-299.

¹³² Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 216.

¹³³ Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом («Шарафномаи шоҳий»). Биринчи китоб / Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б. Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.416.; Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом («Шарафномаи шоҳий»). Иккинчи китоб / Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Ҳакимжонов тарж.; Изоҳлар муаллифи: Б.Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 2000. –Б. 288.

¹³⁴ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 217-218.

Ushbu davr muhim va kam o'rganilgan manbalari qatoriga "Musaxxir al-bilod" ("Mamlakatlarni bo'ysundiruvchi") asarini ham kiritish o'rinlidir. Ushbu asar muallifi Muhammadyor ibn Arab Qatag'an¹³⁵ hisoblanadi. Uning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyatiga oid ma'lumotlar kam. O'zining so'zlariga qaraganda, u XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asr boshlarida yashab o'tgan, Shayboniy Abdullaxon ikkinchi va Ashtarxoniylardan Boqi Muhammadxonning xizmatida bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor¹³⁶.

B.Ahmedov Muhammadyor ibn Arab Qatag'anning mazkur asarini yaqin vaqtlargacha ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum bo'lmagan, qolaversa asar haqida turlicha, ko'p hollarda bir-biriga zid fikrlar hukm surganligini aytadi. O'z fikriga misol qilib, K.G.Zaleman (1849-1916-yy.) "Musaxxir ul-bilod"ni Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi shohiy" asarining qisqartirilgan nusxasi, deb aytgan bo'lsa¹³⁷, ingliz sharqshunosi Ch.A.Stori hamda "Sobranie vostochnyx rukopisey AN UzCCR" katalogini tuzuvchilari uni "Tarixi Shayboniy" deb ataganlar¹³⁸, deya yanglishganliklarini e'tirof etadi¹³⁹. 1973-yili rossiyalik olim M.A.Saloxetdinovanning ilmiy axboroti orqali qo'lyozmaning Sankt-Peterburg nusxasini jiddiy o'rgangan holda "Musaxxir al-bilod" asarini Muhammadyor ibn Arab Qatag'an qalamiga mansub mustaqil asar ekani haqida fikr yuritib, uning "Sharafnomayi shohiy" dan farqli jihatlarini

¹³⁵ Asar muallifi – B.Ahmedovning "Ўзбекистон тарихи манбалари" китобида Муҳаммадёр ибн Араб Каттагон шаклида берилган. – Б. 187.

¹³⁶ Манбашунослик./ Тузувчилар: Абдумажид Мадраимов, Гавҳар Фузаилова. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ФА "Фан" нашриёти, 2007. – Б. 158.

¹³⁷ Қаранг: Умняков И.И. "Абдулла-наме" Хафиза Таниша и ее исследователи // Записки коллегии востоковедов. V том. – Ленинград: 1930. – С. 322.

¹³⁸ Қаранг: Стори Ч.А.Персидская литература. Био-библиографический обзор. 2 часть. – С. 117.; Собрание восточных рукописей АН УзССР. – Ташкент: 1 том. 1952. – С. 80.

¹³⁹ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 217-218.

ko'rsatib berdi¹⁴⁰. Asarning shu paytgacha aniqlangan ikki qo'lyozma nusxasi mavjud. Biri O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti fondida saqlansa¹⁴¹, ikkinchi nusxasi Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Petrburg bo'limi ko'lyozmalar fondida saqlanadi.

Ushbu asarda 1498-1610-yillar davri tarixiy voqealarini aks ettirgan bo'lib, unda ko'chmanchi o'zbeklar xoni Shayboniyxon va uning Dashti Qipchoq, O'rta Osiyo va Xurosonda hukm yurgizgan ajdod va avlodlari, jumladan, "quruvchi xon" laqabini ham olgan Abdullaxon II ning harbiy yurishlari hamda davlatchilik faoliyati hakida hikoya kilinadi. Shuningdek, ushbu asarda Bobur va boburiylar, badaxshonlik temuriylar va ularning shayboniy, ashtarxoniylar sulolasi vakillari hamda safaviylar davlati bilan siyosiy-harbiy munosabatlari ham yoritilgan¹⁴².

Mazkur asarning Nodira Jaloliy tomonidan Toshkent va Sankt-Peterburg nusxasi bo'yicha tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni chop etilgan. Shodmon Vohidov, Ismoil Bekjonov va Dilorom Sangirova tomonidan izoh va ko'rsatkichlar bilan o'zbek tilida nashr qilinishi manbashunoslika qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi¹⁴³.

"Tarixi olamoroyi Abbosiy" nomli asar XVI asrda yashagan eronlik tarixnavis Iskandarbek Munshiy tomonidan yozilgan bo'lib, u shoh Abbos I Safaviy (1587-1629) ning tarixchisi bo'lganligi ma'lum.

¹⁴⁰ М. А.Салахетдинова "Мусаххир ал-билад" Мухаммед Яр ибн Араб Катагана (Предварительное сообщение) // Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока. IX годичная научная сессия ЛО ИВ АН. – М.: 1973; Мухаммадёр ибн Араб Катаған. Мусаххир ал-билод. // Форс тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлар: Исмоил Бекжонов, Дилором Сангирова. – Тошкент: Янги аср, 2009. –Б. 17.

¹⁴¹ ЎЗР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. № 1505.

¹⁴² Мухаммадёр ибн Араб Катаған. Мусаххир ал-билод. // Форс тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлар: Исмоил Бекжонов, Дилором Сангирова. – Тошкент: Янги аср, 2009. – Б. 429.

¹⁴³ Мухаммадёр ибн Араб Катаған. Мусаххир ал-билод. // Форс тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлар: Исмоил Бекжонов, Дилором Сангирова. – Тошкент: Янги аср, 2009. – Б. 429.

Iskandarbek Munshiyning “Tarixi olamoroyi Abbosiy” nomli asarida Eronning 1588-1634-yillar orasidagi tarixi xronologik,-yilma-yil tartibida bayon qilingan. Ushbu asar nafaqat safaviylar tarixini, balki, XVI - XVII asrning birinchi choragidagi Buxoro xonligi siyosiy ahvoli haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, asar XVI asrning oxiri va XVII asrning birinchi choragida Eron va Buxoro xonligi o’rtasidagi siyosiy munosabatlarni o’rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi¹⁴⁴.

Asar va uning muallifi xususida 1861-yili nemis tilida maqola chop etilgan¹⁴⁵. Kitobning ma’lum qismlari B.Dorn va V.V.Velyaminov-Zernov¹⁴⁶ tomonidan matni bilan birgalikda ruscha qisqa tarjimasi nashr etilgan. Kitob matni ikki marta – 1896 va 1956-yili Tehronda¹⁴⁷ chop etilgan. Shuningdek, ushbu asarga oid tadqiqot Ozarbayjonda amalga oshirilgan¹⁴⁸.

XVII asr tarixiga oid muhim asar – “Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor” (“Olijanob kishilarning jasorati haqidagi sirlar dengizi”) bo‘lib, Mahmud ibn Vali qalamiga mansubdir. Ushbu asar Ashtarxoniylar hokimiyati tarixiga oid eng muhim asarlardan biri hisoblanadi.

B.Ahmedovning keltirishicha, Mahmud ibn Vali ko‘plab mintaqalarga sayohat qilib, 1631-yili sayohatdan qaytgach Nadr Muhammadxon (avval Balx hokimi, 1642-1645-yillari Buxoro xoni)

¹⁴⁴ Манбашунослик./ Тузувчилар: Абдумажид Мадраимов, Гавҳар Фузаилова. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2007. – Б. 161.

¹⁴⁵ Erdmann F.von. Iskender Munschi und sein Werk // Zeitschrift der deutschen morgenländischen Gesellschaft. XV (1861). – P. 457-501.

¹⁴⁶ Рахмани, А.А. Тарих-и алам арай-и Аббаси как источник по истории Азербайджана [Текст] : Автореферат дис. на соискание ученой степени кандидата исторических наук / М-во высш. образования СССР. Азербайдж. гос. ун-т им. С. М. Кирова. Акад. наук АзССР. Ин-т истории. – Баку: Изд-во Акад. наук АзССР, 1959. – С. 24.

¹⁴⁷ Искандар Мунши. Та’рих-и ‘аламара-йи’ Аббаси. // Пер. под. ред. А. А. Ромаскевича. – Тегеран, 1314 г.х. (1896-1897 гг. н.э.; литография); Искандар Мунши. Тарих-и аламара-йи Аббаси. Дж. 1—2. Тегеран, 1955—1956. –С. 54.

¹⁴⁸ Рахмани А.А. «Тарих-и алам арай-и Аббаси» как источник по истории Азербайджана. Баку, 1960. –С. 16.

xizmatiga kiradi. Mahmud ibn Valining qachon vafot etganligi ma'lum emas¹⁴⁹.

1634-1640-yillar orasida yozilgan “Bahr ul-asror” asari mundarijasida ko'rsatilishicha, yetti jilddan iborat bo'lgan. Uning II-VII jildlari jahon tarixiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekiston va u bilan qo'shni mamlakatlarning qadim zamonlardan to 1640-yilgacha kechgan tarixidan baxs yuritadi.

Asarning birinchi jildida yetti iqlim mamlakatlarining, shuningdek, O'zbekistonning o'rta asrlardagi shahar va viloyatlarining geografik holati, xalqi va uning turmush tarzi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Mahmud ibn Valining mazkur asari ham ko'plab Shayboniylar va Ashtarxoniylar davriga oid yozma manbalar singari nihoyatda kam tadqiq etilgan. O'zbek tiliga tarjima qilinmagan. “Bahr al-asror”dan ayrim lavhalar V.V.Bartold, B.A.Ahmedov¹⁵⁰ va K.A.Pishulina¹⁵¹ tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

Shuningdek, rus tadqiqotchisi A.K.Alekseev¹⁵²ning Ashtarxoniylar tarixini “Bahr ul-asror” dagi ma'lumotlar asosida yoritilgan nomzodlik dissertatsiyasi va bir qator maqolalari e'lon qilingan¹⁵³.

¹⁴⁹ Ахмедов Б. Махмуд ибн Валининг “Бахр ул-асрор” асари ва унинг ўрганилиши / Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 224.

¹⁵⁰ Махмуд б. Вали. Море тайн (география). / Пер., введ., прим. и указ. Б.А.Ахмедова. Ташкент, 1977. –Б. 29.

¹⁵¹ Пищулина К.А. «Бахр ал-асрар» Махмуда ибн Вали как источник по социально-экономической истории Восточного Туркестана XVI—XVII вв. // Казахстан, Средняя и Центральная Азия в XVII - XVIII вв. / Б.А.Тулупаев. – Алма-Ата: «Наука», 1983. – С. 192.

¹⁵² Алексеев А.К.Средняя Азия при Аштарханидах в XVII-XVIII вв. (По персоязычному историческому сочинению “Бахр ал-асрар”): Дис. ... канд. ист. наук: – СПб.: 2004. – С. 312.

¹⁵³ Алексеев А.К.О соотношении некоторых списков «Бахр ал-асрар фи манакиб ал-ахйар» Махмуда б. Вали. // Материалы IX международной конференции студентов, аспирантов и молодых ученых «Ломоносов - 2002», Москва: 2002. – С. 66-67.; Ўша муаллиф: К вопросу о «рукописи Джарабека» сочинения Махмуда б. Вали «Бахр ал-асрар фи манакиб ал-ахйар» («Море тайн относительно доблестей благородных») // Вестник СПбГУ. Краткие сообщения. – С. 78-82.; Ўша муаллиф: К вопросу о датировке «Бахр ал-асрар фи манакиб ал-ахйар» Махмуда б. Вали // Материалы Международной научной конференции «300 лет иранистике в Санкт-Петербурге» 28 - 30 апреля 2003 г. – СПб.: 2003. – С. 46-48.; Ўша муаллиф: Сведения «Бахр ал-асрар» Махмуда б. Амира Вали о последних Шибанидах и их борьбе с казахскими ханами и представителями аштарханидской династии // Материалы международной научной конференции «300 лет иранистике в Санкт-Петербурге» 28 - 30 апреля 2003 г. – СПб.: 2003. – С. 70-73.; Ўша муаллиф: Золотоордынские элементы в официальной истории

“Bahr ul-asror” asarining olti nafar qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, ularning tasnifi “Sobranie vostochnyx rukopisey”¹⁵⁴ katalogida berilgan.

“Dastur ul-muluk” nomli asar XVII asrda yashagan tarixnavis Xoja Samandar Termiziy tomonidan yozilgandir. U Ashtarxoniylardan Abdulazizxon (1645-1681) va Subhonqulixon (1681-1702) taxtda o‘tirgan-yillarda turli lavozimlarda xizmat qilgan.

Xoja Samandar Termiziyning bizning tariximizga oid muhim asari “Dastur ul-muluk” bo‘lib, u 1695-yili yozib bitkazilgan. B.Ahmedov fikricha mazkur asar Buxoro xonligining XVII asrning 70-90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvolini, shuningdek, Buxoro bilan Xiva xonliklari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega¹⁵⁵.

Asarning uchdan ikki qismi tarixiy voqealarga oid. Unda hali juda kam o‘rganilgan Ashtarxoniylar sulolasidagi ichki va tashqi ziddiyatlar ham bayon etilgan. Binobarin, asar mazkur davrni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning forsiy tildagi matni, izohlari bilan M.A.Saloxetdinova tomonidan rus tilida tarjima qilinib, chop etilgan¹⁵⁶. Mustaqillik-yillarida asarning o‘zbek tilidagi tarjimasi fos tilidan J.Esonov tomonidan so‘zboshi, izohlari bilan nashrdan chiqarildi¹⁵⁷.

Ashtarxoniylar sulolasi tarixiga oid yana bir muhim manba bu “Tarixi Muqimxoniy” nomli asar bo‘lib, uning muallifi Muhammad Yusuf

аштарханидских государств Средней Азии. «Бахр ал-асрар фи манакиб ал-ахйар» Махмуда б. Вали (XVII в.) // Материалы международной научно-практической конференции «Дашт-и Кипчак и Золотая Орда в становлении культуры евразийских народов». 10—11 апреля 2003 г. Москва: 2003. — С. 66-67.; Ўша муаллиф: Титулы аштарханидских ханов в сочинении Махмуда б. Вали «Бахр ал-асрар» // Материалы конференции студентов, аспирантов и молодых ученых МГУ «Ломоносов - 2003». — Москва: 2003. — С. 6-7.

¹⁵⁴ Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекистана. История / Сост. Д.Юсупова, Р.П.Джалилова. — Ташкент: Фан, 1998. —С. 42.

¹⁵⁵ Ахмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. — Тошкент: Ўқитувчи, 2001. — Б. 217-218.

¹⁵⁶ Бу ҳақида қаранг: Ходжа Самандар Термизий. Дастур ал-мулук (Назидание государям). Факсимиле старейшей рукописи, пер. с перс, пред., прим. и указ. М.А.Салахетдиновой. М., 1971; Салахетдинова М.А. Новый источник по истории Средней Азии XVII в. // Иранская филология. — Ташкент, 1966 и др.

¹⁵⁷ Дастур ул-мулук. / Хожа Самандар Термизий. Форс-тожик тилидан эркин таржима, сўзбоши, изоҳлар муаллифи Жаббор Эсонов. Тўлдирилган иккинчи нашри. — Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2001. —Б. 364.

Munshiy hisoblanadi va unining asarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, asli balxlik bo'lgan va Subxonqulixon (1651-1680-yillari Balx, 1680-1702-yillari Buxoro xoni) hamda Muhammad Muqimxon (1697-1707-yillari Balx xoni) saroyida munshiy bo'lib xizmat qilgan. Mazkur asar Muqimxonga bag'ishlangan bo'lib, 1697-1704-yillar orasida yozilgan. Asarda Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi. "Tarixi Muqimxoniy" muqaddima va uch bobdan iborat¹⁵⁸.

Biz uchun asarning I-III boblari muhimdir. Birinchi bobda Shayboniylar davrida Buxoro xonligining umumiy ahvolidan ma'lumot beradi. "Tarixi Muqimxoniy" ning ikkinchi bobida Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, shuningdek, Buxoro va Balx xonliklarining Hindiston, Turkiya, Eron va Koshg'ar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari, uchinchi bobda esa 1702-1704-yillardagi voqealar, xususan Buxoro bilan Balx o'rtasida boshlangan qurolli kurash o'rin olgan¹⁵⁹.

Asarning qo'lyozma nusxalari ko'p bo'lib, Sankt-Peterburg, Toshkent, va boshqa xorijiy mamlakatlar kutubxonalarida saqlanmoqda. Ular haqida "Sobranie vostochnyx rukopisey" katalogida yetarlicha ma'lumot olish mumkin. 1861-yili mazkur asar o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ayrim parchalar fransuz va rus tillarida ham e'lon qilingan. 1956-yilda asarning to'liq ruscha tarjimasi nashrdan chiqqan¹⁶⁰.

Mir Muhammad Amini Buxoriy "Ubaydullanoma" asari muallifi bo'lib, u Ashtarxoniylardan Subxonqulixon va Ubaydullaxon (1702-1711-

¹⁵⁸ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 226.

¹⁵⁹ Ўша жойда.

¹⁶⁰ Мухаммед Юсуф мунши. Муким-ханская история [Текст] / Пер. с тадж., предисл., примеч. и указатели проф. А.А.Семёнова; Акад. наук Узбек. ССР. Ин-т востоковедения. – Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1956. –С. 303.

yy.) saroyida bosh munshiylik vazifasida xizmat qilgan. Mazkur manba o'rganilayotgan davr uchun nihoyatda qimmatlidir. Unda Buxoro xonligining 1702-1716-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti yoritilgan.

B.Ahmedovning ta'kidlashicha, asarning 1-80 boblarida Buxoro xonligining qariyb 15-yillik (1702-1711-yy.) ijtimoiy-siyosiy tarixi batafsil yoritilgan. Muallif mazkur asarida katta yer egaligi, aholidan yig'iladigan soliq va jarimalar, Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi, tarqoqlikning kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar va uning ayrim sabablari kabi masalalarga keng o'rin bergan. Asarda geografik va etnografik ma'lumotlar ham ko'p¹⁶¹.

Xotimada muallif bilan zamondosh bo'lgan va Buxoroda istiqomat qilgan olimlar, shoirlar, masalan, Sayido Nasafiy, Qosixoja, mulla Sarfarozi, Fitrat, Mulham, mashhur qozilar haqida qisqacha, lekin e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan.

“Ubaydullanoma” asarining “Sobranie vostochnyx rukopisey” katalogidagi ma'lumotlarga ko'ra o'ndan ortiq qo'lyozma nusxalari mavjud¹⁶². Asar A.A.Semyonov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, 1957-yilda Toshkentda nashrdan chiqarilgan¹⁶³. Afsuski mazkur asar ham o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Uning o'zbek tiliga tarjima qilinib, ilmiy tanqidiy matni nashrdan chiqarilishi o'zbek manbashunosligiga qo'shilgan katta hissa bo'lar edi.

¹⁶¹ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 227.

¹⁶² Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекистана. История / Сост. Д.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Ташкент: Фан, 1998. –С. 24.

¹⁶³ Амин-и Бухари, Мир Мухаммед.Убайдулла-наме [Текст] / Пер. с тадж. с примеч. чл.-кор. Акад. наук УзССР проф. А.А.Семёнова; Акад. наук Узбек. ССР. Ин-т востоковедения. – Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1957. – С. 326.

“Tarixi kasira” (“Tarixi sayyid Roqim”, “Tarixi sayyid Roqim Samarqandiy”) nomli asar Mulla Sharafuddin A’lam qalamiga mansubdir. U XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning birinchi choragida yashab oʻtgan shoir va tarixchi olimdir. U haqda V.R.Rozen va A.A.Semyonovlar dastlabki ma’lumotlar keltirganlar. Mazkur asarning ahamiyatli tomoni shundaki, unda Shayboniylar, xususan, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon hamda Abdullaxon II davrida, Movarounnahr va Balx shaharlarida bir talay katta qurilishlar, madrasalar, masjid xonaqolar, timlar, yirik suv inshootlari qurib ishga tushirilgan boʻlib, “Tarixi kasira” da ularning qachon va kim tomondaligi xususida qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz¹⁶⁴.

“Tarixi Abulfayzxon” asarini Ubaydullaxon II va Abulfayzxon (1711-1747) saroyida xizmat qilgan munajjim, shoir va tarixchi olim Abdurahmon Davlat yozgan. Muallif koʻproq Abdurahmon Tole nomi bilan mashhur.

Mazkur asar hajm jihatdan kichik, 161 varaq boʻlib, “Ubaydullanoma” ning davomi hisoblanadi hamda Buxoro xonligining 1711-1723-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini oʻzida aks ettiradi. Ma’lumki, XVIII asrning birinchi choragida Buxoro xonligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli kuchsizlanadi, ulus boshliqlarining, ya’ni mahalliy hukmdorlarning mustaqillik uchun olib borgan harakati kuchayadi, ularning ayrimlari, masalan, Balx va Samarqand markaziy hukumatga boʻysunmay qoʻydilar, Fargʻona XVIII asr boshlarida, 1709-yili Ashtarxoniylar davlatidan ajralib chiqdi va hududda mustaqil Qoʻqon xonligi tashkil topdi.

¹⁶⁴ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 228-229.

1722-yili Samarqand ham mustaqillik e'lon qildi va Rajabxon ismli kimsani xon qilib ko'tardilar (1722-1728-yy.), o'zaro urushlar boshlanib ketdi. "Tarixi Abulfayzxon" asarida mana shu masalalar keng yoritib berildi. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi va o'zbek xalqining o'sha-yillardagi etnik tarkibi haqida ham ayrim, diqqatga sazovor dalil va ma'lumotlar bor.

"Tarixi Abulfayzxon" ning to'liq rus tiliga tarjima qilinib, izohlar bilan manbashunos olim A.A.Semyonov tomonidan 1959-yilda Toshkentda nashr qilingan¹⁶⁵.

"Cilsilat us-salotin" Xoji Mir Muhammad Salimning asaridir. Uning qo'lyozma nusxalari juda kamyob bo'lib, bir nusxasi Angliyaning Oksford shahridagi Bodli kutubxonasida (raqami № 269) saqlanmoqda.

Bunday asarlar sonini yana bir nihoyatda muhim, ammo yaqin vaqtgacha tadqiqotchilarning keng doirasiga noma'lum bo'lib kelgan, kelib chiqishi asli O'rta Osiyolik, ashtarxoniy shahzodalardan biri bo'lgan Mir Muhammad Salim tomonidan 1143/1730-1731-yillarda Hindistonda yozilgan "Silsilat as-salotin" ("Hukmdorlar nasabnomasi") asari bilan to'ldirish mumkin. Ushbu asar na bizning tarixshunoslikda, na xorijda yetarlicha o'rganilmagan. Asar haqida faqatgina ingliz sharqshunosi Ch.A.Storining mashhur bio-bibliografik ma'lumotnomasi "Fors adabiyoti" da qisqacha qayd etilgan¹⁶⁶. Pokistonlik olim Riyoz al-Islom "Silsilat as-salatin" ni "Turon tarixiga oid eng yaxshi va batafsil asar" deya ta'riflab, bu asarning Hind-Turon munosabatlariga oid ma'lumotlariga ehtiyotkorlik bilan murojaat qilish kerakligini ta'kidlaydi. Chunki muallif

¹⁶⁵ Абдар-рахман Тале. История Абу-л-Файз-хана. / Пер., пред., прим. и указ. А.А.Семёнова. Ташкент, 1959.- С. 22.

¹⁶⁶ Стори Ч.А. Персидская литература: Биобиблиографический обзор / Перевел с англ., переработал и дополнил Ю.Э.Бретель. Ч. II. – Москва: 1972. – С. 1149.

ashtarxoniylar (1009 / 1601-1170 / 1757) xonadoni vakili - Buxoro xonligida hukmronlik qilgan sulola vakillaridan biri edi¹⁶⁷.

Asarni jiddiy o'rgangan olimlardan biri B.A.Ahmedov bo'lib, u tomondan "Silsilat as-salotin" dagi qator masalalar, jumladan, xalqaro munosabatlardagi eng qimmatli jihatlari ochib berildi¹⁶⁸. Ingliz sharqshunosi Dj.O.Berton "asar materiallarining xolisligi va hujjatli asoslilik" haqida yozgan, u "Silsilat as-salotin" dan Ashtarxoniy Nadr Muhammadxonning (1051/1642-1055/1645-yillardagi oliy Buxoro xoni) siyosiy faoliyatini yoritishda foydalangan¹⁶⁹.

Hoji Mir Muhammad Salimning asarida asosan O'rta Osiyo va Shimoliy Afg'onistonning XVI-XVIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayoti tarixini tasvirlagan bo'lsa-da, shunga qaramay, unda mintaqadagi xalqaro munosabatlar, xususan, Buxoro xonligining Boburiylar Hindistoni bilan siyosiy-diplomatik aloqalari masalasiga oid ko'plab ma'lumotlar mavjud. Shu o'rinda shuni aytish kerakki, "Silsilat as-salotin", albatta, undagi barcha materiallarning o'ziga xosligi bilan da'vo qila olmaydi. Mir Muhammad Salim o'tgan bir yarim asr voqealarini bayon qilar ekan, o'z ma'lumotlaridan tashqari o'zidan avvalgi davr tarixnavislari: Abu-l-Fazl Allomiy, Hofiz Tanish al-Buxoriy, Muhammad Solih Lohuriy, Muhammad Qozim-munshiy va boshqalarning ham asarlariga tayangan¹⁷⁰.

"Tuhfat ul-xoniy" ("Xonning tuhfas") yoki "Tarixi Rahimxoniy" ("(Muhammad) Rahimxon tarixi") nomli asar Buxoro xonligining 1722-

¹⁶⁷ Riyaz ul-Islam, Persia-Indian Relations. – Tehran: 1970. – P. 250-251.

¹⁶⁸ Ахмедов Б.А. «Силсилат ас-саладин» («Генеалогия государей») // Источниковедение и текстология средневекового Ближнего и Среднего Востока: Сб. М., 1984. – С. 30-35; Историко-географическая литература. – С. 101-110.

¹⁶⁹ Burton J.A. Nadir Muhammad Khan. Ruler of Bukhara (1642-1645) and Balkh (1645-1651) // Central Asiatic Journal, Vol. 32. № 1-2. 1988. -P. 24.

¹⁷⁰ Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI – XVIII вв. (Писменные памятники). - Ташкент: Фан, 1985. – С. 103.

1782-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi. Uni tarixchi olim Muhammad Vafoyi Karminagiy (1685-1769-yy.) yaratgan.

Asar Buxoro xonligida XVIII asrning 20-yillaridan boshlab kuchayib ketgan iqtisodiy-siyosiy tanglikni, ijtimoiy-siyosiy tarqoqlikning kuchayishi va buning natijasida markaziy davlat boshqaruvining kuchsizlanishi, mang‘it hukmdorlarining uluslar va qabilalarni bo‘ysundirish maqsadida olib borgan tinimsiz urushlari va buning oqibatida ko‘plab shaharlar hamda qishloqlarning vayron etilishi, mehnatkash xalq turmushining og‘irlashib borishi va uning asosiy sabablarini aniqlashga yordam berishi mumkin bo‘lgan daliliy ma‘lumotga o‘ta boydir.

“Tuhfat ul-xoniy” asarining qo‘lyozma nusxalari ko‘p. “Sobranie vostochnyx rukopisey” katalogida keltirilgan mahlumotlarga ko‘ra Sankt-Peterburg, O‘zbekiston hamda Tojikiston kutubxonalarida saqlanayotgan 23 ta qo‘lyozmasi mavjudligi ma‘lum bo‘ladi¹⁷¹. Asar biron tilga to‘la tarjima qilinmagan ham. Asardan kichik bir parcha, ya’ni Muhammad Rahimxonning 1747-yili Saraxs atrofida Eron qo‘shinlari bilan to‘qnashuvi rus tilida 1938-yili e‘lon qilingan, xolos¹⁷².

Sovet davrida va mustaqillik-yillarida O‘zbekistonda XVI – XVIII asr tarixiga oid ko‘pgina manbalar o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning sanoqlilarigina ilmiy muomalaga kiritildi va bu sohada manbalarning ayrimlari qisman rus va o‘zbek tiliga o‘girib chop etilgan.

Mahalliy tarixchilar tomonidan bitilgan yozma manbalardan tashqari ushbu davr tarixini o‘zida aks ettiruvchi manbalar qatoriga O‘rta Osiyo

¹⁷¹ Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекистана. История / Сост. Д.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Ташкент: Фан, 1998. –С. 42.

¹⁷² Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (Писменные памятники). - Ташкент: Фан, 1985. – С. 114-120.

mintaqasi hududiga sayohat qilgan sayohatchilarning kundaliklari, bundan tashqari diplomatik missiya vakillarining xotiralari yoki hisobotlari kiritish mumkin. Mazkur manbalarda Buxoro xonligining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir ma'lumotlar ham ko'plab topiladi. Ular qatorida Buxoroga tashrif buyurib, bu yerdan xatlar jo'natib turgan Florio Benevenini¹⁷³ alohida ta'kidlab o'tish lozim.

XIX asrning 20-30-yillarda mintaqamizga tashrif buyurgan Ye.K.Meyendorf, P.I.Demezov, I.V.Vitkevich, A.Beorns va boshqalarning asarlarida Buxoroning siyosiy va iqtisodiy holati, O'rta Osiyoga olib boruvchi karvon yo'llari, rus va o'rta osiyo bozorlaridagi mahsulotlar turlari, o'rta osiyo va rus savdo munosabatlarining rivojiga to'sqinlik qilib turgan omillar, Buxoroning ichki savdo munosabatlari, hunarmandchilik turlarining rivoji yoritilgan bo'lib, bu davr tarixini yoritishda manbalardan biri sifatida xizmat qiladi.

N.Xanykov tomonidan Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hamda siyosati xususida qiziqarli ma'lumotlar keltiradi¹⁷⁴.

Aynan mintaqamizga kelgan sayohatchilarning safar kundaliklarida ham Buxoro hamda o'sha vaqtda uning hududlarida yashagan aholi haqida ma'lumotlar yetarlicha bo'lib, ularning aksariyati turli tillarda nashr qilingan.

Mazkur davrga oid manbalar guruhiga XV-XIX asrlarda O'rta va Markaziy Osiyo, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi sharq qo'lyomalari to'plami, X-XIX asrlarda O'rta va Markaziy Osiyo tarixi bo'yicha

¹⁷³ Беневени Флорио. Реляции из Бухары. / А.Попов. Сношения России с Хивой, Бухарой при Петре Великом. // ЗИРГО. Т. 9, 1853. – С. 270-424; Беневени Флорио. Письма, реляции, журналы. Посланник Петра 1 на Востоке. – Москва: Наука, 1986.

¹⁷⁴ Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства, составленное Н.Ханыковым. – СПб.: 1843. –С. 279.

materiallar kabi fundamental to'plamlarda nashr qilingan ma'lumotlarni ham kiritish o'rinlidir¹⁷⁵.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan tahlilga ko'ra, yozma manbalar tarjimalarining dastlab maqola, keyinroq, risola va faqatgina sanoqlilari alohida kitob shaklida nashr qilinishi kuzatiladi. Tarjima qilingan manbalar hamda ulardan qilingan ayrim turli tillarga tarjimalar ushbu davr tarixini yoritishda asosiy ma'lumotlar bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu davrga oid tarixiy asarlarni tarjima qilish, izoh va ko'rsatkichlar bilan tayyorlash borasida bir qator manbashunos olimlar A.A.Semyonov, M.Saloxetdinova, S.Mirzayev, Yu.Hakimjonov, B.Ahmedov, D.Yusupova, B.Ismoil va D.Sangirova kabi yetuk sharqshunos olimlarning xizmati ulkanligi e'tiborga sazovordir. Chunki aynan manbalarning tarjima va izohlar bilan nashr qilinib, ilmiy muomalaga kiritilishi natijasida kengaytiradi. Afsuski, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek XVI-XVIII asrlar yozma manbalari ko'p bo'lib, ularning aksariyati hali ilmiy muomalaga kiritilmagan. Ularning ham o'zbek tiliga to'la o'girilib, ilmiy tanqidiy matnlari amalga oshirilsa, Buxoro xonligi siyosiy hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, madaniyat rivoji xususida yetarlicha yangi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Manbalardagi faktik materiallarning biri biriga qiyosiy tahlili asosida esa mavzuga oid turli masalalarning ilmiy yechimini topishda ko'mak bo'lgan bo'lardi. Har qanday davr tarixining o'rganilishiga manbalarning ilmiy izohli tarjimalarining o'rni beqiyosdir. Aynan manbashunoslik doirasidagi ilmiy

¹⁷⁵ Материалы по истории Средней и Центральной Азии XV – XIX вв. / Отв. ред. Б.А.Ахмедов. – Ташкент: 1988. –С. 413.; Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР (СВР), т. 11. – Ташкент: 1987.- № 7092; Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. –Ташкент: 1988. –С. 414.; Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып. 2. Изд-во АН Тадж. ССР, 1954; Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР // Труды Историко-археологического института и ИВ АН СССР. Т. 1. Вып. 3. – Л.: 1932;

tadqiqotlarni izchillik bilan davom ettirish, ularning tanqidiy matni hamda qiyosiy tahliliga asoslangan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish asnosida o'rganilayotgan davr tarixiy jarayonlarni yanada to'laroq yoritish imkonini beradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab aytish o'rinliki, aytish mumkinki, sovet va mustaqillik-yillarida Buxoro xonligi tarixini o'zida aks ettiruvchi tarixiy manbalarning ayrimlarining rus yoki o'zbek tiliga tarjima qilinishi ushbu davr tarixini yorituvchi ilmiy tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Mavzu tarixshunosligi va manbashunosligi yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar mazkur davr tarixining o'rganilishiga turtki bo'lib xizmat qildi, rivojiga hissa bo'lib qo'shildi. Yangi tadqiqotlarda tarixshunoslik va manbashunoslik fanida, jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar hozirgacha bir yoqlama, yanglish talqin qilinib kelgan bir qancha tarixiy voqealar o'zining to'g'ri ifodasini topdi.

II BOB. XVI – XVIII ASR O‘RTALARIDA BUXORO XONLIGINING SIYOSIY JARAYONLARI TARIXSHUNOSLIGI

II.1. Shayboniylar davri siyosiy jarayonlari tarixshunosligi haqidagi qarashlar va muammoli masalalar

Buxoro xonligining tashkil topishi haqida so‘z borarkan, avvalambor, XV asr oxirida va XVI asr birinchi choragidagi siyosiy jarayonlarga e’tibor qaratmasdan bo‘lmaydi. Chunki XV asr oxirida Movarounnahr va Xurosonda Temuriylar sulolasi hukmronlik qilar edi. Buxoro xonligi nomli davlatning vujudga kelishida esa bevosita Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi qo‘chmanchi o‘zbeklar bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham Muhammad Shayboniyxon va uning avlodlari mintaqada hokimiyat tepasiga kelishigacha bo‘lgan davrga tadqiqotchilar tomonidan ham katta e’tibor qaratilgan. Chunki tadqiqotlarning aksari Muhammad Shayboniy va uning avlodlari tomonidan Temuriylar davlatining ikkala (Movarounnahr va Xuroson) sarhadlarining bo‘ysundirilishi, Muhammad Shayboniyning Ismoil Safaviy bilan kurashlari, Shayboniyxon avlodlarining Safaviylar hujumidan mintaqani asrab qolishlari, XVI asrning birinchi choragida Shayboniylar sulolasi vakillari tomonidan davlatni markazlashtirishga bo‘lgan urinishlar hamda Shayboniyxon va uning dastlabki vorislari davrida Samarqand poytaxtligicha qolavergan bo‘lsa, Ubaydullaxon hokimiyat tepasiga kelgach Buxoroning siyosiy markaz sifatidagi roli oshib, davlat nomi ham Buxoro xonligi deb atay boshlanishi kabi masalalar bilan bog‘liq holda o‘rganishni taqozo etadi.

Ushbu davr yozma manbalarining ko‘pchiligida Muhammad Shayboniyxon va ushbu sulolaning yirik vakillari Ko‘chkunchixon, Abu

Said, Ubaydullaxon hamda Abdullaxon II larning siyosiy boshqaruviga va hayotiga doir tarixiy voqealar, ayniqsa, uning ushbu sulola vakillari tomonidan davlatni markazlashtirishga, iqtisodiy islohotlarga, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissalarini shu davr tarixiy manbalariga suyanib tadqiqotchilar o'z shaxsiy munosabatlarini bildirgan. O'z navbatida Shayboniynonning o'zi ham Jo'chixonning o'g'li Shibon naslidan bo'lganligi sababli ayrim tadqiqotchilar shayboniy va shiboniy atamalarining orasidagi farqini sezmaydilar. Shunga ko'ra Shayboniylar sulolasining O'rta Osiyodagi hukmronlik qilgan davrini Shiboniylarning Jo'chi ulusini boshqargan davrning davomchisi sifatida qaraydilar. Lekin shuni uni alohida ta'kidlash kerakki, 1501-yili Samarqandda hokimiyatni qo'lga olgan sulola boshlig'i Muhammad Shayboniynonning bironta to'g'ridan-to'g'ri avlodi keyinchalik Buxoro xonligi deb nomlangan davlatga hukmronlik qilmagan.

Mazkur mavzu tadqiqi davomida bugunga qadar o'rganib kelinayotganini ta'kidlash lozim. Ammo fikrimizcha O'zbek davlatchiligi tadrijiy rivojida o'ziga xos iz qoldirgan ushbu sulola tarixini yoritishga qaratilgan adabiyotlar va tadqiqotlar yetarlicha emas deb hisoblaymiz. Tadqiq etilayotgan mavzu doirasidagi shu kungacha mavjud ilmiy adabiyotlarda, asosan, Shayboniylar davlatining vujudga kelishi, XVI asrning birinchi yarmida mazkur davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, dastlabki Shayboniy hukmdorlar va hokimiyat uchun kurash kabi masalalarni o'rganishga qaratilganini alohida e'tirof etish lozim. Sulola tarixi va keyinchalik Buxoro xonligi deb atalgan davlatning tarixiga oid birlamchi manbalarning tarjimalari ham nashr etilishiga sharqshunos

olimlardan V.V.Bartold¹⁷⁶ va A.A.Semyonov¹⁷⁷ lar munosib katta hissa qo'shganlar. Lekin adabiyotlarda ularning ba'zi asarlarida qisman bo'lsa-da, Sovetlar davriga xos tarafkashlik - turkiy xalqlar madaniy darajasini past deb ta'riflash sezilib turadi. Lekin hech shubhasiz tan olishimiz lozimki, bu borada ilmiy so'qmoqlarni birinchi bo'lib ushbu olimlar ochib berdilar, deya e'tirof etiladi¹⁷⁸.

Yu.Bregel, Piter B.Golden va Robert Makchesni kabi xorijiy tadqiqotchi olimlar o'z tadqiqotlarida sulola nomi sifatida shiboniylar atamasini ishlatadilar¹⁷⁹.

Tarixchi T.Sultanov ham ularga qo'shilgan holda o'z fikrini Muhammad Shayboniyning to'g'ridan-to'g'ri avlodi hech bir hududda hukmronlik qilmaganligini bilan asoslaydi. Shuning uchun ham XVI asrda poytaxti Samarqand bo'lgan Movarounnahrda, keyinchalik Buxoroda hukmronlik qilgan sulola vakillari Muhammad Shayboniyning avlodlari – Shayboniylar emas, balki Chingizxonning o'g'li Jo'chixonning o'g'li Shiboniylar (Siboniylar) deb atalishi, to'g'ri bo'lardi deydi¹⁸⁰.

Yana bir xorijiy ilmiy nashr bo'lmish – “Encyclopædia Iranica” da esa ushbu sulola vakillariga nisbatan bir yo'la Shiboniylar, Shayboniylar va Abulxayriylar atamaları ishlatilgan¹⁸¹.

Umuman olganda o'z davrida yirik tadqiqotchi-sharqshunoslardan V.V.Bartold¹⁸² o'zbeklar hukmronlik davri yaxshi o'rganilmagan, deya

¹⁷⁶ Бартольд В.В. История турецко-монгольских народов., Конспект лекций, читанных студентам Казахского высшего пед. института и 1926-27 учеб. году. Соч., Т.V. – Москва: 1968. Ўша муаллиф: Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч., Т. I. – Москва: 1963. –С. 75.

¹⁷⁷ Семёнов А.А. Шейбанихан и завоевание им империи тимуридов. - Материалы по истории узбеков и таджиков. Выпуск 1. – Сталинабад: 1954.; Ўша муаллиф: Первые Шейбаниды и борьба за Мавереннахр // Материалы по истории узбеков и таджиков. Выпуск 1. – Сталинабад: 1954. – С. 3-85, 85-111.

¹⁷⁸ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи (Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 4.

¹⁷⁹ The Cambridge history of Inner Asia. / Edited by Nicola di Cosmo, Allen J. Frank and Peter B. Golden. – Cambridge university press, 2009.; R.D. McChesney, Central Asia: foundations of change, The Darwin press, 1996. – P. 126.

¹⁸⁰ Султанов Т.И. Чингиз-хан и Чингизиды. Судьба и власть. – Москва: Издательство «АСТ», 2006. – С. 141.

¹⁸¹ <https://iranicaonline.org/articles/bukhara-viii>

ta'kidlasa, B.Ahmedov¹⁸³ ham bu davr o'zbeklar davlatining ichki tuzumi yaxshi tadqiq etilmagan, deb hisoblaydi. Shunday bo'lsa-da, keyingi davr tadqiqotlarida, xususan Z.Muqimovning asarida shayboniylar sulolasi xususida, ana shulardan biri shayboniylar davlati bo'lib, bu davlat yuz-yil mobaynida yashab xalqimiz tarixida o'ziga xos iz qoldirdi. Bu davlatning ham ilm, fan, adolat tarafdori bo'lgan boshliqlari Muhammad (Shohbaxt) Shayboniyxon (1451-1510), Ubaydullaxon birinchi, Abdullaxon ikkinchi kabi vakillari bilan, ularning siyosat, davlatni tutish, uni boshqarish va ilmfan borasidagi yutuqlari, shuningdek, ular davrida qurilgan inshootlar bilan xalqimiz haqli ravishda faxrlanishi mumki, deya baho beriladi¹⁸⁴.

Mustaqillik-yillari tarixshunosligida ham ijtimoiy-huquqiy va ma'naviy yo'nalishlarda milliy o'zligimizni anglash, tariximizni haqqoniy o'rganish, davlatchilik tariximizning tadrijiy ildizlari hamda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy merosimizni yoritish borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilganligini alohida ta'kidlashimiz lozim. Shu jihatdan olganda, o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin egallaydigan Buxoro xonligi davrini holisona va ob'ektiv tarzda o'rganish borasida ham ko'plab taqqidqotlar olib borilmoqda. Xususan bunday tadqiqotlar olib borganlar sirasiga A.A.Azizxo'jayev¹⁸⁵, H.Boboyev va K.Normatov¹⁸⁶, Azamat Ziyov¹⁸⁷, Z.Muqimov¹⁸⁸, A.X.Saidov¹⁸⁹, J.Toshqulov¹⁹⁰, A.Sagdullayev¹⁹¹,

¹⁸² Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и в России Изд. Второе. – Л.: 1925. – С. 258.

¹⁸³ Аҳмедов Б.А. Ўзбек улуси. – Тошкент: Нур, 1992. – Б. 5.

¹⁸⁴ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи (Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 3-4.

¹⁸⁵ Азизхўжаев А.А. Давлатчилик ва маънавият. – Тошкент: Шарқ, 1997. –Б. 112.

¹⁸⁶ Бобоев Ҳ.Б., Норматов К. Миллий давлатчилик ҳақида. – Тошкент: 1999. –Б. 107.

¹⁸⁷ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. –Б. 368.

¹⁸⁸ Муқимов З.Ю. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: Адолат, 2003. – Б. 280.

¹⁸⁹ Саидов А.Х., Тошқулов Ж. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: Академия, 1995.

¹⁹⁰ Тошқулов Ж. Ўзбекистон халқлари сиёсий-ҳуқуқий фикрлари тарихидан (XVII-XIX асрлар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. –Б. 128.

¹⁹¹ Сагдуллаев А., ва б. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2000. –Б. 272.

M.A.Hamidova¹⁹² S.Tursunov¹⁹³, E.Qobilov¹⁹⁴ va boshqalarni¹⁹⁵ kiritish mumkin.

Ma'lumki, Muhammad Shayboniyxon o'z bobosi Abulxayr davlatini tiklash maqsadida ko'p harakatlar qiladi. Lekin uning barcha sa'y-harakatlari samarasiz ketgach, Shayboniyxon Movarounnahrda Temuriylar davlatini zabt etishga kirishadi. Bu o'rinda Muhammad Shayboniy tomonidan Temuriylar sulolasi yerlariga bo'lgan hujum bu merosiy mulklarning qaytib olinishi kabi e'tirof etiladi. Bu xususda Azamat Ziyo Shayboniylar Oltin O'rda davlatini merosxo'rlari sifatida bir vaqtlar Chig'atoy ulusi Jo'chi ulusi tarkibiga kirganligi va unga nisbatan o'z da'volarining haqli ekanligiga ishonganlar va boshqalarni ham shunga ishontirishga harakat qilganlar, deb yozadi. Bunga isbot sifatida A.Ziyo Fazlulloh ibn Ruzbexonning "Mehmonnomayi Buxoro" asarida Muhammad Shayboniyxonning Agar Temurbek avlodlaridan ba'zi mulklarni tortib olgan bo'lsak ham, mulkparastlik va kichik mamlakatlarga qanoat qilmasligimizdan emas, balki taqdir hukmiga ko'ra shunday bo'ldi. Zero, qazo merosiy mulkni yana bizning qo'limizga va ixtiyorimizga qaytishini taqozo etadi – degan so'zlarini, keltirib o'tadi¹⁹⁶. Bundan ko'rinib turibdiki, Shayboniyxon Temuriylar davlati hududlarining egallab olinishini, o'ziga tegishli merosiy mulklarning qo'lga kiritilishi deb qonuniylashtirgan.

¹⁹² Хамидова М.А. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. –Б. 92.

¹⁹³ Турсунов С.Н. Д.Ёқубова. Сурхондарё тарихи. Тошкент. Тафаккур 2020.-Б. 162.

¹⁹⁴ Қобилов Э. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Тар.фандок. ... автореф. — Тошкент: 2019. –Б. 20.

¹⁹⁵ Ўзбекистон миллий давлатчилиқ назариясининг ҳуқуқий асослари. Иккинчи китоб / М.М.Файзиева, З.Ю.Муқимов, Х.Т.Одилқориев ва бошқ.: Бош муҳаррир Р.Рўзиев. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2005.;Муҳитдинова Ф.А., Шарипова Р.Х. Ўзбекистон халқлари сиёсий-ҳуқуқий таълимотлар тарихи. – Тошкент: ТДЮИ, 2005. –Б. 152.

¹⁹⁶ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 236.

Azamat Ziyo Muhammad Shayboniyxon XIV asrning 90-yillaridayoq Movarounnahrğa yondosh hududlar bo‘lmish O‘tror, Sayram, va Turkiston (Yassi) hududlarida muqim o‘rnashganligini ta’kidlaydi¹⁹⁷. Ma’lumki, o‘sha vaqtlarda Temuriylar sulolasi vakillari o‘rtasida o‘zaro kurashlar avj olib, bu esa o‘z navbatida Muhammmad Shayboniyxonga Movarounnahr hududini qo‘lga qiritish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda O‘rta Sharq hayotida XVI asr boshlarida kuchli siyosiy o‘zgarishlarga duch keldi. Ya’ni, Muhammad Shayboniy yurishlari natijasida Movarounnahr va Xurosonda Shayboniylar sulolasi vujudga kelgan bo‘lsa, G‘arbiy Eronda ham 1502-yilda hokimiyat tepasiga yangi bir siyosiy kuch – Safaviylar keldi. Zahiriddin Muhammad Bobur boshchiligida temuriylar esa avval Kobulda (1504) so‘ngra Shimoliy Hindistonda (1526) hokimiyatni qo‘lga oldilar. Shayboniylar va Safaviylar sulolarining manfaatlari Xuroson mintaqasida o‘zaro to‘qnash keldi. Shuning uchun ham mazkur davrga oid tarixnavis va tarixshunoslar Muhammad Shayboniy va Ismoil Safaviy to‘qnashuvlariga to‘xtalmasdan o‘tmaydi.

Bu davrda Movarounnahrdagi Temuriylar zaiflashib qolgan hamda Muhammad Shayboniyxonning hujumlariga bardosh bera olmasligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan¹⁹⁸. Shuningdek, tadqiqotlarda Shayboniyxon Temuriylarning haqiqiy ahvolidan voqif bo‘lgani holda 1497-yili katta kuch Samarqandga dastlabki hujumini uyushtirib, shaharni ololmay,

¹⁹⁷ Ўша асар. – Б. 238.

¹⁹⁸ Шайбойнийлар / Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. I қисм // Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон Республикаси ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиш Академияси Ўзбекистоннинг энг янги тарихи Маркази. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 150.

Qarshi va Shahrisabzga qadar yurishini davom ettiradi hamda yirik o'ljalar bilan ortiga qaytib ketgani bayon etilgan¹⁹⁹.

Asosiy yurishlarni 1499-yildan boshlab, 1500-1501-yillarda Samarqandni egallab, o'z davlatiga asos soldi. O'zbek milliy davlatchiligi tarixida yangi Shayboniylar sulolasi hokimiyatga keldi. Muhammad Shayboniyxon Temuriylar davlatining har ikki qismi - Movarounnahr va Xurosonda o'z hokimiyatini o'rnatadi. Taxtga o'tirgan Shayboniyxon o'z davlatining asoslarini mustahkamlash uchun doimiy ravishda qo'shni hududlar bilan urushlar olib bordi. U muntazam sharqiy Dashti Qipchoqqa bosqinlar uyushtirar, janubda esa Xuroson uchun Safaviylar bilan to'qnash kelishga majbur bo'ladi.

Azamat Ziyo asarida G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning "Habib-us-siyar fi axbor va afroz ul-bashar"dagi ("Inson xabarlarini va farzlarida do'stning tarjimai holi") ma'lumotlarga tayanib, Muhammad Shayboniyxon 1501-yilda Temuriylar o'rtasidagi kurashlardan foydalanib, avvalo, Samarqand taxtini qo'lga qiritganligini, so'ngra Xuroson poytaxti Hirotni (1507), shuningdek, 1508-yilda Jom, Marv, Mashhad, Qandahor va Astrobod kabi yirik markazlarni qo'lga kiritgach, Temuriylarning Turon zaminidagi 135-yillik faoliyatiga chek qo'yildi, deb xulosa qiladi²⁰⁰.

Ikkala davlat o'rtasidagi munosabatlarga to'xtalib o'tgan Azamat Ziyo "Habib us-siyar" dagi ma'lumotlarga tayanib, Muhammad Shayboniy 1510-yilda Marv yaqinida bo'lgan jangda harbiy-siyosiy taktika sababli mag'lubiyatga uchradi hamda Muhammad Shayboniy bosh chanog'iga

¹⁹⁹ Ўша жойда.

²⁰⁰ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 238.

oltinlar bilan bezatib, undan qadah sifatida foydalangan²⁰¹, deya ta'kidlaydi.

A.A.Semyonov Shayboniylarning Temuriylar hududlarini egallab olishiga baho berarkan, “ Bu bir davlatni ikkinchi davlat tomonidan bosib olish uchun bo‘lgan urush bo‘lmay, turkiylarning hokimiyat, ulus talashib qilgan urushidir va urushning bosh sababi o‘zaro qon-qarindoshlikda bo‘lgan kishilarda edi. Turklarning bu so‘nggi urushida g‘oliblar ham, yengilganlar ham topilmadi” deya ta'kidlaydi²⁰². Tadqiqotchi Z.Muqimov ham A.Semyonovning ushbu fikri tarafdori bo‘lib, shayboniylar davlatining vujudga kelishini o‘rta asrlarda turkiy xalqlar davlatchiligida tez-tez yuz berib turgan sulolalar almashinishi, deb baho beradi²⁰³.

Temuriylar xonadonidagi boshboshdoqlik avjiga chiqqach, mahalliy beklar mavqei oshib rasmiy sulolani tan olmay qo‘yishlari va shunday sharoitda Muhammad Shayboniyxon uchun Samarqandga intilish tabiiy bir hol edi, deb yozadi Azamat Ziyo²⁰⁴. Mazkur holat bir vaqtlar temuriylar xizmatida bo‘lgan butun Qipchoq Dashtida o‘z ta’sirini kuchaytirib, keyinchalik Sirdaryo bo‘ylaridagi shahar va qal’alarni qayta qo‘lga kiritib, mustahkam o‘rnashib olgach, qulay fursat kutib turgan Muhammad Shayboniyni 1499-1507-yillarda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Shohruxiya, Farg‘ona hamda Xorazmni ishg‘ol qilib, Movarounnahrni to‘la o‘z qo‘liga kiritishga imkon berdi²⁰⁵.

²⁰¹ Ўша жойда.

²⁰² Семёнов А.А. Первые Шейбаниды и борьба за Мавераннахр / Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Труды, Т. XII. Выпуск 1. – Сталинабад: Изд-во АН ТаджССР, 1954. – С. 150.

²⁰³ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи (Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 51.

²⁰⁴ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 238.

²⁰⁵ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи (Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 36.

Shayboniyxon 1504-yili Termiz va Jayhun yoqasidagi yerlarni o'z qo'l ostiga oladi va shaharga Shayboniylardan Said Muhammad Sulton hokim etib tayinlanadi. Muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan Termizning qo'ldan ketishi kelajakda Amudaryoning narigi qirg'og'idagi temuriylarga qarashli yerlarning istilo qilinishiga yo'l ochar edi.

Ana shu tariqa bu orada 1505-yili Hisor hech qanday qarshiliksiz Shayboniyxon tomonidan egallab olinadi va shundan so'ng Bag'lon, qunduz, Badaxshonlar Mahmud Sulton hamda Muhammad Temur sultonlar tomonidan istilo qilinadi. Xusravshohga tobe bo'lgan mulklar Shayboniyxon qarindoshlariga taqsimlanadi va Chag'oniyon esa Maxdiy Sultonga beriladi. Shayboniyxon vafotidan so'ng, 1511-yilning yanvar 1512-yilning fevral oylarida shayboniy sultonlar Vaxshdagi Puli Sanginda boburiylar tomonidan mag'lubiyatga uchraydi. Buning natijasida Chag'oniyon, Hisor Shodmon va Qabodiyon boburiylar qo'l ostiga o'tadi. Ammo oradan ko'p vaqt o'tmay, 1513-yilda boburiylar lashkari shayboniylar sulolasidan bo'lmish Ubaydulloxon tomonidan quvib chiqariladi. Balx va Jayhun daryosining o'ng sohilidagi yerlarga XVI asrning 20-yillarida boburiylar tomonidan doimiy ravishda xavf solib turilgan. Pirmuhammadning amalga oshirgan ichki hamda tashqi siyosati tufayli XVI asrning 40-60-yillarida Termiz va Chag'oniyonda ma'lum bir davr osoyishtalikka erishilgan edi. Ammo Buxoro va Balx o'rtasidagi muhim harbiy istehkom bo'lgan Termiz shayboniylar va ularning Balxdagi gumashtalari o'rtasida tez-tez yuz beradigan janjallar tufayli o'zaro kurash maydoniga aylangan edi²⁰⁶.

²⁰⁶ Турсунов С.Н. Д.Ёкубова. Сурхондарё тарихи. Тошкент. Тафаккур 2020.-Б.162.

1507-yilning 30 mayida Hirotning Jom'e masjidida Abulxayrxon nomini yodga olib, Zamon imomi va Xudoning yerdagi xalifasi degan nomni olgan Shayboniyxon nomiga xutba o'qildi hamda yangi kumush tangalar zarb qilishga buyruq berildi. Bu voqea Movarounnahr va Xurosonda uzil-kesil temuriylar sulolasi o'rniga yangi turk-o'zbek shayboniylar sulolasining kelganligidan darak berdi. Boshqa bir tadqiqotlarda esa Shayboniyxon 1507-1509-yillar mobaynida pul islohoti o'tkazganligi haqida ma'lumot beriladi²⁰⁷.

Hayotining so'nggida Muhammad Shayboniyxon davlatining tarkibi shimoliy sirdaryo bo'yi shaharlari, Xorazm, Farg'ona vodiysi, janubiy Turkmaniston va Marv, Damg'on viloyati, Mashhad va Astrobddan iborat bo'lgan katta hududlarni qamrab olar edi²⁰⁸.

Shayboniyxon o'z qo'lida ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatni birlashtirgani holda o'ziga «Hazrat-i imom-az-zamon va xalifat ar-rahmon» unvonini olgani manbalar va tadqiqotlarda qayd etiladi²⁰⁹. Shayboniyxon qabul qilgan unvon uning real, aniq vazifasini ifoda etuvchi edi. Ya'ni u zamon imomi, barcha musulmonlar jamoasining rahnamosi, Ollohning yerdagi noibi, musulmonchilikni toza saqlab turish uchun kurash vazifasi ham unga yuklatilgan degan ma'noni anglatar edi. A.A.Semyonov «Bundan o'zbeklar yo'lboshchisining o'z mavqeini mustahkamlash, rejalarini amalga oshirish yo'lida dindan foydalangan», deya baho beradi²¹⁰. V.V.Bartold "O'zbek hukmdori o'z davlatchiligini

²⁰⁷ Давидович Е.А Денежная реформа Шейбанихана / Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Выпуск 1. – Сталинабад: Изд-во АН ТаджССР, 1954. – С.85-111.

²⁰⁸ История Узбекистана. Т. III. (XVI - первая половина начала XIX в.). – Ташкент: Фан, 1993. – С. 35.

²⁰⁹ Ahsan-ut-Tawarikh. History of the Safavi Period of Persian History, 15-th and 16-th centuries. By Hasan-i-Rumle / Ed. by C.N. Seddon. – Baroda: p. 988.; Очерки по истории государственности Узбекистана. – Ташкент: Главная редакция издательско-полиграфической акционерной компании «Шарк», 2001. – С. 96.

²¹⁰ Семёнов А.А. Шейбани хан и завоевание империи тимуридов / Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Выпуск 1. – Сталинабад: Изд-во АН ТаджССР, 1954. – С. 70.

shakllantirishida, albatta, faqat cho‘l, dasht udumlari, odatlarigina ta’sir qilib qolmasdan, musulmon davlatchiligi g‘oyalari ham ularga katta ta’sir ko‘rsatgan. “Shayboniyxon “Xalifat-ul Rahmon” deb o‘z tangalariga zarb ettirganda hukmdorlarning yuqori tabaqalaridan ko‘ra xalq bilan va ularning g‘oyaviy vakillari bo‘lgan darveshlar bilan yaqinlashishga, davlatni shariat asosida boshqarishga intilishlar o‘zining aksini topgan” bo‘lishi kerak deb ta’kidlaydi²¹¹.

Bir qator adabiyotlarda Shayboniylar sulolasi hukmronligi davriga oid xulosalarda mazkur davrda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ijodiy siljishlar ro‘y bergani, so‘ng Temuriylar davrida kichik mustaqil hududlarga bo‘linib boshqargan Movarounnahr yana yagona davlatga birlashtirib, ilm-fan, madaniyatda temuriylar an‘analari davom ettirilgani holda yanada boyitilgani, shuningdek, shaharsozlik, me’morchilik va hukarmandchilikda ham katta yutuqlar qo‘lga kiritilib, ichki va tashqi savdo rivojlanganligi qayd etiladi²¹².

Azamat Ziyο avval Movarounnahr so‘ngra Xurosonning ham bo‘ysundirilishi amalda mintaqaning bir markaz ostida (Samarqand) qayta birlashtirilishi bo‘lib, Muhammad Shayboniyxon ushbu vazifani eplagandi, deya ta’kidlaydi²¹³.

Ma’lumki, 1510-yil dekabr oyida Muhammad Shayboniyxon Marv yaqinida Safaviy Ismoil bilan bo‘lgan jangda fojeali halok bo‘ladi. Bu o‘z navbatida Markaziy Osiyodagi kuchlar muvozanatiga keskin ta’sir ko‘rsatadi. Ismoil Safaviy bu g‘alabadan so‘ng butun Xurosonni hech

²¹¹ Бартольд. В.В. Соч., Т II., часть I. – С. 269.

²¹² Ўзбекистон тарихи давлат ва жамият тараққиёти. I қисм / А.Сағдуллаев, Б.Аминов, Ў.Мавлонов, Н.Норқулов. Ўзбекистон Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши Академияси Ўзбекистоннинг янги тарихи маркази. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 171.

²¹³ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 238.

qanday qarshiliksiz egallab oladi. Shayboniy sultonlar bilan esa Amudaryoning o'ng sohiliga daxl qilmaslik sharti bilan vaqtincha sulh tuziladi. Shayboniyxonning vafoti hamda Xuroson qo'ldan ketgach, o'zbek sultonlari orasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar natijasida Xorazm ham alohida davlat bo'lib ajralib chiqadi. Shunday bir sharoit Zahiriddin Muhammad Boburga Eron shohi Ismoil Safaviy ko'magi ila Movarounnahrni uchinchi bor qo'lga kiritishiga imkon yaratadi. 1511-yili Bobur mirzo birin-ketin Hisor, Ko'lob, Qunduz, Badaxshon va Samarqandni bosib oladi. Lekin Movarounnahr aholisi qo'llab-quvvatloviga erisha olmagach, 1512-yili G'ijduvon yaqinidagi hal qiluvchi jangda mag'lubiyatga uchrab, butunlay Movarounnahrni qaytarib olish maqsadidan voz kechadi.

Mazkur jangda oz sonli qo'shin bilan bo'lsa-da, Bobur mirzo va Eron qo'shinini Shayboniyxonning jiyani Sulton Mahmudxonning o'g'li Ubaydulla Sulton mag'lub qilib, o'z davlati mustaqilligini saqlab qoladi. Shubhasiz ushbu g'alaba o'zbek tarixshunosligida bugungi kungacha yetarlicha bahosini topmay kelmoqda. Faqatgina ayrim adabiyotlarda Ubaydulla Sulton naqadar yirik davlat arbobi va sarkarda ekanligi e'tirof etilgan xolos. Xususan Azamat Ziyo Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng taxtga uning amakisi Ko'chkunchixonni²¹⁴ o'tqazilganini hamda 1510-1530-yillar oralig'ida hukmronlik qilganini ta'kidlaydi²¹⁵. Bu ma'lumot boshqa rasmiy adabiyotlarda Ko'chkunchixon hukmronlik-yillari 1510-1529-ham takrorlanadi²¹⁶. Ammo manba va ilmiy

²¹⁴ K'chukunchixon – Abulхайрхон ва Мирзо Улуғбекнинг кизи Робия Султонбегимларнинг фарзанди.

²¹⁵ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 239.

²¹⁶ Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. I қисм / Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон Республикаси ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиш Академияси Ўзбекистоннинг энг янги тарихи Маркази. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 154.

adabiyotlarni o'rganish asnosida Shayboniyxonning Marv yaqinidagi jangda halok bo'lishi ortidan sulola boshiga boshqa bir inson, ya'ni sulolaning eng katta vakili emas, balki Suyunchxo'jaxon²¹⁷ taxtga o'tirganligi to'g'risida ma'lumot beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillik-yillarida nashr qilingan O'zbekiston tarixiga oid darslik va qo'llanmalarda bu haqda hech narsa deyilmagan²¹⁸. Shunisi ma'lumki, Muhammad Shayboniyxondan so'ng 1511-1512-yillar oralig'idagi qisqa bir davrda "xonlar xoni" deb Ko'chkunchijon emas, uning ukasi Toshkent va Turkiston hokimi Suyunchxo'jaxon taxtga o'tqazilgan.

A.A.Semyonov manbalardagi ma'lumotlarga tayangan holda Shayboniyxon vafotidan keyin Movarounnahrdagi siyosiy jarayonlarga to'xtalar ekan: Shayboniyxon Marvda Ismoil Safaviyga qarshi urushga tayorgarlik ko'rayotgan bir davrda o'zining vassallari barcha o'zbek sultonlariga qo'shin bilan yordamga kelish haqida farmon beradi. Lekin oraliq masofalar turlicha bo'lganligi sababli ham barcha hukmdorlar bu haqda bir vaqtda ma'lumot ololmasdan, uzoqdagi hukmdorlar, ayniqsa Turkiston va Toshkent hokimlari oxirgilardan bo'lib, bu haqda kech xabar topadi. O'z navbatida Toshkentdan Suyuchnxo'ja qo'shin bilan yo'lga chiqib, Sirdaryodan o'tgach, Muhammad Shayboniyxonga yordamga oshiqadi. Uning akasi Ko'chkunchixon esa Turkiston viloyatida qozoq xoni Qosimning hujum qilish xavfi mavjudligi bois ham o'z viloyatida qoladi. Samarqandga yaqinlasharkan Suyunchxo'jaxonga Muhammad Shayboniyxoning halok bo'lganligi xabari yetkaziladi. A.A.Semenovning fikricha samarqand oliy tabaqasi vakillari bu fojeali xabardan voqif

²¹⁷ Суюнчхўжахон - Абулхайрхон ва Мирзо Улуғбекнинг қизи Робия Султонбегимларнинг иккинчи фарзанди.

²¹⁸ Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. I қисм / Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон Республикаси ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиш Академияси Ўзбекистоннинг энг янги тарихи Маркази. - Тошкент: Академия, 2000. - Б. 154.; Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). - Тошкент: Шарқ, 2001. - Б. 239.

bo'lgach, Samarqandga yaqinlashib qolgan Suyunchxo'jaxonni shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib, uni kutib olishga chiqadilar va shaharga kiritadilar. Amir Temur tomonidan qurilgan jome' masjidida Suyunchxo'jaxon nomi bilan xutba o'qitib, tanga zarb ettiriladi²¹⁹. Mazkur holat davr manbalarida quyidagicha keltiriladi: O'zbek sultonlarining fikrlari esa, qadimgi yaso (farmonlari) tufayli, xon xonadonining eng keksasi sifatida Kuchumxonga xon taxtini berishga moyil bo'lgan, lekin u (hozir) (qozoq) Qosimxon hujumini qaytarish ishlari bilan band bo'lganligi sababli, xon saylanishining ortga surilishi (keyingi) musibatlarga sabab bo'lishi mumkin erdi, shu sababli, "Sohibqiron jome' masjidida" (ya'ni Bibixonimda) juma namozini o'qishdan oldin o'zbek sultonlari va hukmdorlari Suyunchjixo'jaxonni xonlik darajasida bo'lishga rozi bo'ldilar. Hijriy 917-yil (1511-yil mart-1512-yil mart) oylarida esa xutba va tanga zarblarini uning nomi va unvoni bilan bezadilar. Juma namozidan so'ng Oqsaroyga yetib kelgan janobi oliylari (Suyunchjixo'jaxon) shoh taxtiga o'tirishi orqali qut-barakali qildi²²⁰.

Demak manbalarga va ilmiy adabiyotlarga tayangan holda aytish mumkinki, Muhammad Shayboniyxon vafot etgach, amaldagi tartiblarga to'g'ri kelmasa-da, vaqtinchalik Suyunchxo'jaxon (1511-1512) xon deb e'lon qilingan. 1512-yil so'ngida barcha dushmanlar xavfi ortga chekingach, barcha shayboniy sultonlar Samarqandga yig'iladi va Ubaydulla sulton roziligi bilan sulolaning eng yoshi katta vakili Ko'chkunchi sultonni xon deb e'lon qiladilar. O'z navbatida Suyunchxo'jaxon akasi foydasiga taxtdan voz kechadi. Demak

²¹⁹ Семёнов А.А. Первые Шейбаниды и борьба за Мавераннахр / Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Труды, Т. XII. Выпуск 1. – Сталинабад: Изд-во АН ТаджССР, 1954. – С. 114.

²²⁰ Ўша жойда.

Ko'chkunchixon²²¹ (1512-1530) sulolaning bosh hukmdoriga aylanadi²²². V.V.Bartold xonlikdagi haqiqiy hokimiyat amalda Buxoroda o'tirgan Ubaydullaxon qo'lida edi²²³, deb yozadi. Yana bir taqiqotda Samarqand taxtida hukm yuritayotgan rasmiy xon Ko'chkunchixonning hokimiyati nominal bo'lgan²²⁴, deb fikr bildiriladi. Bu xususda tarixnavis olim Ro'zbehon Isfahoniy o'zining "Suluk ul-muluk" asari mukaddimasida: "Odob yuzasidan Ubaydullaxon o'zini xuddi o'ljasini taqsimlab bermoqchi bo'lgan ovchiday tutdi va katta amakisi Ko'chkunchixonga bosh xonlikni va poytaxti Samarqand taxtini berdi, Movarounnahrning boshqa yerlarini ham qarindoshlariga bo'lib berdi", deb yozadi²²⁵.

1512-yildagi Samarqanddagi yig'indan so'ng Shayboniyxonning amakisi Ko'chkunchixonni o'zbek davlatining oliy hukmdori – xon deb e'lon qilinishiga bir muncha sabablar bor edi. Birinchidan turk-mo'g'ul odatiga ko'ra merosiy toj-u taxt sulolaning yoshi ulug' vakiliga nasib qilgan. Ikkinchi tomondan Ko'chkunchixon ko'chmanchi o'zbeklar davlati asoschisi Abulxayrxonning o'g'li, Chingizxon avlodidan edi. Shu bilan bir qatorda buyuk olim va davlat arbobi Temuriyzoda Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultobegim uning onasi edi. Bu bilan shayboniy sultonlar kelib chiqishi ham Chingiziy, ham Temuriy bo'lgan sulola vakilini taxtga o'tqazib, Shayboniylar hokimiyatini o'ziga xos ravishda legitimlashtirgan edilar.

²²¹ Манбаларда Кўчимхон номи билан ҳам тилга олинади.

²²² Бартольд В.В. Сочинения. Работы по источниковедению: в 9 т.. – Москва: Наука, 1973. Т. 8. – С. 141.

²²³ Ўша асар.– С. 140-141.

²²⁴ Васильев А.Д. Знамя и мечь от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI – начало XX вв.). – Москва: Пробел, 2000, 2014. –Б. 190.

²²⁵ Қўли Малик жанги // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: 2000-2005. – Б. 858.

Aynan 1512-yilda O'rta Osiyo temuriylar qo'l ostidan butkul chiqib ketgan va yana shayboniylarga tobe etilgan, deya ma'lumot beriladi²²⁶. Bu kurashlarda Ubaydulla Sultonning o'rni nihoyatda kattadir. Adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz ulardagi siyosiy voqeliklar sanalari o'rtasida turli chalkashliklar borligi ma'lum bo'ladi. Xususan, ayrim tadqiqotlarda Sulton Abu Said xon sifatida taxtga 1529-yil o'tirgan deb yozilgan bo'lsa²²⁷, boshqa adabiyotlarda 1530-yil Ko'chkunchixon vafotidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan²²⁸, deya ma'lumot beriladi. Ko'chkunchixonning vafot sanasi ham boshqa bir adabiyotda 1531-yil fevralida degan ma'lumot keltirilgan²²⁹. Atoqli sharqshunos olim Bo'riboy Ahmedov ham Ko'chkunchixon 1531-yil vafot etgani haqida yozib o'tgan²³⁰.

Ubaydullaxon 1512-yilda Buxoroga hokim bo'ldi. Bor-yo'g'i 25 yoshida qizilboshlarni quvib chiqarib, qahramonga aylangan Ubaydullaxon bu jangdan so'ng 12-yil davomida asosan Movarounnahrda iqtisodiy va madaniy vaziyatni o'nglash, urushdan sillasi qurigan mintaqani tiklash hamda harbiy kuch to'plash bilan band bo'ldi. Faqat bir marta – 1516-1517-yillarda qozoq xonlariga qarshi yurish qildi.

Sulton Abu Said otasi Ko'chkunchixonning qazosidan so'ng Shayboniylar oilasining to'ng'ich vakili sifatida taxtga o'tirdi: undan yoshi kattaroq bo'lgan amakisi Suyunchxo'jaxon 1525-yilda, Jonibek sulton 1529-yilda vafot etgandi. Uning o'zi ham 3-yildan so'ng 61 yoshida vafot

²²⁶ Ўша жойда.

²²⁷ Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. I қисм / Сағдуллаев А, Аминов Б, Мавлонов Ў, Норқулов Н. Ўзбекистон Республикаси ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиш Академияси Ўзбекистоннинг энг янги тарихи Маркази. - Тошкент: Академия, 2000. – Б. 155.

²²⁸ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 240.

²²⁹ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳукуқи (Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 43.

²³⁰ Аҳмедов Б. Шайбонийлардан кейин айштархонийларнинг ҳокимият тепасига келиши санаси хусусида / Тарихдан сабоқлар. Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 189.

etgach, sulola boshida yoshi eng ulug‘ vakil sifatida Ubaydullaxon oliy taxtga o‘tirdi. U 1530-yilgacha Ko‘chkunchixon bilan, 1533-yilgacha uning o‘g‘li Abu Saidxon bilan, 1540-yilgacha – vafotiga qadar o‘zi mamlakatni boshqardi.

Z.Muqimov tadqiqoti davomida Shayboniylar davlatini qaytadan egallab, uni saqlab va hokimiyatni kuchaytirgan tarixiy shaxslardan biri, shubhasiz, Muhammad Shayboniyxonning jiyani, askarboshi va davlat arbobi Muhammad Sulton o‘g‘li Ubaydullaxon (1487-1539) birinchidir, deya ta’kidlaydi²³¹. Azamat Ziyoning fikricha mana shu sulton taxtga chiqqunga qadar shayboniy hukmdorlar na ichki, na tashqi siyosatda e’tiborga arzirli ishlarni amalga oshira olmaganlar²³².

Muhammad Haydar Mirzo bu haqda: Xonlik qadimiy odatga ko‘ra, eng katta sultonga, ya’ni Ko‘chumxon sultonga topshirildi. Uning vorisi Suyundjik sulton edi, biroq u Ko‘chum sultondan oldin vafot etgach, taxt vorisi Jonibek sulton bo‘ldi, lekin u ham ko‘p o‘tmay Suyundjik sulton ketidan ravona bo‘ldi. Undan keyin Ko‘chumxon ham u dunyoga rixlat qildi. Xonlikni boshqarish Qo‘chumxonning o‘g‘li Abu Saidga topshirildi. U ham xonlik taxtini bo‘shatgach, o‘rniga Ubaydullohxondan kattaroq bo‘lgan biror kishi qolmaguncha shu ahvol davom etaverdi. U xonlik taxtiga o‘tirdi va 946 (1539-1540)-yilda tabarruk ruhi bu o‘tkinchi dunyo bilan vidolashib, jannat bog‘iga ravona bo‘lgunga qadar olam elining sezgilarini adolat va yaxshilik nasimi bilan yayratib yashadi (Alloh undan rozi bo‘lsin)²³³, deb yozadi.

²³¹ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳукуки (Тарихий-ҳукукий тадқиқот). Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 43.

²³² Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 240.

²³³ Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий / Таржимонлар: Ваҳоб Раҳмонов, Янглиш Эгамова. Масъул муҳаррир: академик Азизи Қаямов. – Тошкент: Шарқ, - Б. 399.

U rasman 1533-yilda taxtga o'tirgan bo'lsa ham, 1512-yildan boshlab Shayboniylar orasida shaksiz yuqori mavqega ega edi. U o'zbek qo'shinlarining de fakto oliy qo'mondoni edi. Barcha harbiy kompaniyalarga u rahbarlik qilardi. Ko'chkunchixon mamlakatni boshqarishda uning maslahatlariga quloq tutardi. Shuning uchun ba'zi tarixchilar Abu Saidxonning koronatsiyasi nomigagina amalga oshirilgan edi, Ubaydullaxon asosiy figura edi, degan xulosaga keladi. Harqalay, Ubaydullaxon hamisha Buxorodan turib mustaqil siyosat yuritgani va doim mamlakat taqdirini hal qiluvchi qarorlar qabul qilishda ishtirok etgani shubhasiz.

Aynan mana shu xon davrida poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chadi. Davlat ham keyinchalik poytaxt sababli Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi. Keyinchalik "Xonlar xoni" unvoni bilan Buxoro taxtiga o'giran (1533-1539) bu shaxs ham O'zbekiston tarixida iste'dodli davlat boshlig'i sifatida, bilim va ma'rifatga qiziqishi, shuningdek qattiqqo'lligi bilan ziddiyatli hukmdor sifatida tarixda iz qoldirgan, deya fikr bildiradi Z.Muqimov²³⁴.

Ubaydullaxon o'limidan keyingi davrga baho berarkan tadqiqotchilar yakka hukmdorlik tuzumida jamiyat va davlat hayoti ko'p hollarda oliy hukmdor shaxsiga bog'liq bo'lib, ular vafotidan keyin markaziy hokimiyatning susayishi va ichki nizolar ortidan mamlakatning zaiflashib ketishiga olib kelishini, xususan, Ubaydullaxondan so'ng ham mana shunday holat yuzaga kelganini ta'kidlaydilar²³⁵.

²³⁴ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳукуқи (Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 43.

²³⁵ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 240.

Shayboniylar sulolasida Ubaydullaxon vafotidan so‘ng qisqa vaqt davomida (olti oy) taxtga o‘tirgan Ko‘chkunchjixonning ikkinchi o‘g‘li Abdullaxon I 1540-yilda vafot etgach, mamlakatda qo‘sh hokimiyatchilik yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda Buxoroda Ubaydullaxon (1533-1539)ning o‘g‘li Abdulaziz (1540-1550)xon qilib ko‘tarilgan bo‘lsa, Samarqandda esa Ko‘chkunchjixonning uchinchi o‘g‘li Abdulatif hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi (1540-1551)²³⁶.

Barakayevninng “Buxoro tarixi” kitobida Abdullaxon II faol tashqi siyosat olib borib, bu davrda shayboniylar Eron Hindiston, Turkiya, Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlarda bilan keng diplomatik, iqtisodiy va savdo aloqalari rivojlangan, deb yozadi. Shuningdek, aynan Abdullaxon (1556—1598) xon bo‘lib turgan davrda Buxoroni Shayboniylar davlatining poytaxtiga aylantirgani; mohir sarkarda va diplomat bo‘lgan Abdullaxon mamlakatning tarqoqligini tugatishga va o‘z yerlarini kengaytirishga harakat qilganligini ta’kidlaydi. U bir qancha harbiy yurishlar qilib, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona, Sayram, Qarshi, Marv, Hisor, Dashtn Qipchoq va boshqa yerlarni egallaydi. 1573-yilda Balx, so‘ngra Hirot, Mashhad hamda boshqa shaharlar va viloyatlarni zabt etadi. Xiva xonligi ham o‘zining mustaqilligini yo‘qotib, Buxoro xonligiga bo‘ysundiriladi. Abdullaxon o‘z ta’sirini Sibir xonligiga ham yoyishga urinadi, ammo bu urinishlari zoe ketadi. Buxoro xonlik sifatida mustahkam rivojlana boradi. Abdullaxon davrida Buxoro haqiqatdan ham O‘rta Osiyoning siyosiy va madaniy markaziga aylana boradi²³⁷.

Sharqshunos olim V.V.Bartold “Abdullaxon II boshqaruvi kamdan-

²³⁶ Мукминова Р, Агзамова Г. Бухарское ханство (эмират) / Очерки по истории государственности Узбекистана // Отв. редакторы Алимова Д.А., Ртвеладзе Э.А. – Ташкент: Шарк, 2001. – С. 97.

²³⁷ Баракаев Ж, Хайдаров Й. Бухоро тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 67.

kam sodir bo'ladigan voqea bo'lib, garchi u o'z hokimiyatini qattiqqo'llik va harbiy kuch asosida barpo etgan bo'lsa-da, nafaqat butun Movarounnahrni, balki Xuroson va Xorazmni birlashtirib, juda kuchli davlat tuzdi", deya ta'kidlagan²³⁸.

K.Baypakov yozishicha, 1581-yili yozida Abdullaxon Toshkent atroflaridan Bobo Sultonni quvib yuborishga muvaffaq bo'ladi. Shu bilan birga Shohruxiya, Sayram va Ohangaron kabi qal'alarni qo'lga kiritadi. Ammo Bobo Sulton omon qolib, qochib qutuladi hamda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimidagi shaharlar – Yassi, Sauron, Arkuk va Suzoqni egallashga muvaffaq bo'ldi. 1582-yilda Abdullaxon Shigay va Tavakkal bilan birga Bobo Sultonga qarshi yurish boshlaydi. U bosib olgan barcha shaharlar qamal qilindi. Yasa shahri yaqinidagi jangda Tauekel Bobo Sulton qo'shinlarini mag'lub etib, uni o'zi o'ldirdi, shundan so'ng Turkistonning Sauran, Yassi, O'tror va Sayram muhim shaharlari Abdullaxon qo'l ostiga o'tadi²³⁹.

M.Abdusaitovaning ma'lumot berishicha, 1583-yili Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'min Mashhadni qo'lga kiritadi hamda aynan shu-yili otasi Iskandar Sulton vafot etganligi sababli Abdullaxon II barcha o'zbeklarning xoni deb e'lon qilinadi²⁴⁰. Uning davlati Buxoro xonligi deb atalgani holda Movarounnahr hududining birlashtirilishi butun bir mintaqani yaxlit markazlashgan davlatga aylantirish imkonini yaratdi. Xususan, 1584-yilda Abdullaxon tomonidan Badaxshon egallangan bo'lsa (shuni alohida ta'kidlash kerakki Badaxshonda Sulaymonshoh va Shohrux Mirzo kabi

²³⁸ Бартольд В.В. Узбекские ханства / Соч. в 9 т. – Москва: 1963. Т. II (1). – С. 269.

²³⁹ Байпаков К.М. Локализация городов Казахского ханства // Известия Национальной академии наук Республики Казахстан. – 2014. № 5 (сентябрь). – С. 78.

²⁴⁰ Абусеитова М.Х. Казахское ханство во второй половине XVI века / Академия наук Казахской ССР Институт Истории, Археологии и Этнографии им. Ч.Ч.Валиханова. – Алма-Ата: 1985. – С.74.

temuriyzodalar “Sharafnomai shohiy” asariga ko‘ra 1584-yilgacha hukmronlik qilganlar), 1588-yilga kelib Xuroson ham zabt etiladi²⁴¹.

Bu haqida Azamat Ziyo o‘z monografiyasida shunday yozadi: Abdullaxon II so‘nggi yigirma-yil davomida siyosiy boshboqdoqlik natijasida parchalangan mamlakat va mintaqani birlashtirishni bosh maqsad qilib, bo‘ yo‘lda ko‘p va muvaffaqiyatli, shu bilan birga mashaqqatli harakatlarni amalga oshirgan buyuk davlat arbobidir. U Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm hamda Termiz kabi viloyatlarni poytaxt Buxoro atrofida birlashtirish yo‘lida ko‘plab harbiy-siyosiy tadbirlarni ro‘yobga chiqaradi. Bu siyosatning nechog‘lik murakkab bo‘lganligini shundan ham ko‘rsa bo‘ladi-ki, 1578-yili, ya’ni faol siyosat yurgiza boshlaganidan yigirma-yil o‘tib ham, Samarqand va Xorazmni poytaxt ixtiyorida saqlab qolishdek yumushlarni bajarishga majbur bo‘lgan. Xorazmni markaziy hokimiyat doirasiga kiritish uchun uch marta uringani va axiyri maqsadiga 1596-yili, o‘limidan ikki-yil burungina erishganini olaylik. Xullas, mamlakatni siyosiy yaxlitligiga erishish oson kechmagan²⁴².

Tadqiqotlarga ko‘ra Abdullaxon II hukmronlik-yillarida mamlakatning poytaxti – siyosiy, iqtisodiy va ma’muriy markaz sifatida Buxoro shahrining o‘rni yanada mustahkamlashib, o‘sha davr yozma manbalarida “Buxoro xonligi” deb atala boshlaydi²⁴³. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Abdullaxon II davrida mamlakat hayotida keskin o‘zgarishlar ro‘y berib, hunarmandchilik, savdo-sotiq va me’morchilik yuksak rivoj topganligini e’tirof etish lozim. Umuman olganda aynan

²⁴¹ Foltz R. Mughal India and Central Asia. Oxford university press, 1998. –P. 19.

²⁴² Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 241.

²⁴³ Мукминова Р., Агзамова Г. Бухарское ханство (эмират) / Очерки по истории государственности Узбекистана // Отв. редакторы Алимова Д.А., Ртвеладзе Э.А. – Ташкент: Шарқ, 2001. – С. 97.

Abdullaxon II ma'lum muddat davomida bo'lsa-da, Movarounnahr, Xuroson va Xorazm hududlarini birlashtirgan qudratli hukmdor sifatida Markaziy Osiyo tarixidan o'rin oldi. Abdullaxon II dan so'ng Markaziy Osiyoni markazlashgan davlat sifatida birlashtirish hech bir hukmdorning qo'lidan kelmadi.

Buxoro xonligida Shayboniylar sulolasi hukmronligining tugashi va taxtga Ashtarxoniylarning chiqishi haqida so'z ketganda avvalo bu masalada ham ilmiy adabiyotlarda manbalarga tayangan holda ma'lumotlar uchraydi. Xususan B.Ahmedov ushbu masalaga to'xtalar ekan, adabiyotlarning aksariyatida shayboniylar hukmronligining tugashi 1598-yil sifatida, ayrimlarida 1599-yil ko'rsatilganini ta'kidlaydi. Shuningdek, V.V.Bartold, Stenli Li Pul va K.E.Bosvort asarlarida so'nggi shayboniy hukmdor Pirmuhammadxon bo'lganligi lekin uning qancha vaqt hokimiyat yuritgani haqida ma'lumotlar uchramaydi, deb yozadi²⁴⁴. Shuningdek, B.Ahmedovning tadqiqotiga qadar bir qancha adabiyotlarda ham Shayboniylar sulolasining tugashi 1598-yil deb ko'rsatiladi²⁴⁵.

Tadqiqoti davomida B.Ahmedov o'zigacha bo'lgan tadqiqotchilarning fikrlarini "Bahr ul-asror", "Tarixi olamoroyi Abbosiy", "Silsilat us-salotin" va boshqa manbalarga tayanib inkor etadi va Shayboniylar sulolasidan Ashtarxoniylar sulolasiga hokimiyatning o'tishini 1598-yil emas, balki 1601-yil bo'lib, so'nggi shayboniy hukmdor Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'mindan so'ng Pirmuhammad II yana

²⁴⁴ Аҳмедов Б. Шайбонийлардан кейин аштархонийларнинг ҳокимият тепасига келиш санаси тўғрисида / Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 184.

²⁴⁵ История Таджикской ССР. Т. II. Кн. 2. – Москва: 1964. – С. 21; Абдураимов М.А.Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века. Т. I. – Ташкент: 1966. – С. 56, 59; История Узбекской ССР. Т. I. – Ташкент: 1967. – С. 550;

uch-yil hukmronlik qilgan²⁴⁶, deb masalaga oydinlik kiritadi. Pirmuhammadxon Abdullaxonning amakisi - Balx hokimi Pirmuhammadxon bo'lmagan, balki uning bobosi Jonibek Sultonning yetinchi o'g'li - Sulaymon Sultonning o'g'li - Abdullaxonning esa jiyani edi. Pirmuhammadxon II davrida yuz bergan eng katta voqea Abdullaxonga xoinlik qilgach, Movarounnahrga bostirib kirib Buxoroni qamal qilgan qozoq xoni Tavakkal qo'shinlarining Uchqaro mavzesida tor-mor keltirilishi edi. Ana shu vaqtda shayboniy va ashtarxoni o'zbeklari birlashib bu katta g'alabaga erishgan bo'lsa, ko'p o'tmay ular o'rtasiga nifoq solindi. Pirmuhammad hamda Boqiy Muhammad o'rtasida urush kelib chiqib Samarqand yaqinidagi Bog'i shamol mavzeidagi jangda Pirmuhammad II yengilib, o'zi esa asir olinib qatl etilishi bilan yuz-yildan oshiq hukm surgan bu sulola tugaydi²⁴⁷.

Bundan tashqari A.Alekseevning dissertatsiya tadqiqotida To'qay-Temuriylarning (ya'ni Ashtarxoniylar) Buxoro xonligi hududlariga migratsiya qilishi bilan bog'liq ma'lumotlar davr tarixchisi Maxmud bin Valining "Baxr ul-asror" asaridagina keltirilganini qayd etgani holda aynan manbadagi ma'lumotlarga tayangan tadqiqotchi Buxoro xonligida sulola almashinuvi – Shayboniylar o'rniga Ashtarxoni hukmdorlarning taxtga chiqishi 1601-yil ro'y berganligini alohida ta'kidlaydi²⁴⁸.

Shayboniylar saltanatining yirik arboblaridan biri sanalgan Abdullaxon ham hokimiyatni mustahkamlashda Termizning strategik mavqeiga alohida e'tibor qaratadi. Uning 1572-yil may-iyun oylarida

²⁴⁶ Ахмедов Б. Шайбонийлардан кейин аштархонийларнинг ҳокимият тепасига келиш санаси тўғрисида / Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 184-195.

²⁴⁷ Ўша жойда.

²⁴⁸ Алексеев А.К. Средняя Азия при Аштарханидах в XVII-XVIII вв.: По персоязычному историческому сочинению "Бахр ал-асрар": автореферат дис. ... кандидата исторических наук: С.-Петербург. гос. ун-т. – Санкт-Петербург, 2004. – Б. 36. // <https://www.dissercat.com/content/srednyaya-aziya-pri-ashtarkhanidakh-v-xvii-xviii-vv-po-persoyazychnomu-istoricheskomu-sochin>

Termizni egallash uchun olib borgan kurashi bunga misol bo‘ladi. Hofiz Tanishning bergan ma’lumotlariga qaraganda, Termiz hokimi etib Abdullaxonning amakivachchasi Maxmud Sulton tayinlangan edi. Daryo qirg‘og‘idagi ko‘hna Termiz qal’asi o‘zbeklar Hukmronligi davrida ham mavjud edi. Bu davr haqida Hofiz Tanish Buxoriyning 1572-yili yozilgan “Sharafnomai shohiy” (“Podshohni sharafllovchi kitob”) asarida Termizning topografik o‘rni, shahardagi binolar, osori-atiqalari, xalqning etnik tarkibi xususida ma’lumotlar beriladi. O‘sha paytda Termiz Abdullanning dushmani Balx hukmdori Dinmuhammadga bo‘ysunardi. Abdullaxon Termizni qamal qilishdan oldin Hakim at Termiziy va Abu Bakr Varroq mozorlarining shayxlarini yoniga chorlab, ularni maxsus sovg‘alar bilan siylaydi. Termiz va uning atrofidagi yerlar XVII asrda o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i qo‘liga o‘tadi. Bu davr haqida balxlik yirik tarixchi Maxmud ibn Vali o‘zining “Baxr ul asror fi manoqib al ahyor” (“Olijanob kishilar haqida sirlar dengizi”) asarida Yana Mahmud ibn Valining ta’kidicha, viloyatda bog‘ va ekinzorlar kam uchraydi, yeri qumloq bo‘lganligidan iqlimi issiqdir, bu yerda g‘alla va qovun yaxshi yetiladi. O‘z davri siyosiy maydonida yirik mavqe va maqomga ega bo‘lgan Abdullaxon 1584-yili Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi yerlarni, jumladan, Termiz shahrini o‘g‘li Abdulmo‘minga in’om etadi. Buxoro taxtini 1601-yili egallagan joniylar (ashtarxoniy) lar Chag‘oniyon yurtida o‘z hukmronligini o‘rnatib, unga shayboniy Jonibek Sulton avlodi Muhammad Salim Sulton hokim etib tayinlanadi. Termiz hokimi va qal’a kutvoli amir Odilbiy joniylarga bo‘ysunmaslikka harakat qilib, qarshilik qo‘rsatadi. Boqi Muhammad 1602-yilning bahorida Termiz va Chag‘oniyondagi qarshiliklarni bostirib, bu yerlarni ashtarxoniy davlatiga tobe qiladi.

Xullas, XVII asrdagi o‘zaro urush-janjallar Termizning qadimiy rivoji va mashhurligiga salbiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Shahar 1646-1647-yillarda hatto boburiylar sulolasidan bo‘lmish hind shahzodasi Avrangzeb tomonidan istilo qilinadi va boshqariladi. Keyinchalik musulmon hind sarkardasi Saodatxon tomonidan Termiz qayta istilo qilinib, talanib, vayron etiladi²⁴⁹.

Shunday qilib, 1601-yilda Buxoro xonligida hokimiyat yangi bir sulola-Joniylar (bu nom Joni Muhammad nomidan olingan) yoki Ashtarxoniylar (kelib chiqish joyi bo‘lmish Hojitarxon-Astraxan bo‘yicha) deb nom olgan To‘qay Temuriylar sulolasi qo‘liga o‘tadi.

Ushbu bo‘linga xulosa qilar ekanmiz, keltirilgan ilmiy adabiyotlarda mazkur sulola davrida Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II lar tomonidan katta qiyinchiliklar va janglar orqali tuzilgan, sanab ko‘rsatilgan hukmdorlar davrida esa nisbatan bo‘lsa ham markazlashtirishga erishilganligini ko‘rsatadi. Lekin tadqiqotlardagi dalillarga ko‘ra Buxoro xonligining Shayboniylar hukmronligi ostidagi yillar davomida O‘rta Osiyo hududining uch qismga bo‘linib ketishiga zamin yaratildi. Bundan tashqari o‘zbek tarixshunosligida faqatgina Abdullaxonning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni va roliga asosiy e’tibor berilgan. Lekin manba va adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ushbu sulola asoschisi va mazkur sulola vakillaridan Ubaydullaxonning mamlakat mustaqilligini asrab qolish va uni mustahqamlash yo‘lidagi xizmatlari o‘zining haqqoniy bahosini topishi lozim. Bu tarixiy shaxslar O‘zbek davlatchiligi tarixida o‘chmas iz qoldirgan hukmdorlar sifatida o‘rin olishi adolat bo‘lar edi. Yana shuni aytib o‘tish kerakki ko‘plab

²⁴⁹ Турсунов С.Н, Д.Ёкубова. Сурхондарё тарихи. Тошкент. Тафаккур 2020.-Б. 163.

adabiyotlarda shayboniy sultonlarning taxtga o'tirishi yoki vafoti bilan bog'liq sanalarda chalkashliklar ko'p uchraydi. Bu holat bizningcha manbalardagi hijriy-qamariy hisobning milodiy-yilga aylantirish borasidagi tadqiqotchilar tomonidan yo'l qo'yilgan noaniqliklar bilan bog'liqdir.

II.2. Ashtarxoniylar davri o'zbek davlatchiligi siyosiy hayoti tarixshunosligi

1601-yildan boshlab Shayboniylar o'rnida hokimiyat tepasiga kelgan Ashtarxoniylar (adabiyotlarda *Joniylar* yoki *To'qay Temuriylar* deb ham ataladi – *J.B.*) sulolasi Movarounnahr va Shimoliy Afg'oniston hayotida sulolasi muhim rol o'ynay boshladi. Ammo ularga Buxoro xonligi hokimiyat qurgan avvalgi sulola shayboniylardan yaxlit va markazlashgan davlat emas, balki markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lib olgan hamda ichki kurashlarga kirishgan viloyatlar meros bo'lib qoldi. O'zbek tarixshunosligida ushbu sulola vakillari hukmronlik qilgan davr o'zbek davlatchiligi tarixida eng ziddiyatli davr sifatida tilga olinadi²⁵⁰. Ashtarxoniylar tomonidan Samarqand va Buxoro shahrini egallaganliklaridan so'ng xonlikning barcha hududlarida to'la hokimiyatni o'rnatish uchun umumiy olganda sakkiz-yil kerak bo'ldi.

Buxoro va Balx asosiy markazlari bo'lgan – Ashtarxoniylar sulolasi tarixshunosligi sharqshunos-tarixchi olimlarning doimiy qiziqishga sabab bo'lgan. Shu asnoda bu davrga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan deb aytish mumkin. Ushbu davr tarixshunosligi muammolarini

²⁵⁰ Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. I қисм / Сағдуллаев А, Аминов Б, Мавлонов Ў, Норқулов Н. Ўзбекистон Республикаси ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиш Академияси Ўзбекистоннинг энг янги тарихи Маркази. - Тошкент: Академия, 2000. – Б. 174.

o'rganishga bag'ishlangan dastlabki yirik tadqiqotlarni amalga oshirgan va o'sha davr manbalaridan xonlik tarixini yoritishda foydlangan akad. V.V.Bartold katta hissasini qo'shgan, deb ishonch bilan aytish mumkin²⁵¹. Bundan tashqari Ashtarxoniylarning kelib chiqishi borasidagi hamda ularning Buxoro xonligi hududiga kirib kelishiga qadar bo'lgan tarixi xususidagi ma'lumotlar V.G.Tizengauzen va A.A.Romaskevichlar tomonidan tadqiq etilib, muomalaga kiritilgan²⁵².

Ashtarxoniylar davri manbalarini o'rganishga o'zining katta hissasini qo'shgan sharqshunos olimlardan yana biri prof. A.A.Semyonov bo'lib, sovet tarixshunosligi davridayoq mazkur sulola tarixiga bag'ishlangan tarixiy asarlarni rus tiliga tarjima qilib, nashr qildirgan edi²⁵³. Uning ushbu sulolagacha bo'lgan Shayboniylar tarixiga oid tadqiqotlari ham tarixshunoslik uchun nihoyatda qimmatlidir²⁵⁴. Aynan shu davrga oid manbalar bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar Ye.A.Davidovichning ilmiy ishlaridagi numizmatik materiallar bilan yanada boyitilgani va davr tarixini o'zida aks ettirishi bilan xarakterlanadi²⁵⁵.

Ashtarxoniylar davrini o'rganishga oid batafsil ma'lumotlar taniqli o'zbek sharqshunos olimi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

²⁵¹ Бартольд В. В. Отчет о поездке в Туркестан // Соч.Т. VIII. Москва: 1973. – С. 119-210; Церемониал при дворе узбекских ханов // Соч. Т.П. 4.2. Москва: 1964. – С. 388-399.

²⁵² Сборник материалов по истории Золотой Орды В.Тизенгаузена. Т.1. Извлечения из сочинений арабских. – СПб: 1884.Т.П. Извлечения из персидских сочинений, собранные В.Г.Тизенгаузенем и обработанные А.А.Ромаскевичем и С.Л.Волиным. – Л.: 1941.

²⁵³ Мухаммад Юсуф Мунши. Мукимханская история / Пер. с перс.-тадж., прим. и указ. А.А.Сёменова. – Ташкент: 1956; Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-нама / Пер. с перс, с прим. А.А.Семёнова. – Ташкент: 1957; Абдар-рахман Тале. История Абу-л-Файз-хана / Пер., пред., прим. и указ. А.А.Семёнова. – Ташкент: 1959. –С. 57.

²⁵⁴ Семёнов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях их носителей в средневековой Бухаре // Советское востоковедение. – Москва-Ленинград: 1948. – С. 137-153.Ўша муаллиф: К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып.1. – Сталинабад: 1954. – С. 3-37; Ўша муаллиф: Шейбани-хан и завоевание им империи Тимуридов // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып.1. – Сталинабад: 1954. – С. 29-83.; Первые Шибаниды и борьба за Мавераннахр // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып.1. – Сталинабад: 1954. – С. 109-150.

²⁵⁵ Давидович Е.А. История монетного дела Средней Азии XVII -XVIII вв. (золотые и серебряные монеты Джанидов). – Душанбе: 1964. –С. 325.; Ўша муаллиф: Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. – Москва: Наука, 1970.

B.Ahmedovning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, B.Ahmedovning Balx xonligi tarixiga oid monografiyasi XVI-XVIII asrlarda Movarounnahr va Shimoliy Afg‘onistonning tarixiga bag‘ishlangan mukammal asardir²⁵⁶. Bundan tashqari mazkur olim Mahmud bin Valining “Bahr ul-asror” asarining gegorafiya qismining tarjimasini hamda asar muallifi xususida ilmiy maqola ham nashr ettirgan²⁵⁷.

Shayboniylar va Ashtarxoniylar bilan qo‘shni bo‘lgan davlatlarning siyosiy va etnik tarixi, madaniyat tarixiga oid ko‘plab masalalar prof. O.F.Akimushkin²⁵⁸ va prof. T.I.Sultanov²⁵⁹lar asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Asosiy ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarni tahlil qilish asnosida shu ma’lum bo‘ladiki, Buxoro xonligida XVII asrdan XVIII asr o‘rtalarigacha hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi tarixini ularning Markaziy Osiyo siyosiy sahnasiga kirib kelishi bilan boshlaydilar. Chunki ungacha bo‘lgan davr tarixi tadqiqotchilar tomonidan Oltin O‘rda davlati tarixi bilan bog‘liq ravishda o‘rganib kelingan. Boshqacha aytganda o‘rtada, xususan, o‘zbek tarixshunosligida ham Bu sulola tarixini o‘rganishda bo‘linish yuzaga kelib, sulola tarixi asosan ularning Shayboniylar davlati

²⁵⁶ Ахмедов Б.А. История Балха (XVI - первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. –С. 296.

²⁵⁷ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География) / Введ, пер., прим. и указ. Б.А.Ахмедова. – Ташкент: Фан, 1977. – 184 с. Ўша муаллиф: Государство кочевых узбеков. – Москва: Наука, 1965. –С. 196.; Ўша муаллиф: Махмуд б. Вали и его энциклопедический труд // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: 1969. – С. 62-65. Ўша муаллиф: Историко-географическая литература Средней Азии XVI -XVIII вв. (письменные памятники). – Ташкент: 1985. –С. 265.; Ўша муаллиф: О времени и обстоятельствах смены на рубеже XVI – XVII вв. династии Шибанидов Аштарханидами // Восточное историческое источниковедение и специальные исторические дисциплины. Вып. 2. – Москва: 1994. – С. 161-171.

²⁵⁸ Акимушкин О.Ф.К вопросу о внешнеполитических связях Могольского государства с узбеками и казахами в 30-е гг. XVв. -60-е гг. XVII в.// Палестинский сборник. Вып. 21 (84). – Москва-Ленинград: 1970. – С. 233-248.; Ўша муаллиф: Введение в изучение памятника «Шах-Махмуд ибн мирза Фазил Чурас. Хроника». – Москва: 1976.

²⁵⁹ Кляшторный С.Г., Султанов Т.И. Государства и народы Евразийских степей. Древность и средневековье. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2009. –С. 439.; Султанов Т.И. Поднятые на белой кошме. Потомки Чингиз-хана. – Алматы: Дайк-пресс, 2001. –С. 273.; Султанов Т.И. О некоторых источниках «Бахр ал-асрар» // ППиПКНВ. Краткое содержание докладов V сессии ЛЮ ИВ АН СССР. – Ленинград: 1969; Султанов Т.И. О терминах Ак-Орда, Кок-Орда и Йуз-Орда // Изв. АН КазССР. Сер. обществ, наук. – Алма-Ата: 1972; Султанов Т.И. Кочевые племена Приаралья в XV - XVII вв. – Москва: 1982.

hududiga kirib kelishi bilan bog'liq ravishda tadqiq etilgan. Shu munosabat bilan adabiyotlarda To'qay Temuriylarning, ya'ni Ashtarxoniylarning Movoraunnahr va Turkiston hududlariga kirib kelishi va ungacha bo'lgan davr tarixi masalalari haqida yetarli ma'lumotlar berilmagan yoki umuman tushirib qoldirilgan.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning fikriga asosan ushbu davr tarixiga oid ma'lumotlar xronologiyasini o'rnatish va bayon etish bo'lib qolgan. Bu esa o'z navbatida sulola tarixida xronologik ravishda taxtga chiqqan hukmdorlar va ular haqidagi ma'lumotlar bilan bog'liq chalkashliklarga sabab bo'lgan. Shu sababli ham Ashtarxoniylarning Buxoro xonligiga kirib kelishi, so'nggi shayboniy hukmdorlar bilan munosabati hamda Jo'chi avlodidan bo'lmish bu ikki tarmoq vakillarining o'zaro munosabatlar tarixi yoritilmasdan kelinmoqda. Jumladan, Xurosonga egalik qilish uchun Safaviylar va Shaboniylar o'rtasidagi o'zaro kurashlar davrida Ashtarxoniylar sulolasining qisqa muddat davomida Xurosondagi noibligi masalasi hali hanuz o'z tadqiqotchisini kutmoqda. Shunga qaramasdan o'zbek xonliklari bilan Eron safaviylari o'rtasidagi kurashlar tarixi H.H.Tumanovich²⁶⁰ ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Ashtarxoniylarning dastlabki tarixini o'rganish borasidagi tadqiqotlarga yuqorida ta'kidlangan T.I.Sultanovning ishidan tashqari V.V.Trepavlovning "Istoriya Nogayskoy Ordı"²⁶¹ va V.V.Velyaminov-Zernov²⁶² asarlarini qo'shish mumkin.

²⁶⁰ Туманович Н.Н. Герат в XVI - XVIII веках. – Москва: Наука, 1989. –С. 286.

²⁶¹ Тrepавлов В.В. История Ногайской Орды. – Москва: Восточная литература, 2001. –С. 752.

²⁶² Вельяминов-Зернов В.В. Исследование о Касимовских царях и царевичах. 1-2. – СПб.: 1863-1864.

Shu qatorda bugungi kunga qadar hech bir talqiqotchi Jo‘chi ulusi tarixi xususida yozarkan B.D.Grekov va A.Yu.Yakubovskiyning “Zolotaya Orda i yee padenie” asariga murojaat qilmasdan qolmaydi²⁶³.

B.D.Grekov va A.Yu.Yakubovskiyning jamoaviy monografiyasi nashr etilgach, M.G.Safargaliyevning bir qator qiziqarli ilmiy ishlari chop etilgan bo‘lib, hali hanuz tadqiqotchilar tomonidan ularga yetarlicha e’tibor qaratilmay kelinmoqda²⁶⁴.

K.A.Pishulinaning monografiyasida “Bahr ul-asror” da keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda Qozoq xonligi bilan Buxoro xonligi munosabatlari tarixini birmuncha ochib bergan²⁶⁵. Shuningdek, olima o‘z monografiyasida manbadan tarjimalar qilib, ulardan foydalangan.

Buxoro xonligida Ashtarxoniy hukmdorlarning tarixi, siyosat va hokimiyat yuritish masalalarining ayrim jihatlari o‘sha davr tarixiy manbalari, ayniqsa, Maxmud bin Valining “Bahr ul-asror” asaridagi ma’lumotlarga tayangan holda yozilgan M.A.Abduraimovning monografiyasida o‘z aksini topganligini qayd etib o‘tish lozim²⁶⁶.

Buxoro xonligi tarixini o‘rganishga Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” asarini rus tiliga tarjima qilgan hamda shu asosda bir

²⁶³ Греков Б. Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. – Москва-Ленинград: 1950. – С. 478.

²⁶⁴ Сафаргалиев М.Г. Разгром Большой Орды (к вопросу освобождения Руси от татарского ига) // Зап. НИИ при Совете Министров Мордовской АССР. Вып. 11: История и археология. – Саранск: 1949. – С. 78-96; Ўша муаллиф: Заметки об Астраханском ханстве// Сб. статей преподавателей Мордовского пед. ин-та. Ред. М.И.Романов. – Саранск: 1952. – С. 28-51; Ўша муаллиф: Распад Золотой Орды. – Саранск: 1960. –С. 276.

²⁶⁵ Пищулина К.А.Юго-Восточный Казахстан в сер. XIV - нач. XVI в.: (Вопросы политической и социально-экономической истории). – Алма-Ата: Изд-во Наука Казахской ССР, 1977. –С. 286; Ўша муаллиф: Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII веков [Текст] : (Извлечения из перс. и тюрк. сочинений) / Сост. С.К.Ибрагимов, Н.Н.Мингулов, К.А.Пищулина, В.П.Юдин ; АН Каз. ССР. Ин-т истории, археологии и этнографии им. Ч.Ч.Валиханова. – Алма-Ата: Наука, 1969. –С. 651.

²⁶⁶ Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI - пер. пол. XVII вв. Т. I. Ташкент, 1966. –С. 369.

qator maqolalar chop etgan tarixchi olim M.X.Salaxetdinova ham o'zining katta hissasini qo'shgan²⁶⁷.

Ashtarxoniylar sulolasi tarixshunosligini o'rgangan xorijiy tadqiqotchilardan avvalo, O.Bartonning ilmiy ishlarini eslab o'tish o'rinlidir. Uning ilmiy yo'nalishi Buxoro xonligining Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolalari davrida qo'shni mamlakatlar va Moskva davlati bilan savdo munosabatlariga qaratilgan²⁶⁸. O.Bartonning tadqiqotlarida asosiy e'tibor qaratilgan masalalarga yaqin ilmiy izlanishlarni R.D.Makchesnining asarlarida o'z ifodasini topgan. Mazkur olim XVII asrda Markaziy Osiyo davlatlarining Eron bilan o'zaro munosabatlarini yoritib bergan²⁶⁹. Bundan tashqari Ashtarxoniylarning kelib chiqishi hamda ularning no'g'aylar va Qrim xonliklari munosabatlari tarixining ba'zi masalalari A.Bennigsen va K.Lemerse-Kulkudjay²⁷⁰ larning tadqiqotlarida ochib berilgan. Mazkur tadqiqotlar qatoriga D.Deyusning Oltin O'rda tarixiga bag'ishlangan asarini ham kiritish mumkin²⁷¹. Muallif tomonidan Astraxan xonligi va uning yuzaga kelish tarixi, tanazzuli sabablari yoritib berilgan.

²⁶⁷ Ходжа Самандар Термизи. Дастур ал-мулук (Назидание государям). Факсимиле старейшей рукописи, пер. с перс., пред., прим. и указ. М.А.Салахетдиновой. – Москва: Наука, 1971. – С. 257.; Ўша муаллиф: Новый источник по истории Средней Азии XVII в. // Иранская филология. – Ташкент: 1966.

²⁶⁸ Burton, A. The Fall Herat to the Uzbeks in 1588// Iran. XXVI. – London: The British Institute of Persian Studies. 1988. P. 119 - 123; Who was the first Ashtarkhanid Ruler of Bukhara? // Bulletin of the School of Oriental and African Studies. University of London. – London: 1988. Vol. 51. Part.3.; The Bukharian Trade 1588 - 1718. Indiana University. Research Papers on Inner Asia. – Indiana: Bloomington. 1993. №23.

²⁶⁹ Mac Chesney, R.D. The Amir's of Muslim Central Asia in the 17th century // Journal of Oriental and African Studies. 1983.26/1. P. 33-70; «Barrier of Heterodoxy»: Rethinking of the Ties between Iran and Central Asia in the 17th century // Pembroke Papers. 1996. № 4. -P. 231-267.

²⁷⁰ Bennigsen A., Lemersier-Quelquejay Ch. Le Grand Horde Nogay et le probleme des communications entre l'Empire Ottomane et l'Asie Centrale en 1552 – 1556 // Turcica. Revue d'etudes turques; Bennigsen A., Veinstein G. La Grande Horde Nogay et le commerce des steppes pontiques (fin XV - 1560) // Turkienin sosyal ve economic tarihi, 1071 - 1920. Ed. O. Okuyar, H. Inalcik. – Ankara: 1980. pp. 49-63.

²⁷¹ DeWeese, D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. Baba Tules and Conversation to Islamic Historic and Epic Tradition. Pennsylvania, 1994.

1899-yilda F.Skayn va Ye.Rosslar tomonidan Markaziy Osiyoning eng qadimgi davrdan to XIX asrgacha bo‘lgan umumiy tarixini bayon qilib berishga qaratilgan dastlabki urinishlardan biri edi²⁷².

Shuni ta’kidlash kerakki, xorijiy tadqiqotchilarning Buxoro xonligi to‘g‘risidagi asarlarida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ochib berishga e’tibor qaratilgan bo‘lib, XX asrning 60-70-yillarida B.Shpuler va boshqa olimlarning tadqiqotlariga asoslangandir²⁷³.

A.K.Alekseev o‘z dissertatsiyasida To‘qay-Temuriylar, ya’ni ashtarxoniylarning O‘rta Osiyo mintaqasiga Mang‘ishloq yarimoroli orqali kirib kelganliklari haqida ma’lumot berib, bu voqealar Ivan IV Groznyy tomonidan Astraxan xonligining egallanishidan avval ro‘y berganligini ta’kidlaydi. Mavjud adabiyotlarda esa Ashtarxoniylar Astraxan bosib olingach, Buxoro xonligi hududiga ko‘chganliklarini qayd etadi. Tadqiqotchining fikricha birmuncha avvalroq ro‘y bergan bu ko‘chish, aslo Astraxanning bosib olinishi bilan bog‘liq bo‘lmay, balki ushbu xonlikda va No‘g‘ay o‘rdasida taxt uchun yuzaga kelgan o‘zaro ichki kurashlar sababdir²⁷⁴.

Ashtarxoniylar kelib chiqishi haqida so‘z borarkan, Oltin O‘rda davlatiniing zaiflashib borishi natijasida uning mayda xonliklarga bo‘linib ketganligi ma’lum. Ulardan biri XV asrning 30-yillariga kelib, Volgabo‘yi yerlarida vujudga kelgan Ashtarxon (Astraxan, aslida Hoji tarxon) xonligi yuzaga keladi. Bu davlat hududlari markazi Moskva bo‘lmish Rus

²⁷² Serine, F.H., Ross, Ye.D. The Heart of Asia. A History of Russian Turkestan and the Central Asian Khanates from the Earliest Times. London, 1899.

²⁷³ Spuler, B. Die Goldene Horde. Die Mongolen in Russland 1223 - 1502. Leipzig, 1943; Remarks on the Cultural and Economic situation in Western Central Asia in 16 – 18th century. Lund, 1970.

²⁷⁴ Алексеев А.К. Средняя Азия при Аштарханидах в XVII-XVIII вв.: По персоязычному историческому сочинению "Бахр ал-асрар": автореферат дис. ... кандидата исторических наук: С.-Петербург. гос. ун-т. – Санкт-Петербург, 2004. –С. 36. // <https://www.dissercat.com/content/srednyaya-aziya-pri-ashtarkhanidakh-v-xvii-xviii-vv-po-persoyazychnomu-istoricheskomu-sochin>

podsholigi 1552-yilda Qozonni bosib olganidan so'ng 1556-yilda zabt etiladi. Shu bosqindan so'ng Yormuhammadxon farzandlari Joni Muhammad sulton, Abbos sulton, Tursun Muhammad sulton, Pir Muhammad sulton va ahli ayollari bilan Movarounnahrga kelganligi ma'lum. Buxoroda unga nisbatan Abdullaxon II ning otasi Iskandar Sulton nihoyatda g'amxo'rlik qilib, o'zaro munosabatlarni Iskandar sulton qizi Zuhraonuni Joni Muhammad sultonga berish orqali qarindoshlik rishtalari bilan bog'ladi. Aynan mana shu nikohdan tug'ilgan farzandlar - Din Muhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammadlar Buxoro xonligining keyingi tarixida o'chmas iz qoldirib, o'zbek davlatchiligi tarixida Ashtarxoniylar yoki Joniylar deb nomlanuvchi sulola tarixini boshlab berganlar. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi boshqaruviga yangi sulolaning (Ashtarxoniylarning – *J.B.*) kelishi amalda biron-bir keskin tarixiy burilishga sabab bo'lmagani tabiiy²⁷⁵ ekanligini yozganda haq edi. Chunki bu sulola ham davlat asoslarni o'zgartirmasdan o'z zamonasining shart-sharoitlarini hisobga olgan holda hokimiyat yurgizganlar.

XVI asr oxirida Abdullaxon II vafotidan keyin mamlakatda yuzaga kelgan holat va markaziy hokimiyatning yo'qligidan Buxoro xonligining ichki va tashqi dushmanlari foydalanib qoldilar, shu sababli ham davlatda ulus amirlari o'z viloyatlarida mustaqillikka bo'lgan intilishlari kuchaydi. Shuning uchun ham hokimiyatni endigina qo'lga olgan Ashtarxoniylar (Joniylar) (1601-1753-yy.) mamlakatning asosiy iqtisodiy va siyosiy qudratini o'z qo'llarida jamlagan tabaqa vakillari, ya'ni ulus amirlari, harbiy-ko'chmanchi zodagonlar, shuningdek, yirik musulmon ruhoniylari bilan hisoblashishga majbur bo'lganliklari, bu esa o'z navbatida davlatning

²⁷⁵ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 259.

sezilarli ravishda zaiflashuviga va markaziy hokimiyatning rolining tushishiga olib kelganligi adabiyotlarda qayd qilingan²⁷⁶.

Movarounnahrda eng birinchi Ashtarxoniylar hukmdor sifatida Joni Muhammadxonga ancha keksayib qolgan otasi Yormuhammadxon o'z xohishi bilan taxtni topshiradi. Jonimuhammadxonning boshqaruv-yillari haqida so'z ketarkan, A.K.Alekseev aynan uning davri mamlakat hayotida davlat va hokimiyatni mustahkamlash bilan bog'liq bo'lganligini ta'kidlab, manbalardagi ma'lumotlarda Jonimuhammad davridagi xo'jalik shart-sharoit va davlat madaniy hayotidagi o'zgarishlar umuman tilga olinmaydi, deb yozadi²⁷⁷. Bizningcha bu holat mazkur hukmdorning uncha uzoq bo'lmagan davr hukmronlik qilganligi hamda hayotining katta qismini mamlakatni mustahkamlash uchun o'tkazgan kurashlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Hattoki, Mahmud ibn Vali tomonidan yozilgan Ashtarxoniylarning rasmiy tarixida ham u haqida muallif umumiy ma'lumotlar bilan cheklanib, Joni Muhammadxonni yaxshi va donishmand hukmdor sifatida tilga olsa-da, e'tiborga arzigulik dalillar keltirmaydi. Faqat bu hukmdor boshqaruv-yillariga oid muhim ma'lumot sifatida uning davrida xonlik hududlarining uluslarga bo'linib berilishi, Ashtarxoniylar boshqaruv-yillarining ilk davrida davlatning ma'muriy tuzilishi xususida xulosa qilishga imkon yaratadi²⁷⁸.

Ma'lumki, 1601-yildan boshlab Buxoro xonligida rasman sulola almashinuvi kuzatiladi. Taxtga Ashtarxoniylar hukmdorlar o'tiradilar. Bu

²⁷⁶Мукминова Р., Агзамова Г. Бухарское ханство (эмират) / Очерки по истории государственности Узбекистана // Отв. редакторы Алимова Д.А., Ртвеладзе Э.А. – Ташкент: Шарк, 2001. – С. 98.

²⁷⁷Алексеев А.К. Средняя Азия при Аштарханидах в XVII-XVIII вв.: По персоязычному историческому сочинению "Бахр ал-асрар": автореферат дис. ... кандидата исторических наук: С.-Петербург. гос. ун-т. – Санкт-Петербург, 2004. – С. 36. // <https://www.dissercat.com/content/srednyaya-aziya-pri-ashtarkhanidakh-v-xvii-xviii-vv-po-persoyazychnomu-istoricheskomu-sochin>

²⁷⁸ Ўша жойда.

davrda hukmronlik qilgan Boqimuhammad (1601-1605) va Vali Muhammad (1605-1611) davrida Buxoro xonligining tashqi dushmanlardan himoya qilishga asosiy e'tibor qaratilgan edi. Bu davrda shimoldan qozoqlar va janubdan safaviylar hujumlari ortib, Buxoro xonlari ularga qarshi mudofaa urushlari olib borishga majbur bo'lgan edilar.

Adabiyotlarda Ashtarxoniylar hukmdorlar orasidan Imomqulixon (1611-1642) davrida nisbatan bo'lsa-da, siyosiy barqarorlik ta'minlangani keltiriladi. U taxtga chiqqan dastlabki-yillarda ham ko'chmanchilarning Buxoro xonligi hududiga doimiy bosqinlari davom etar, Imomqulixon ularga qarshi Ashpara va Qoratovga qadar yurish qilishga majbur bo'lgandi. Shundan so'ng Imomqulixon Toshkentga yurish qilib, uni Buxoro xonligi tarkibiga qaytaradi. Shuningdek, Farg'ona vodiysi va Balx ham Imomqulixon oliy hokimiyatini tan olib, uning davlati tarkibida edi²⁷⁹, deb tadqiqotchilar ma'lumot beradilar. Shuningdek, boshqa bir adabiyotda Imomqulixon davrida Buxoro xonligida o'zaro urushlarga chek qo'yib, ma'lum ma'noda davlatni markazlashtirishga muvaffaq bo'lsa-da, Xorazm va Xurosonni qayta qo'lga kiritishga olmadi²⁸⁰, deb ta'kidlanadi.

Buxoro xonligida Imomqulixon va Balxda Nodir Muhammadxonlarning davridagi nisbatan barqaror vaziyat Ashtarxoniylar sulolasining eng taraqqiy topgan davri sifatida tarixda qoldi. Bunday barqaror rivojlanishning asosiy sababi bo'lib xonlikning ikki asosiy qismlari – Buxoro va Balx o'rtasidagi tinch va osoyishta munosabatlar xizmat qilganligini alohida ta'kidlashimiz lozim. Aynan keyingi davr ushbu sulola vakillarining siyosiy jarayonlar tarixiga e'tibor beradigan

²⁷⁹ Мукминова Р, Агзамова Г. Бухарское ханство (эмират) / Очерки по истории государственности Узбекистана // Отв. редакторы Алимова Д.А, Ртвеладзе Э.А. – Ташкент: Шарк, 2001. – С. 98-99.

²⁸⁰ Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. I қисм // Сагдуллаев А, Аминов Б, Мавлонов Ў, Норқулов Н. Ўзбекистон Республикаси ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиш Академияси Ўзбекистоннинг энг янги тарихи Маркази. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 176.

bo'lsak, oliy hukmdor o'tirgan markaz Buxoro bilan valiahdning viloyati hisoblangan Balx o'rtasidagi muvozanatning buzilishi ichki nizolarning kuchayishiga, markaziy hokimiyatning zaiflashib ketishiga hamda tashqi dushman xavfiga imkon yaratib berdi.

XVII asr davomida Buxoro xonligidagi ichki nizolarning kuchayib borishi keyingi asrning dastlabki o'n-yilligiga qadar davom etib, oxir-oqibat siyosiy hokimiyatning butunlay parchalanishiga olib keldi. Shu bilan birga yirik zamindorlar qatlami vujudga kelib, ular o'z viloyatlarida amalda mustaqil siyosiy kuchga aylana bordilar.

Ma'lumki, O'rta Osiyo siyosiy hayotida Qo'qon xonligi asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Tarixshunoslikda Qo'qon xonligining tashkil topishiga Buxoro xonligida XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi hayotida ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy tanazzul sabab bo'lganligi alohida urg'ulanadi hamda Qo'qon xonligining alohida bo'lib ajralib chiqishi (1709) Farg'ona vodiysi hududida mustaqil iqtisodiy-ijtimoiy xo'jalik sharoitini yuzaga keltirgani ma'lumdir²⁸¹.

Buxoro xonligida Balx viloyati deyarli 250-yilga yaqin davr ichida (XVI asr birinchi yarmidan to XVIII asrning birinchi yarmiga qadar) deyarli yarim mustaqil hudud sifatida siyosat yurgizib kelgan. Lekin vaqti-vaqti bilan kuchli hukmdorlar davrida Balx ham Buxoro xonlari markaziy hokimiyatiga bo'ysunganligi ma'lum. Bu haqda ayniqsa B.Ahmedovning monografiyasi nihoyatda qimmatlidir. Akademik B.Ahmedov yuqoridagi sabablarni keltirgan holda o'sha davr yozma manbalarida Balx va uning atrofidagi hududlar "balx davlati", "balx sultonligi", "balx xonligi" atalganligi xususida ma'lumot beradi²⁸².

²⁸¹ Бейсымбиев Т. "Тарих-и Шахрух-и" как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – С. 10.

²⁸² Ахмедов Б.А. История Балха (XVI - первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.7.

P.Ivanovning yozishicha kenagaslar qabilasining boshlig‘i Ibrohim otaliq muvaffiyatsizlikka yuz tutgach, o‘z tarafdorlari bilan Samarqandga qarab yurish boshlaydi va geyoki “chingizzoda” bo‘lgan Rajab sultonni taxtga o‘tqazadi. Bu bilan uni Abulfayzxonga qarama-qarshi qo‘yadi. Bu davrda 1722-1731-yillar davomida Samarqand Buxorodan ma‘lum bir muddat davomida mustaqil siyosat yurgizadi. Ibrohim otaliq o‘z atrofida qabiladoshlari, hamda qozoq va qoraqalpoqlardan iborat katta kuchlarni birlashtirib, bir necha-yillar davomida (1723-1725) Buxoroni egallash maqsadida poytaxt va uning atroflariga bosqinchilik yurishlari uyushtiradi. Bu vaqtda Pyotr I ning Buxoroda bo‘lib turgan elchisi Florio Benevenining ma‘lumot berishicha ma‘lum bir davrlarda Ibrohim kenagas tomonidan Buxoro 5 oylab qamal qilingan va bu o‘z navbatida aholining barcha toifalariga katta talafotlar yetkazgan. Hattoki Abulfayzxonning qo‘shin saqlab turish uchun ham mablag‘i bo‘lmagan.²⁸³.

H.Boboyev va boshqalar hammuallifligida “O‘zbek davlatchiligi tarixi” kitobida ashtarxoniylar sulolasi xukm surgan davrda, ayniqsa, uning oxirgi vakillaridan Abulfayzxon hukmronligi-yillarida davlatda o‘zboshimchalik, boboshdoqlik, o‘zbek qabila urug‘lari o‘rtasida hokimiyat uchun kurash, ayrim hududlarning mustaqillikka bo‘lgan intilishlarining kuchayishi bilan bog‘liq holatlar Buxoro davlatini ham ichki, ham tashqi siyosatda tanazzul yoqasiga olib kelgan edi, deb keltiriladi. Shuningdek, asarda jamiyat hayotida bunday muammolarning yuzaga kelishiga asosiy sabablardan biri-Ashtarxoniylar sulolasining

²⁸³ Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI - середина XIX в.). – Москва: 1958. – С. 93.

so‘nggi vakili Abulfayzxonning davlat boshqarishdagi rolining pasayib ketishi va boshqaruvda tajribaga ega emasligi sabab qilib ko‘rsatiladi²⁸⁴.

D.Alimova va E.Rtveladze hammuallifligidagi adabiyotda Eron shohi Nodirning bosqinidan so‘ng Abulfayzxon boshchiligidagi Buxoro xonligi rasman eronliklarga vassal davlatga aylandi va bu holat toki Nodirshohning 1747-yili vafotiga qadar davom etib keldi, deya ma‘lumot beriladi. Bundan tashqari tadqiqotda Nodirshoh Buxorodagi ishlarga boshliq qilib mang‘itlar qabilasi urug‘ sardori Muhammad Hakimbiyni, Muhammad Doniyolbiyni – Karmanaga tayinlab, Muhammad Rahimbiyni o‘zining eng yaqin odamlaridan biriga aylantirgani aytiladi²⁸⁵. Shu xususdagi ma‘lumot boshqa adabiyotlarda ham berilib, davr manbalaridan biri bo‘lmish “Tarixi Xumuliy” asaridagi ma‘lumotga ko‘ra Nodirshoh Muhammad Rahimbiyni shogirdidek ko‘rib, uni davlat ishlariga tayyorlab borgan va o‘zi yolg‘iz qolganida shunday degan: Mening boshqaruvim muddati tugaganidan so‘ng jahonga hukmronlik qilish Muhammad Rahim O‘zbek va Ahmad Afg‘on ixtiyoriga o‘tadi²⁸⁶. Tarixdan ma‘lumki, har ikkala shaxs Nodirshoh vafotidan so‘ng davlat hukmdoriga aylanganlar.

Ashtarxoniylarning hokimiyatdan ayrilish tarixi haqida adabiyotlarda turlicha ma‘lumotlar keltiriladi. Jumladan, 1743-yil mang‘itlar boshlig‘i Muhammad Hakimbiy vafot etgach, uning o‘g‘li Muhammad Rahimbiy hokimiyatni o‘z qo‘l ostida birlashtirib, Buxoro xonligining haqiqiy hukmdoriga aylanadi.

²⁸⁴ Бобоев Х., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи (II китоб). – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2009. – Б. 167.

²⁸⁵ Мукминова Р., Агзамова Г. Бухарское ханство (эмират) / Очерки по истории государственности Узбекистана // Отв. редакторы Алимова Д.А., Ртвеладзе Э.А. – Ташкент: Шарқ, 2001. – С. 100-101.

²⁸⁶ Бобоев Х., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи (II китоб). – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2009. – Б. 167.

Krausset va Enkauze kabi xorijlik olimlar so‘nggi ashtarxoniylar 1758-yilgacha hukmronlik qilganliklari va sulolaning oxirgi vakili Abulg‘ozixon ekanligini ta’kidlab, mang‘itlarning Buxoroda hokimiyat tepasiga kelishi ham shu-yili ro‘y berganligini va amir Shohmurod sulolaning birinchi hukmdori bo‘lgani to‘g‘risida ma’lumot beradilar²⁸⁷. E.Olvort va Yu.Bregel kabi olimlar esa mang‘itlar ilk hukmdori Muhammad Rahimbiy bo‘lganini ta’kidlaydilar²⁸⁸.

Bu masalada ham mahalliy adabiyotlarda turlicha yondashuvlarni ko‘rish mumkin. D.Alimova va E.Rtveladzelarning tadqiqotida esa Muhammad Rahimbiy tomonidan Abulfayzxonni qatl ettirganidan so‘ng 1753-yilga kelib, o‘zi taxtga chiqib, Buxoro xonligi siyosiy sahnasiga yangi bir mang‘itlar sulolasiga asos soladi hamda ular Buxoroda 1920-yilga qadar hukmronlik qilgani bayon etiladi²⁸⁹. Azamat Ziyoyev asarida yozishicha Abulfayzxonning qatlidan so‘ng uning o‘g‘li Abdulmo‘min xon deb e’lon kilinsa-da, amalda hokimiyat Muhammad Rahimbiy qo‘lida edi, u esa o‘z navbatida Abdulmo‘minxonni ham o‘ldirtirib, uning o‘rniga Ubaydulla sultonni o‘tqazadi hamda tez orada uni ham yo‘q qiladi. Muallif shu tariqa ashtarxoniylar sulolasi uzil-kesil tugadi, deb ma’lumot beradi²⁹⁰.

“O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat tarixi” kitobida 1747-yili Nodirshoh Movarounnahrda yana hujum uyushtirib, Toshkent, O‘tror va Turkistonni egallab, so‘nggi ashtarxoniylar sifatida taxtga chiqqan rasmiy

²⁸⁷ Бобоев Х., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи (II китоб). – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2009. – Б. 173.

²⁸⁸ Ўша жойда.

²⁸⁹ Мукминова Р., Агзамова Г. Бухарское ханство (эмират) / Очерки по истории государственности Узбекистана // Отв. редакторы Алимова Д.А., Ртвеладзе Э.А. – Ташкент: Шарқ, 2001. – С. 100-101.

²⁹⁰ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 270.

xonlar Abdulmo‘min (1747-1751), Ubaydullaxon II (1751-1754)²⁹¹, Sherg‘ozi (1754-1756) bo‘lsa-da. Amalda hokimiyat Muhammad Rahim mang‘it (1756-1759) qo‘lida edi²⁹², deb ma‘lumot berilgan. U 1756-yil dekabrda rasman Buxoro taxtiga o‘tqazildi va shu tariqa Buxoro xonligida yangi sulola – mang‘itlar hukmronligi boshlandi ²⁹³.

Yana bir tadqiqotda 1758-yilda Muhammad Rahimbiy vafotidan keyin uning nabirasi taxtga o‘tqazilib, Fozil To‘ra taxtga o‘tqazilib, unga Muhammad Rahimbiyning amakisi Doniyolbiy otaliq etib tayinlangani, 1758-yilda esa Abulg‘ozixon taxtga o‘tqazilgach butun hokimiyat uning qo‘liga o‘tganligi haqida ma‘lumot beriladi²⁹⁴.

O‘rganilgan adabiyotlar asnosida shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, Buxoro xonligining ashtarxoniy hukmdorlar siyosiy boshqaruvi davomida umumiy zaiflashib ketishiga mamlakat ichidagi markaz va hududlar o‘rtasidagi o‘zaro ichki kurashlar, sulola orasida taxt uchun kurashlar, bundan tashqari Safaviy Eroni, Hindiston Boburiylari, Xiva va qozoq xonlarining doimiy tazyiqlari sabab bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida mamlakat hududining qisqarib borishiga, sulolaning daromadlarining kamayib borishiga va oliy hukmdor hokimiyatining zaiflashuviga olib kelganligi adabiyotlarda qayd qilingan. Oxir-oqibat so‘nggi Ashtarxoniy hukmdorlar 1785-yilga qadar hukmdorlik qilgan bo‘lganliklariga qaramasdan amalda xonlik boshqaruvi mang‘itlar sulolasi vakillari qo‘lida edi. Shunday bo‘lsa-da, mahalliy va xorijiy

²⁹¹ Ўзбекистон тарихшунослигида Убайдуллахон Биринчи – Бухоро хонлигида 1533-1540 йилларда ҳукмронлик қилган Шайбоний ҳукмдор, Убайдуллахон Иккинчи эса 1702-1711 йилларда – Бухорода ҳукмронлик қилган Аштархоний ҳукмдор сифатида берилди. Бу ўринда китоб муаллифлари Аштархонийлардан бўлган Убайдуллахонларнинг иккинчиси мазмунида қўллашмоқда шекилли.

²⁹² Қолган барча адабиётларда Муҳаммад Раҳимхон 1758 йилда вафот этганлиги келтирилган.

²⁹³ Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. I қисм // Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон Республикаси ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиш Академияси Ўзбекистоннинг энг янги тарихи Маркази. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 179.

²⁹⁴ Бобоев Х., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи (II китоб). – Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2009. – Б. 175.

tarixshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda mangʻitlar hokimiyat tepasiga kelishi 1785-yil bilan belgilamasdan, balki Muhammad Rahimbiy davridayoq oliy hokimiyatni egallaganliklarini urgʻulaydilar. Albatta Muhammad Rahimbiy tomonidan oʻzini xon deb eʼlon qilinish sanasi adabiyotlarda turlicha berilgan. Bizningcha Muhammad Rahimbiy xonlikning haqiqiy hukmdoriga 1747-yildayoq aylanib boʻlgan edi. Tadqiqotlarda aynan Ashtarxoniylarning mustaqil siyosat yurgizishining zavol topishiga Nodirshoh va uning oʻgʻli Rizoqulixonning yurishlari sabab boʻlganligi taʼkidlangani holda soʻnggi ashtarxoniylar faqatgina mangʻitlar sulolasining vakillari Muhammad Rahimbiy va amir Doniyolbiy otaliqlarning qoʻlida qoʻgʻirchoq xonlar boʻlganligi ochib beriladi.

Soʻnggi ashtarxoniylar hukmdori Abulgʻozixonning taxtdan qulashi orqali bir necha asrlar davom etgan Toʻqay-Temurning avlodlari koʻplab xalqlarning siyosiy, etnik va madaniy hayotida muhim iz qoldirganliklarini alohida taʼkidlash lozim. Ashtarxoniylar davri tarixi yodgorliklari nafaqat Oʻzbekiston tarixi, balki jahon madaniyatining merosi hisoblanadi. Shu asnda bu madaniy meros tarixini oʻrganish zamonaviy tarixshunoslarga oʻtmishning yorqin sahifalarini chuqur anglashga yordam beradi. Oʻz milliy tarixshunosligini tadqiq etish esa ushbu xalqning ajdodlari dunyo tamadduni rivojiga qanday hissa qoʻshganliklarini bilib olishga imkon yaratadi.

II.3. XVI asr boshlari – XVIII oʻrtalarida Buxoro xonligining xalqaro munosabatlari tarixiga oid tadqiqotlar

Bugungi kunda aynan XVI asrning boshlaridan to XVIII asrning o'rtalariga qadar Buxoro xonligining halqaro aloqalarining tarixshunosligi masalasini o'rganish nihoyatda ahamiyatlidir. Bu masala nafaqat O'zbekiston tarixi, balki Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va Rossiya bilan bo'lgan munosabatlar tarixshunosligi nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanib, tarixiy jarayonlar mohiyatiga chuqurroq kirib borish imkonini beradi.

Buxoro xonligining tashqi aloqalariga oid tadqiqotlar sirasiga B.Ahmedov²⁹⁵, H.Ziyoyev²⁹⁶, A.Muxamedjanov²⁹⁷, X.Gulyamov²⁹⁸, I.Nizamutdinov²⁹⁹, A.Ziyo³⁰⁰, M.Xayrullayev³⁰¹, J.Barakayev, Y.Haydarov³⁰² va boshqalar³⁰³ ning asarlarini kiritish mumkin.

XVI asr boshlarida Markaziy Osiyo tarixida siyosiy kuchlar muvozanati keskin o'zgargan bir davrdir. Ushbu davr xalqaro maydonda Muhammad Shayboniy tomonidan ko'chmanchi o'zbeklarning Dashti qipchoq hududidan O'rta Osiyoning o'troq hududlariga bostirib kirib, Movarounnahr va Xurosonni zabt etadilar hamda Shayboniylar davlatiga

²⁹⁵Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв.: Письменные памятники. – Ташкент: 1985. – С. 47-57. Ўша муаллиф: Сўнгги темурийлар ва Бадахшон учун кураш / Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 153.;

²⁹⁶Зияев Ҳ. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI–XIX асрлар). – Тошкент: 1962. – Б. 43.; Ўша муаллиф: Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI - XIX вв. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 167; Ўша муаллиф: Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан элчилик муносабатлар тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). – Тошкент: Таълим, 2014. – Б. 165-166.

²⁹⁷Мухамеджанов А.Р., Неъматов Т. Некоторые источники к истории взаимоотношений Бухары и Хивы с Россией. – Ташкент: Наука, 1957. – С. 24-29.

²⁹⁸Гулямов Х.Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в. – Ташкент: Фан, 1992.; Ўша муаллиф: Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 333.

²⁹⁹Низамутдинов И.Г. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX–XVIII вв.). – Ташкент: Узбекистан, 1969. – С. 169.

³⁰⁰Зияев А. Ценный источник по истории взаимоотношений Бухарского ханства и Индии XVII - начала XVIII века // Общественные науки в Узбекистане, № 3-4. 1992. Ўша муаллиф: Переписка правителей Шейбанидов и аштарханидов с Ираном и Индией // Исследования по истории, истории науки и культуры народов Средней Азии. – Ташкент: 1993. – С. 99-109.; Ўша муаллиф: Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 368.

³⁰¹Ҳайруллаев М. Ўзбек дипломатияси тарихи (Тарихий очерк ва лавҳалар). – Тошкент: 2003. – Б. 355.

³⁰²Баракаев Ж., Ҳайдаров Й. Бухоро тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 108.

³⁰³Дехкурди М.А. Завершение побед Сафавидов в Хорасане // Фарҳанг. – 2006. - №6. – С. 21-26.; Дехкурди А.М. Взаимоотношения Ирана и Бухарского ханства в XVI - первой половине XVIII вв. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Душанбе: -Б. 28.

(Ubaydullaxon hukmronligidan boshlab Buxoro xonligi) asos solinishi, Eronda xuddi shu davrda shoh Ismoil I tomonidan sulolasini Safaviylar xonadonini hokimiyat tepasiga kelishi (1502-1736), Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan avvalo Kobulda (1504) soʻngra Shimoliy Hindistonda Boburiylar davlatiga (1526-1858) asos solinishi mintaqadagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holat bilan bir qatorda halqaro munosabatlar rivojini ham oʻzgartirib yuborganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa oʻz navbatida bir mintaqada bir vaqtning oʻzida qudratli sanalgan uch siyosiy kuch: shayboniylar va safaviylar, boburiylar vujudga keldi.

Oʻz navbatida bu uch davlatning iqtisodiy, geosiyosiy manfaatlari toʻqnashmasdan qolmasdi. Ularning manfaatlari toʻqnashgan “nuqta” Xuroson boʻlib, mazkur hudud siyosiy-harbiy va iqtisodiy-savdo jihatidan muhim ahamiyat kasb etgan. Uni Turkiston, Eron va Hindiston yoʻnalishlaridagi darvoza desa ham boʻlardi³⁰⁴.

Mazkur davlatlar oʻrtasida harbiy, diplomatik hamda savdo iqtisodiy munosabatlar shakllangan edi. Bu munosabatlar XVI asr davomida Shayboniylar, Safaviylar va Boburiylar oʻrtasida olib borilgan boʻlsa, 1601-yildan boshlab, Buxoro xonligida hokimiyat tepasiga chiqqan Ashtarxoniylar tomonidan oʻz davrida davom ettirilgan.

Buxoro xonligida hokimiyatni qoʻlga olgan Shayboniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy asosini Temuriylar va ularning tarafdorlarining mulkklarini oʻz qoʻliga olgan koʻchmanchi oʻzbek zodagonlari va Movarounnahrda yetarli kuch va mulklarga egalik qiluvchi sunniy mazhabidagi musulmon ruhoniylari ittifoqi tashkil etardi. Mazkur ijtimoiy, maʼnaviy va harbiy ittifoq Movarounnahr ichida davlatni boshqaruvchi

³⁰⁴ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 253.

yirik yer egalari va zamindorlarning hukmronligining asosini ta'minlab berardi hamda shayboniylar sulolasiga butun XVI asr davomida Xuroson va Sharqiy Eron hududlari uchun tashqi siyosatdagi asosiy raqibi Safaviylar davlati bilan bo'lgan kurashlar olib borish imkonini bergan edi.

Ismoil I davrida shialik o'zining xalq ommasi oldida o'zining avvalgi mazmunini yo'qotib, Safaviylar davlatining rasmiy e'tiqodiga aylanadi. Shayboniylar va Boburiylar sunniylik mazhabida bo'lib, mazkur holat Xuroson uchun kurashlarga mafkuraviy tus berardi. Bunday holat ayniqsa Shayboniylar va Safaviylar o'rtasida keskin avj olganini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Buxoro davlati qo'plab davlatlar bilan siyosiy-diplomatik aloqalar o'rnatgan bo'lib, ular orasida Boburiylar davlati bilan o'rantiqan o'zaro munosabatlar tarixshunosligi masalasi I.Nizamutdinov³⁰⁵ olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida nihoyatda qadrlidir.

Buxoro xonligi Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolalari hukmronlik qilgan davrlarda Hindistondagi Boburiy hukmdorlar bilan juda qizg'in aloqalar olib borganligi tarixdan ma'lum. Bu ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va diplomatik munosabatlar tarixi XVI asrning birinchi choragidan Bobur Mirzo va Ko'chkunchixonlar davridayoq boshlangan. Buxoro xonligining Hindiston, Afg'oniston bilan xalqaro aloqalari XVI asrning ikkinchi yarmida, ya'ni Abdullaxon II davrida nihoyatda kuchayib, bir necha bor elchilar almashinuvi kuzatilgan. Hususan, 1572, 1577, 1586-yillarda Buxoro xonligidan Boburiylar saroyiga elchilar yuborilgan. Bu

³⁰⁵ Низамутдинов И. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX-XVIII вв.). – Ташкент: Узбекистан, 1969. –С. 144 .; Низомиддинов И. Ўрта Осиёнинг чет эл шарқи билан муносабатлари. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1961. – Б. 14.

haqida Nizomiddinovning XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlari tarixiga bag'ishlangan kitobida diplomatik va iqtisodiy munosabatlar yoritib berilgan³⁰⁶.

Azamat Ziyoning maqolalari va monografiyasida manbalarga tayangan holda Buxoro xonligining Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasi davrida Hindiston Boburiylari bilan olib borgan diplomatik-siyosiy munosabatlar to'g'risida keltirilgan ma'lumotlar tarixshunoslik jihatidan qimmatlidir.

Ko'chkinchixon davrida Usmonlilar davlati hukmdori Sulton Salim I (1512-1520) bilan Safaviylarga qarshi ittifoq tuzish fonida diplomatik aloqalar o'rnatganligi to'g'risida ham ma'lumotlar bor. 1515-yilda shayboniylar saroyiga Usmonli sultonining elchilari *Chaldiron jangida (1514)* Safaviylar ustidan qozonilgan g'alaba xabarini olib elchilar keldi. A.Vasileva ushbu masala yuzasidan olib borgan tadqiqotlari Muhammad Shayboniy davridan boshlab Usmonlilar va Shayboniylar davlati o'rtasida haqiqiy ittifoq vujudga kelganligini ko'rsatadi. Tadqiqotchi 1510-yil dekabr oyida Shayboniyxonning shafqatsizlarcha jangda o'ldirilishi, shayboniy sultonlarga o'z rahnomasining o'limi uchun Safaviylarga qarshi urushlar olib borishdan boshqa yo'l qoldirmagandi, deya ta'kidlaydi³⁰⁷. Lekin shu o'rinda masalaning boshqa bir jihatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Muhammad Shayboniy halok bo'lgach, Xuroson Eron ta'sir doirasiga o'tib, Safaviylar qudrati bir qadar oshadi. Shunday bir paytda shayboniylar vatqinchalik bo'lsa-da, Shoh Ismoil I bilan o'zaro sulh tuzadilar. Ismoil Safaviy bunday sulh tuzishiga A.M.Dexkurdi

³⁰⁶ Низамутдинов И. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX-XVIII вв.). – Ташкент: Узбекистан, 1969. – С. 84.

³⁰⁷ Васильев А.Д. Знамя и мечь от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI – начало XX вв.). – Москва: Пробел, 2000, 2014. – С. 55.

dissertatsiyasida quyidagicha xulosa qiladi: Safaviylar podshohi shaybonilar bilan 1510-yilning oxirida sulh tuzishga erishdi. Tinchlik sulhining asosiy sharti – Buxoro xonligi va Eron davlati o‘rtasidagi chegara sifatida Jayhun (Amudaryo) daryosidan o‘tishi belgilab qo‘yilgan edi. Xuroson uchun o‘zbek va eron davlatlarining deyarli butun asr davomida olib borgan qattiq va shiddatli kurashlari, XVI asr boshlariga qadar ushbu mintaqaning xo‘jalik hayoti, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy munosabatlarda G‘arbiy Erondan ko‘ra Movarounnahr bilan o‘zaro bog‘liq ravishda kechganligida edi. Shuning uchun ham keyingi davr Buxoro xonlari o‘zlarini Chingiziylar va Temuriylarning avlodi sifatida taxtga chiqqanlar hamda Xurosonni o‘zlarining merosiy mulklari sifatida ko‘rganlar³⁰⁸.

Shayboniylar sulolasi va Eron Safaviylari o‘rtasidagi siyosiy va diplomatik munosabatlar tarixshunosligi masalasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, tadqiqotlarga ko‘ra XVI asr boshlarida Movarounnahr va Eronda hokimiyat tepasiga kelgan bu ikki sulola o‘rtasidagi siyosiy aloqalar ko‘pincha urushlar va uzoq davomli harbiy to‘qnashuvlar doirasida davom etgan. Bu holat o‘z navbatida xalqaro maydonda chetda qolishiga yo‘l qo‘ya olmasdi.

Adabiyotlarda aynan shayboniylardan Ko‘chkinchixon davriga kelib Hindistondagi boburiylar bilan yaxshi qo‘shnichilik va tinchlik o‘rnatishga qaratilgan diplomatik aloqalarga bo‘lgan urinishlar haqida ma’lumot beriladi. Ko‘chkunchixon tomonidan 1528-yilda Agraga Bobur shoh saroyiga Amin mirza boshchiligida yuborilgan elchilik missiyasi juda

³⁰⁸ Дехкурди А.М. Взаимоотношения Ирана и Бухарского ханства в XVI - первой половине XVIII вв. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Душанбе: - С. 28.

yaxshi kutib olingan³⁰⁹. Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra 1529-yil 29-fevraldagi Bobur Alvar (suba Bihor) qishlog'ida bo'lib turgan vaqtda, barcha mamlakatlardan kelgan elchilarni tantana bilan kutib oladi hamda faqatgina Amin mirzaga qaytib ketishiga ruxsat beradi. Bobur Mirzo do'stlik ramzi sifatida Ko'chkunchixonga «kamarli xanjar, oltin bilan bezatilgan bosh kiyimi va katta miqdorda pul» jo'natganligi xususida B.Ahmedov ma'lumot beradi³¹⁰.

Ammo boshqa bir tadqiqotda Samarqandni Safaviylar yordamida qayta egallashga uringan Bobur Mirzo davrida eronliklar bilan o'rnatilgan aloqalar qaysidir ma'noda Humoyun Mirzo bilan ham o'rnatilgan. Lekin bu ittifoq amaliy harakatlar qilishdan cheklangan bo'lib, boburiylar shayboniylarga harbiy kurash yo'liga o'tmaganlar. Shunday bo'lsa-da Movarounnahr uchun bo'lgan da'volaridan ham voz kechmaganlar. Chunonchi Bobur mirzo 1528-yili Balxga 50 ming qo'shin bilan otlangan Humoyun mirzoga yozgan hatida Samarqandni olishga erishsa, taxtda o'zi o'tirishini, Hisor viloyatini esa xolisa qilib berishini yozgan. Bundan ko'rinib turibdiki umrining so'nggiga qadar Bobur Samarqanddan umidini uzmagani, deb A.Ziyo fikr bildiradi³¹¹.

Shayboniylar va Usmonlilar o'rtasidagi munosabatlar Ubaydullaxon davrida ham davom etganligi ma'lum. Shuningdek, 1536-yili Ubaydullaxonning Xitoyga ham elchilar yuborganligi ilmiy adabiyotlarda qayd qilib o'tilgan³¹².

³⁰⁹ Кўчкунчихон // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2000—2005. – Б. 889-900.

³¹⁰ Ахмедов Б.А. История Балха (XVI—первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С. 183-184.

³¹¹ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 254.

³¹² Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV—XIX вв. – Алматы: 1994. – С. 55.

B.Ahmedov tadqiqotlarida ham mazkur davr tashqi aloqalar xususida ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni topish mumkin. Xususan, 1984-yil kuzida O‘zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimlari tomonidan Xorazm vohasida topilgan 72 varaqdan iborat qo‘lyozma topilgan bo‘lib, birlamchi tekshirishlardan keyin ushbu qusur qo‘lyozma Eron shohi Tahmasb (1524-1576) va Safaviylarning Xurosondagi noiblari bilan Badaxshon hokimi temuriy Sulaymonshoh va Yorkand xonlari Sulton Saidxon va Abdurashidxon bilan olib borgan yozishmalari edi³¹³. Tadqiqotchi maktublar Eron bilan Yorkand xonligi o‘rtasida Shayboniylar davlati, ya’ni Buxoro va Balx xonlariga qarshi harbiy-siyosiy ittifoq tuzish haqida bo‘lib, Eron shohi shoh Tahmasb Badaxshon hokimi va Yorkand xonlariga o‘zbeklarga qarshi kurashda harbiy yordam evaziga Sulaymonshohdan ham, Yorkand xonlaridan ham shia mazhabiga o‘tishni shart qilib qo‘yganligini qayd etadi³¹⁴. Mazkur hujjatlar ham Shayboniylar davlati bilan Eron o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib, Buxoro xonligi va Boburiylar davlatida deyarli bir vaqtning o‘zida taxtga Abdullaxon II (1556-1598) va Akbarshoh (1556-1605) chiqishlari ushbu mamlakatlarda markazlashgan hokimiyatni vujudga keltirdi. Aynan Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi mintaqadagi qudratli davlatga aylanib, Movarounnahr, Dashti Qipchoq va Xurosonni ham o‘zida birlashtirgan edi. Hindistonda esa Akbarshoh boshchiligidagi Boburiylar o‘zlarining ko‘tarilish davrlarida edi. Shuning

³¹³ Б.Аҳмедов. Сўнгги темурийлар ва Бадахшон учун кураш / Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 153.

³¹⁴ Ўша жойда.

uchun ham XVI asrning ikkinchi yarmida bu ikki davlatlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tizimli va intensiv xarakterga ega edi.

Ushbu davr Hindiston va Buxoro o'zaro munosabatlariga oid tadqiqotlar orasida I.Nizamutdinovning izlanishlari alohida o'rin tutadi. Unga ko'ra 1572-yilda Abulfazl Allomiy bergan ma'lumotlarga tayanib, Buxoro xoni Abdullaxon II ning ilk elchiligi Akbarshoh saroyiga borganligi va bu missiyaga Xoja Altamish rahbarlik qilganligi ma'lum bo'ladi³¹⁵. Elchi Abdullaxonning ikkala davlat o'rtasida davom etayotgan do'stlik aloqalarini kuchaytirish haqidagi maktubini topshiradi. Akbarshoh Altamishni Gujaratni bosib olganidan keyin qabul qilgan tarixchi Varmaning ma'lumotiga ko'ra elchi Akbarshohga safaviylarning yerlarini bo'lib olishni ham taklif qilgan va Akbarshoh buni sir saqlagan deydi³¹⁶.

I.Nizamutdinov Abdullaxon yo'llagan xatda Abulfazl malumotlariga tayanib, Buxoro va Hindistonning aloqalari o'tmishda yaxshi bo'lganligini ta'kidlab, tinchlik va yaxshi qo'shnichilikka asoslangan o'zaro munosabatlarni tiklash haqida taklif bergan³¹⁷. Akbarshoh elchi orqali Abdullaxon nomiga yuborgan maktubida do'stlik munosabatlarini o'rnatishga rozi ekanligini bildirdi.

Hind tarixchilaridan biri Ramish Chandira Varma asarida XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni ikki davrga bo'lib tushintiradi:

1) 1556-1588-yillar Abdullaxonning Hindiston hukmdorlariga nisbatan olib borgan siyosati;

³¹⁵ Низамутдинов И. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX-XVIII вв). Ташкент: Узбекистан, 1969. – С. 51

³¹⁶ Низомиддинов И. Ўрта Осиёнинг чет эл шарқи билан муносабатлари. Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1961. – Б. 14.

³¹⁷ Низамутдинов И. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX-XVIII вв). Ташкент: Узбекистан, 1969. – С. 51.

2) 1588-yildan boshlab o'limigacha Hindistonning O'rta Osiyoga nisbatan siyosatini butunlay yoritib berishga harakat qiladi, deb I.Nizamutdinov keltiradi³¹⁸.

1573-yilda Balx va Hirotni, 1574-yilda Shahrisabz, Qarshi va Hisorni egallaydi. Shu paytda Hindiston hukmdori Akbar Malva, Gondvan, Chitor va Gujaratni bosib oldi. 1576-yil Abdullaxon Samarqand va Toshkentni bosib oldi, Akbar esa Bengaliyani egalladi. 1581-yilda Abdullaxon qipchoq xonlari qozoq Sigay (Shigay) va uning o'g'li Tavakkulni avval qurol kuchi bilan, so'ng katta hadya suyurg'ol berish bilan o'ziga qaram qilib oldi³¹⁹.

1577-yilda Abdullaxonning ikkinchi marotaba yuborgan elchisi Abdurahim Hindistonga keladi. Elchi O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasida Eronni bo'lib olishni taklif qiladi. Natijada Akbarshoh o'z elchisi Mirza Fulod boshchiligida Abdullaxon saroyiga javob elchilarini yuboradi. Hind elchisi Eronning musulmon davlati ekanligini eslatib, Akbarshoh rozi emasligini aytishi kerak edi. Shu jumladan elchi zimmasiga ikkinchi vazifa Abdullaxonning Badaxshon davlatiga bo'lgan munosabatini aniqlash va uni qurolli kuch bilan emas diplomatik munosabat orqali hal etish choralarini ko'rishni topshirgan edi³²⁰.

Abdullaxon 1583-1584-yillarda Badaxshonni bosib oldi va Badaxshon hokimi Mirza Sulaymon va nabirasi Shohruh Akbardan yordam so'rab Dehliga boradi. Abdullaxon Mirquraysh boshchiligida elchini Hindistonda Akbarshoh huzuriga jo'natadi va unda Badaxshonning

³¹⁸ Ўша асар. – Б. 13.

³¹⁹ Низомиддинов И. Ўрта Осиёнинг чет эл шарқи билан муносабатлари. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти. 1961. – Б. 13.

³²⁰ Низамутдинов И. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX-XVIII вв). Ташкент: Узбекистан, 1969. – С. 55-56.

bosib olinish sabablarini tushuntiradi³²¹.

Abdullaxon hududini kengaytirishga davom etayotgan bir paytda u bor e'tiborini Qandahorga qaratadi. Lekin bu paytda Akbarning qudrati Abdullaxonning rejalariga imkon bermaydi. Natijada Abdullaxon Akbarning ittifoqiga suyanib, safaviylarning yerlarini bosib olishga harakat qila boshlaydi. Natijada har ikkala davlat o'rtasida diplomatik munosabatlarning kuchayishiga olib keldi.

Har ikkala davlat o'zaro do'stlik munosabatlarini saqlab qolishdan manfaatdor edi. Akbarshoh imperiyasi Abdullaxon uchun Eron bosqinchilariga qarshi kurashda betaraf pozitsiyada turishi ahamiyatli bo'lsa, mo'g'ul imperiyasi uchun o'zbek xonligi bilan do'st bo'lishi Hindistonning hali tobe etilmagan o'lkalarni bosib olishni muvofaqiyatli tamomlashda imperiyaning sharqiy o'lkalarda osoyishtalik hukm surib turishi uchun zarur edi.

Shayboniylar va Safaviylar o'rtasidagi kurashlarda A.Ziyoning fikricha ikki jihat bor edi. Biri safaviylarning shayboniylarga qarshi Xuroson uchun kurashlarida Usmonlilar davlatining shimoli g'arbdan chegaralarga tug'dirayotgan xavfi bo'lsa, ikkinchisi shayboniylar safaviylarga qarshi urushda mazhabdoshlari boburiylar bilan ittifoqqa kirishga uringanlar. Bunday aloqa o'rnatishlar, ayniqsa, Abdullaxon II va Akbarshoh davriga kelib rivoj topganligi ma'lum. Lekin shayboniylarning Eronga nisbatan ittifoqchilikda harakat qilish bo'yicha so'rovlariga boburiylar hech qachon ijobiy javob bermaganlar³²². Chunki bu ikki sulola

³²¹ Ўша асар. – С. 57.

³²² Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 253-254.

orasida ham bir-biriga nisbatan hududiy da'volari ularni bunday ittifoqqa kirishiga yo'l qo'ymagan.

Azamat Ziyoning "Silsilat as-salotin" asaridagi Buxoro va Hindiston munosabatlariga bag'ishlangan maqolasida ushbu manba juda ko'plab asl ma'lumotlarga boy ekanligi ta'kidlanadi. Jumladan, XVI asr oxiridan – XVIII asr boshlarigacha Buxoro-Hindiston hukmdorlari o'zaro almashgan o'n beshdan ortiq hat va nomalar bor bo'lib, bundan tashqari Buxoro xonligidagi ichki vaziyat, xonlikning Eron va Hindiston bilan tashqi aloqalari xususidagi ma'lumotlar orqali Buxoro-Hindiston munosabatlariga yetarlicha baho berish imkonini yaratadi, deb urg'ulaydi³²³.

"Bahr ul-asror", "Tarix-i olamoro-yi Abbosi", "Tarix-i Muqim-xoni", "Silsilat as-salotin" va boshqa manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra Buxoro xonligining dastlabki ashtarxoniylar hukmdorlari Boqimuhammad va Vali Muhammadxonlar – ichki nizolar va tashqi dushmanlarga qarshi harakatlar bilan band bo'lganligi sababli boburiylar bilan bo'lgan tashqi aloqalarni Abdullaxon davridagidek darajada faol olib bora olmaganlar. Azamat Ziy Muhammad Yusuf Munshining ma'lumotlariga tayangan holda shayboniylar hokimiyatdan ketib ilk ashtarxoniylar davrida Hindiston boburiylar bilan uzilib qolgan aloqalar Imomqulixon (1611-1642) davrida tiklanib, bu elchilik Buxoro xoni tomonidan jo'natilganligiga e'tibor qaratadi³²⁴. Shuningdek, boshqa bir asarida ushbu tadqiqotchi Imomqulixon davrida Buxoroning tashqi aloqalarida mu'lim bir ma'noda keng ko'lamdagi va maqsadga muvofiq ravishda harbiy-

³²³ Зияев А. Ценный источник по истории взаимоотношений Бухарского ханства и Индии XVII - начала XVIII века // Общественные науки в Узбекистане, № 3-4. 1992.

³²⁴ Зияев А. Ценный источник по истории взаимоотношений Бухарского ханства и Индии XVII - начала XVIII века // Общественные науки в Узбекистане, № 3-4. 1992.

siyosiy harakat qilinganmaganligi, asosiy qo'shnilar, jumladan, qozoq xonlari, Eron va Hindiston bilan ko'proq o'zaro elchilik aloqalari olib borilganini ta'kidlaydi³²⁵.

1645-yili Buxoro taxtiga Abdulazizxon (1645-1681) o'tiradi. Mazkur davrda Buxoro va Hindiston munosabatlarida taranglashuv kuzatiladi. Taxtdan ayrilgan Nadr Muhammadxon (1642-1645) valiahd o'tiradigan viloyat Balxga qochadi. So'ngra oliy hokimiyatni qaytarib olish uchun Boburiylardan yordam so'raydi. O'z navbatida Shoh Jahon Balxga, guyoki Nadr Muhammadxonga yordam tariqasida qo'shin jo'natadi. Aslida boburiylar lashkari ham o'zaro ichki kurashlardan foydalanib, Balxni o'z tasarrufiga kiritib olmoqchi edi. Shunday qilib, 1646-1647-yillarda Balx va Badaxshon Boburiylar hukmronligi ostiga o'tadi. Bu orada Nadr Muhammadxon Eron Safaviylaridan yordam olib, Balxga yurish qiladi. 1647-yili Balx qaytarib olinadi. Aynan shu voqealardan so'ng Balx Buxoro xonligidan amalda mustaqil hududga aylanib, oliy hokimiyatga Abdulazizxon, Subhonqulixon (1681-1702) va Ubaydullaxon II (1702-1711) lar davrida bo'ysunmaslik siyosatini olib boradi.

Subxonqulixon va Avrangzeb davridagi Buxoro-Hindiston siyosiy munosabatlarini sarhisob qilar ekan, I.Nizamutdinov shuni alohida aytib o'tadiki, har ikki hukmdor ham har biri o'z manfaatlarini ko'zlagan holda ikki davlat o'rtasida tinch-totuv munosabatlar o'rnatishga harakat qilgan. Biroq, bu o'sha-yillarda davlatlarning o'zaro munosabatlarida hech qanday kelishmovchilik va qarama-qarshiliklar yo'qligini anglatmaydi³²⁶.

³²⁵ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 262.

³²⁶ Низамутдинов И. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX-XVIII вв.). Ташкент: Узбекистан, 1969. – С. 105.

Umuman olganda Buxoro va Eron o'rtasidagi munosabatlar ilk Ashtarxoniylardan boshlab, Safaviylar bilan munosabatlar ziddiyatli bo'lgan. Zero, Safaviylar Shayboniy Abdullaxon II vafotidan so'ng Xurosonga to'la egalik qila bordilar va keyinchalik Balx, so'ngra Buxoroni ham tobe etishga harakat qilganlar. Boqimuhamad va Vali Muhammadxonlar davrida, ya'ni 1602, 1605, 1606, 1607-yillarda bir necha bor bunga urinib, oqibatda har safar mag'lub bo'lganliklari ma'lum³²⁷. Lekin tadqiqotlarda ko'rsatilishicha Buxorodagi o'zaro ichki kurashlardan o'z maqsadlarida foydalanganlar³²⁸. Xususan 1610-yili Vali Muhamadxonga Buxoro taxtiga chiqish yo'lidagi harakatlar, shuningdek, Nadr Muhamadxonga Balxni egallash uchun ko'rsatilgan yordamlar shundan iborat edi. XVII asr davomida Ashtarxoniylar hukmdorlarning Eron Safaviylari bilan bo'lgan munosabatlarida asosiy e'tibor Xurosonni qaytarib olish uchun emas, balki Balxni himoya qilish va markaziy hokimiyatni kuchaytirishdan iborat bo'lgan.

XVIII asrning birinchi yarmida (Nodirshoh yurishlarigacha) xuddi avvalgidek, Buxoro xonligi bilan Mo'g'ullar imperiyasi (Boburiylar davlati – *J.B.*) o'rtasidagi siyosiy aloqalar hamon davom etgan. To'g'ri, o'sha davrdagi buxoro-milliy munosabatlarida, masalan, Eronga munosabat va hokazolar kabi muhim masalalar muhokamaga qo'yilmagan; o'zaro elchilik almashib, har ikki tomonning hukmdorlari faqat qo'shni hukmdorga taxtga o'tirishlari haqida xabar berishda ifodalangan qadimiy an'analarni qo'llab-quvvatlaganlar. Ammo bunday elchixonalar

³²⁷ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 275.

³²⁸ Ўша асар. – Б. 275-276.

almashinuvi tomonlar o'rtasidagi do'stona aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qildi³²⁹.

Buxoro xonligining ashtarxoniylar davrida ichki kelishmovchiliklari va Buxoro-Balxning butun asr davomida o'zaro ziddiyati, ularga boburiylar va safaviylarga qarshi faol tashqi siyosat olib borishga imkon bermagan. Ular bilan munosabatlarda o'zaro barqarorlikni ta'minlashga intilganlar. Lekin bu holat 1736-yil Eron taxtiga Nodirshohning chiqishi bilan o'zgaradi. 1740-yil katta qo'shin bilan Buxoroga yurish qilgan Nodirshoh amalda ashtarxoniylar sulolasi taqdirini hal qiladi. Bu o'rinda Nodirshoh bilan munosabatlarda mang'it amirlari Muhammad Hakimbiy va uning o'g'li Rahimbiylar asosiy o'rin egallaydilar.

XVI asrda Buxoro ko'plab mamlakatlar bilan uzviy savdo va diplomatik munosabatlar o'rnatgan edi. 1557-yilda Buxorodan Moskvaga elchilar yuborilib, Rossiya bilan erkin savdo munosabatlari o'rnatilishiga ruxsat so'raladi. 1558-yilda Buxoroga Rossiya podshosi Ivan IV ning elchisi sifatida ingliz Antoniy Jenkinson keladi. Inglizlarning Rossiya orqali Hindistonga kirib borish yo'lini qidirib topish ishiga aynan A.Jenkinson asos solgan edi. Demak bu elchilikdan ko'zlangan asosiy maqsad Hindistonga boradigan savdo yo'lini topish edi. U O'rta Osiyoga savdoni yo'lga qo'yish niqobi ostida Buxoroga borishga ruxsat olgan Moskva Rusining Buxoroga yuborgan birinchi rasmiy elchisi edi.

1558-1559-yillarda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan ingliz savdogari va diplomati A.Jenkinsonning safar kundaliklarida o'rganilayotgan davr tarixiga, tashqi aloqalar rivojiga oid ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni topish

³²⁹ Низамутдинов И. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX-XVIII вв). Ташкент: Узбекистан, 1969. – С. 108.

mumkin³³⁰. Jenkinsonning hisobotlari Morgan va Gotlar tomonidan ingliz tilida to‘liq nashrdan chiqazilgan. Aynan ingliz tilidagi matndan Yu.V. Gote rus tiliga tarjimasini amalga oshirib, chop etgan³³¹.

XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Qozon va Astraxan honliklari Rossiya davlatiga qo‘shilib, bu davlatning chegaralari O‘rta Osiyoga yaqinlashib qolganidan keyin, O‘rta Osiyo honliklari Buxoro, Balx, Xiva honliklari bilan Rossiya o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari mustahkamlanib, doimiy aloqalar rivojlanadi.

1583-yildan 1600-yilgacha Moskvaga, Buxorodan besh marotaba elchilar yuboriladi. Ularning asosiy maqsadi diplomatik munosabatlar o‘rnatish edi. Ivan IV tomonidan (1574-yilda chiqarilgan yorliqda) rus savdogarlariga buxoroliklar bilan bojsiz savdo-sotiq ishlari olib borishga ruxsat berilgan edi. Buxoroda qimmatbaho qurol-yarog‘ ishlab chiqarish katta o‘rin tutgan. Sovut, qalqon, oltin va kumushdan o‘yma qilib o‘rtasiga qimmatbaho toshdan “ko‘z” yasalgan dubulg‘a, shuningdek, Buxoro kamonlari (ba‘zan bularga ham tilla suvi berilib bezatilardi), bo‘yalgan va oltin suvi berilgan po‘lat va mis tulunboslar “iyakdan tikilgan va oltin qadalgan” sovutlar ishlab chiqarish bilan dong taratgan edi³³².

H.Ziyayevning³³³ XVI va XIX asrlarda O‘rta Osiyo va Sibir tarixiga oid monografiyasida Buxoro xonligi va Sibir o‘rtasidagi aloqalar xususida ma’lumot beradi. Ushbu monografiya Moskva, Leningrad, Tobolsk, Tyumen, Omsk, Tomsk, Irbit, Perm, Orenburg, Gorkiy, Qozon, Toshkent

³³⁰ О путешествии А.Дженкинсона в Среднюю Азию. Каранг: В.В. Бартольд. История изучения Востока в Европе и в России // Соч., т. IX. М., 1977. - С. 306, 317, 368, 369; Ўша муаллиф: Сведения об Аральском море // Соч. т. III. М., 1965. - С. 80-90; и др.

³³¹ Путешествие Дженкинсона в Хиву и Бухару. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. / Перевод с английского Ю.В.Готье. - Л., 1937. - С. 167-192.

³³² Эрматов М. Ўрта Осиё Россия ва Ҳиндистон халқлари ўртасидаги дўстона алоқалар тарихи. – Тошкент: ЎзССР Давлат нашриёти, 1959. – Б. 27.

³³³ Зияев Х. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI – XIX вв. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 168.

va Olmaota arxiv materiallari asosida yaratilgan bo'lib, O'rta Osiyo va Sibir o'rtasidagi savdo aloqalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi o'rganilgan. Shuningdek, monografiyada muallif Rossiya va Markaziy Osiyo xalqlarining Sibir orqali iqtisodiy hamkorligi va yaqinlashuvining tarixiy bosqichlarini, savdo aloqalarining ijtimoiy-iqtisodiy shartlarining asoslarini ko'rsatib bergan³³⁴.

X.Ziyayev o'z tadqiqotida xulosa qilib, XVII asr davomida O'rta Osiyo va Sibir o'rtasidagi savdo aloqalari yanada mustahkamlanib, savdo Tobolsk, Tara, Tyumen, Tomsk va Yamishevo ko'li orqali amalga oshirildi va bu yerdan O'rta Osiyo tovarlari Sibirning keng hududlaridagi boshqa joylarga tarqatilgan, shuningdek, qisman Rossiyaning Yevropa qismiga eksport qilinganligi haqida ma'lumot beradi. O'rta Osiyo savdogarlari ba'zan Yeniseysk, Irkutsk va Krasnoyarsk va mintaqaning boshqa burchaklariga qadar kirib kelishgan. Tovarlarini olib kirish va olib chiqishda yetakchi o'rinni o'chib kelgan buxoriylar, ikkinchi o'rinni o'tovli buxoriylar, uchinchi o'rinni rus va tatar savdogarlari egalladi, deya ta'kidlaydi³³⁵.

H.Ziyayevning boshqa bir tadqiqotida hokimiyatga Ashtarxoniylar (Joniyarlar) sulolasi kelganidan so'ng ham muayyan ishlar amalga oshirilgan. Bu sohada Buxoro xonlarida ayniqsa Imomqulixon faoliyati xarakterlidir, Imomqulixon savdo-hunarmandchilik ahlining Astraxandan Qozongacha va bu yerdan o'tib, Sibirgacha bo'lgan ulkan territoriya bilan aloqasini kuchaytirishga alohida e'tibor berganligini ta'kidlaydi. Chunonchi, Imomqulixon hukmronlik-yillari vaqtida Buxoro xonligidan rus davlatiga to'qqiz marotaba elchi yuborilgan. Elchilarning yettitasi

³³⁴ Ўша асар. – С.168.

³³⁵ Зияев Х. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI – XIX вв. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 73.

bevosita Astraxan, ikkitasi esa Sibir orqali jo‘natilgan³³⁶. Shuningdek, Abdulazizxon hukmronlik-yillaridan 1674-yili Hoji Farruxni Sibirga elchi qilib yuborilgan bo‘lib, u 14 hamrohi bilan Tobolskka va bu yerdan Moskvaga boradi³³⁷.

G.Sultonovanning³³⁸ tadqiqotlarida Buxoro xonligi va Mo‘g‘ulistondagi Yorkand xonliklari aloqalariga asosi e‘tibor qaratilgan.

Tarixiy manbalardagi ma‘lumotlarni qiyosiy tahlil etgan holda olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish asnosida shu ma‘lum bo‘ladiki, Buxoro xonligi va Safaviylar o‘rtasidagi XVI asr boshlaridan to Ashtarxoniylar sulolasi hokimiyatdan ketishigacha bo‘lgan davrda o‘zaro munosabatlar tarixi islom dinining ikki mazhabiga e‘tiqod qiluvchilar o‘rtasidagi mafkuraviy kurashgina bo‘lib qolmasdan, balki Safaviylarning Xuroson ustidan nazorat o‘rnatishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida Buxoro xonligiga g‘arbga, ya‘ni O‘rta yer dengiz sohillariga olib boruvchi savdo yo‘llarini, balki Hindistonga boradigan karvon yo‘llaridan ham ayrilishga olib keldi. Aynan xalqaro karvon yo‘llari ustidan nazoratning yo‘qotilishi butun Markaziy Osiyo mintaqasining dunyoviy taraqqiyotdan ortda qolishiga olib kelgan, deb xulosa qilish mumkin.

³³⁶Зияев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI – XIX асрлар). – Тошкент: 1962. – Б. 47.

³³⁷Ўша асар. – Б. 66.

³³⁸Султонова Г.Н. XVI аср иккинчи ярмида Бухоро хонлигининг Қозоқ ва Ёркенд хонликлари билан алоқалари. Тарих фанлари номзодини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент: 2005. – Б. 158.

III-BOB. BUXORO XONLIGIDA IJTIMOIIY – IQTISODIY VA MADANIY HAYOT TARIXSHUNOSLIGI

III.1. Buxoro xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ilmiy tadqiqotlar

Buxoro xonligida yashayotgan xalqlarning hayoti va turmushi, XVI – XVIII asr o‘rtalari, ya’ni, hokimiyat tepasiga mang‘itlar kelishiga qadar bo‘lgan mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ularning mazmun mohiyati shuningdek, ushbu davrdagi sulolalar Shayboniylar va Ashtarxoniylarning olib borgan siyosati masalasi turli talqiqotchi olimlar tomonidan nisbatan bo‘lsa-da, o‘rganilgan muammolar qatoriga kiradi. Har ikkala sulolalar ya’ni shayboniy va ashtarxoniylar davrida ma’lum bir vaqtlar oralig‘i bo‘lganki, xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bir qadar yuksalgan, ba’zida esa ortga ketgan. Shayboniy hukmdorlardan Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II davrida mamlakat har tomonlama yuksaladi. Ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham madaniy jihatdan Buxoro xonligi mintaqadagi yetakchi davlatlar qatorida turgan. Ashtarxoniy hukmdorlardan Imomqulixon va Abdulazizxon davrlarida shu darajaga yetadi. Bu mavzuga oid ilmiy izlanishlar xususida to‘xtalar ekanmiz, avvalo, yetuk olim R.G.Mukminova³³⁹ning izlanishlarini ta’kidlab o‘tib lozim.

R.G.Mukminova yozma manbalar, ulardagi tarixiy ma’lumotlarni to‘plash, tasniflash va tahlil qilish asosida Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritishga harakat qildi³⁴⁰. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu muallif sovet tarixshunosligida ham mazkur davrning ijtimoiy-

339 Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам Вакф-наме. – Ташкент: Наука, 1966. – С. 351.

340 Мукминова Р.Г. Очерки истории ремесла в Самарканде и Бухаре XVI в. – Ташкент: 1976. – С. 103.

iqtisodiy munosabatlarga murojaat qilgan edi³⁴¹. R.G.Mukminova mavzu yuzasidan ilmiy izlanishlarida asosiy e'tiborni Buxoro xonligining qishloq xo'jalik hayoti, agrar munosabatlari, dehqonchilik, chorvachilik, yerga egalik va hunarmandchilik masalalariga bag'ishladi.

Shayboniylarning Temuriylar davlati o'rnida hokimiyat tepasiga kelishi va sulola vakillaridan Shayboniyxon, Ubaydulloxon va Abdulloxon II lar tomonidan markazlashgan davlat barpo etish bilan bog'liq harakatlar bilan bir qatorda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga intilish kuchayganligi, shuningdek, sug'orish inshootlarining qurilishiga katta e'tibor berilganligini qayd etish lozim.

Tadqiqotlarda aynan Shayboniyxon birinchi bo'lib 1502-yilda markaz Samarqand bilan boshqa tumanlarni o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash uchun Zarafshon daryosi ustida bir vaqtni o'zida daryo suvini ikkiga: Qoradaryo va Oqdaryoga bo'lib yuboradigan suv ayirg'ich va ko'priknı qurdirib ishga tushirganligi, aytiladi³⁴². Bu ko'priknı hozirgacha yetib kelgan, hozirdagi Temiryo'l yo'l ko'prigidan nariroqda joylashgan.

Shayboniyxonning qo'lga kiritgan yerlarini boshqarish tartibiga kelsak, u sof o'rta asr ishlab chiqarishiga asoslangan uslubda bo'lib, qo'lga kiritilgan viloyat yoki shaharlarni alohida xizmat ko'rsatgan qonqarindoshlari, qo'shin boshliqlariga hissa-ulus qilib bo'lib bergan. Agarda ular biror gunoh ish qilsa-lar, ana shundan mahrum qilinar, bu esa juda ko'p nizolarga olib kelar edi³⁴³. Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolalarini taqqoslaydigan bo'lsak, Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy

³⁴¹ Мукминова Р.Г. Ремесло и торговля // История Самарканда. – Ташкент: 1969. Т. I. – С. 195-212; Ўша муаллиф. К истории ремесленных мастерских кархана. Средневековый Восток. История, культура, источниковедение. – Москва: 1980. – С. 196.

³⁴² Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот. Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 41.; Семёнов А.А. К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани хана // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Выпуск I. – Сталинабад: Изд-во АН ТаджССР, 1954. – Б. 57.

³⁴³ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот. Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 50.

hayot nisbatan Shayboniy hukmdorlar davrida biroz jonlanganligiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II kabi hukmdorlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirishgan.

Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (Sharafnomayi shohiy) asari aynan Shayboniylar davrida Buxoro xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Bu asar 1940-50-yillarda sharqshunos olim S.Mirzayev tomonidan ilk bor tarjima qilindi³⁴⁴. Akademik B.Ahmedov esa bu asarni qayta to‘ldirib birinchi va ikkinchi jildlarini qaytadan nashr qildirgan³⁴⁵. Yana bir tarixchi professor, I.Umnyakov ham “Abdullanoma” bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borib, 1930-yilda bu haqida risola nashr etgan³⁴⁶. Ushbu tarixiy manba Buxoro xonligining XVI asrdagi tarixidan tashqari, O‘rta Osiyoning mug‘ullar tomonidan bosib olinishi, temuriylar davri, Dashti Qipchoqdagi Abulxayrxon davlati haqida ham hikoya qiladi. Siyosiy tarixdan tashqari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Shayboniy hukmdor Ubaydullaxon boshqaruvi davrida poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko‘chiriladi hamda Buxoroda ulkan qurilish va yurtni obod qilish uchun ishlar amalga oshiriladi. Hofiz Tanish Buxoriy aynan Ubaydullaxon boshqaruvi davriga quyidagicha ta’rif bergan edi: Uning davlati va xalofati zamonida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati gullab-yashnadi³⁴⁷. Shayboniy hukmdorlar davrida iqtisodiy hayotda sun’iy sug‘orish bilan bog‘liq

³⁴⁴ Хофиз Таниш ибн Мирмухаммад Бухорий. Абдулланом. 1-жилд, / С.Мирзаев таржимаси. Т., 1966. –Б. 416.

³⁴⁵ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом («Шарафномаи шоҳий»). Биринчи ва иккинчи китоб / Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б.Ахмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 416.

³⁴⁶ Умняков И. «Абдулла-намэ» Хафизы Таныша и его последователи». Записки Коллегии Востокведов при Азиатском музее Академии Наук СССР. Т. V. – Л.:1930.

³⁴⁷ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом («Шарафномаи шоҳий»). Биринчи ва иккинчи китоб / Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б. Ахмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 61.

muammolarni hal etish ishiga jiddiy e'tibor bilan qaralgan. Bu sulola vakillari Sangzor, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh va Murg'ob daryolari imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rganlar. Shayboniyxon avlodlari keyinchalik Qashqadaryoning irmoqlaridan Kesh viloyati yerlarini sug'orish uchun 10 dan ortiq kanallar qazitganlar. Sun'iy sug'orish ishlari, ayniqsa, Abdullaxon II davrida keng rivojlangan. Masalan, 1556-1585-yillar oralig'ida Zarafshon daryosida Karmana, Mehtar Qosim, Chahorminor va Jondor suv ayirg'ichlari; Nurota tog'ida Oqchob, Murg'ob vohasida Hovuzixon suv omborlari qurilgan. Bundan tashqari, Sangzor daryosidan Jizzax vohasiga Tuyatortar kanali, Somonjuq dashtini obodonlashtirishga xizmat qilgan Xoja Ka'ab kanali, Afshona kanali, Amudaryodan Chorjo'yga, Murg'obdan Marvga hamda Vaxshdan uning atrof vohalariga suv chiqarishga imkon beruvchi kanallar qazilgan. Bundan tashqari, Abdullaxon II karvon yo'llarini qayta jonlantirish, sardobalar, karvonsaroylar qurish va ta'mirlashga ahamiyat berdi.

1577-yilda Buxoroda yirik usti berk bozor - Abdullaxon timi qurildi. Nurota tumanidagi Oqchob yaqinida Beklarsoy darasida joylashgan qadimgi to'g'on qoldiqlari yonida ulkan band (to'g'on) qurdirdi. Abdullaxon bandi uning ravoqlarini to'g'on tepasida turib ochishi yoki berkitishi mumkin edi. Maqsad esa o'sha atrofdagi bo'z yerlarni sug'orib, dehqonchilikni rivojlantirish va yurtni obod qilish edi. Bu tadbirlar, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlagan. Shayboniylar davrida ishlab chiqarish tarmoqlari bo'lgan tikuvchilik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, qog'oz va qurilish ashyolarini ishlab chiqarish rivojlangan.

Shayboniylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot haqidagi yana bir ilmiy tadqiqotni Z.Muqimov³⁴⁸ olib borgan. O‘zining risolasida muallif Shayboniylar davlatining tashkil topishi, uning temuriylar davlati bilan aloqalari, soliq huquqi, yer-mulk va mulk huquqi haqida tahlillarini bayon etgan. Asarda Shayboniixonning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni qayta jonlantirishdagi sa’y-harakatlariga yuqori baho beriladi. Masalan, o‘ttiz-yil ilgari egalari tashlab ketgan “o‘lik yerlar”, ya’ni qarovsiz qolgan yerlarni qayta jonlashtirish, yurtni obod qilish uchun amaliy choralar ko‘rish uchun Kengash chaqirtirilib muhim qarorlar qabul qilingan. Bu yerlarni qayta o‘zlashtirgan fuqarolarga davlat xazinasiga to‘lanadigan soliqlardan imtiyozlar berilgan³⁴⁹.

Yerga egalik qilish borasida huquqiy tomondan hech qanday nizo kelib chiqmasligi uchun Shayboniixon qozilarni ham Kengashga jalb etgan. Davr tarixchisi Ro‘zbexon Isfaxoniy bu masalada quyidagi fikrlarni bildirgan: Barcha shariat ishlarining asosida shartnoma yotadi, agar biror shartnoma bo‘yicha biror ishni bajarish lozim bo‘lsa, uni ijro etish muddati o‘tishi bilan o‘z kuchini yo‘qotmaydi³⁵⁰.

Asarda yoritilgan yana bir muhim masala bu - Shayboniixon tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti. 1507-1508-yillarda o‘tkazilgan pul islohotining asosiy maqsadi - savdo-sotiq va iqtisodiy hayotni tartibga solish edi. Kumush va mis chaqa tangalarni qaytadan zarb qildirib, ularning qiymatini oshirdi. Kumush tanganing og‘irligi 4,8 grammdan 5,2 grammga oshirildi. Islohotdan so‘ng bozorga davlat metalidan rasmiy turg‘un aniq kursli tanga pul joriy etildi. O‘tkazilgan bu pul islohoti butun

³⁴⁸ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот. Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 156.

³⁴⁹ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот. Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 71.

³⁵⁰ Ўша асар. – Б. 72.

mamlakat bo‘ylab uning aylanishi va savdo-sotiqning tartibga kelishiga olib keldi³⁵¹.

Umuman Buxoro xonligining ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. B.Ahmedov,³⁵² M.A.Abduraimov³⁵³, R.Rahmonaliyev³⁵⁴, I.Saydahmedov³⁵⁵, K.Shoniyofov³⁵⁶ hamda Azamat Ziyo³⁵⁷ kabi olim va tarixchilar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari Buxoro xonligi tarixiga oid juda ham ko‘plab manbalar tarjima qilingan va tahlil qilingan³⁵⁸.

XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida Jo‘ybor shayxlarining o‘rni ham yuqori bo‘lgan. Jo‘ybor xojalari xususan ularning Muhammad Islom, Xoja Sa‘d, Tojiddin Xusan, xoja Abdurahim yirik namoyondalari va hayoti va faoliyatiga V.L.Vyatkin va P.P.Ivanovlar o‘zlarining maxsus asarlarini bag‘ishlaganlar³⁵⁹.

Jo‘ybor shayxlarining umumiy yer-mulki va maydoni miqdori haqidagi aniq ma’lumotlar deyarli biror bir manbada keltirilmagan. Sababi ular tomonidan sotib olingan yoki hukmdorlar tomonidan xadya qilingan

³⁵¹ Ўша асар. – Б. 74.

³⁵² Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. –Б. 431.

³⁵³ Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве XVI первой половины XIX веках Т. 1. – Тошкент: Фан. 1966. –С. 369.

³⁵⁴ Рахмоналиев Р. Империя тюрков. Тюркские народы в мировой истории с X в до н.э. по XX в н.э. / Монография. Науч. Ред. М. Цовма. – Москва: Прогресс, 2002. –С. 912.

³⁵⁵ Сайдахмедов И. Ценный источник по аграрным отношениям в Бухаре XV-XVI века. ОНУ. 1984. № 6.

³⁵⁶ Шониёзов К.Ш.К этнической истории Узбекского народа. (Историко этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Ташкент: Фан, 1974.

³⁵⁷ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 368.

³⁵⁸ Зайниддин Маҳмуд Восифий. «Бадосъ ул вақое». (Нодир воқеалар) / Форсийдан Наим Норкулов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. –Б. 214.; Камолиддин Биноий «Шайбонийнома». Материалы ..., -Б. 91-119.; Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Таърихи Рашидий / Введение, перевод с перс. А.Уринбаева., Р.П.Джалиловой., Л.П.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996. – С.727 .; Мирхонд Муҳаммад ибн Ховандшоҳ «Равзат ус сафо» / Форс тилидан ўзбек тилига А.Ҳазратов таржимаси., 1-қисм. - «Темурийлар тарихига оид материаллар» - Б.340.; II қисм —«Шайбонийлар даврига оид материаллар», -Б. 283.; VII қисм —Мўғулларнинг Ўрта Осиёни истило қилган даврига оид матери-аллар, - Б.302. (ЎзФА Археология институти кутубхонаси фонди); Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. (Достон) / Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Шодиев Э. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б.336.; Фазлаллах ибн Рузбехон Исфохони. Мехман-наме-йи Бухара. (Записки Бухарского гостя) / Перевод, предисловие и примечание Р П Джалиловой. Под.рел А.К.Арендса. – Москва: Наука, 1976. – С. 195.

³⁵⁹ Аҳмедов Б. Бухоро хонлигининг XVI – XVII асрлардаги ижтимоий-сиёсий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тугган мавқеи ҳақида / Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 24.

yerlar haqida manbalarda har doim ham ma'lumotlar keltirilmaydi. Shunday hukmdorlar bo'lganki Jo'ybor shayxlariga bo'lgan hurmati evaziga ularga juda kata miqdorda yer-suv berilgan bo'lsa, yana shunday hukmdorlar bo'lganki, ularni bu imtiyozlardan mahrum qilishgan. Ashtarxoniy hukmdor Ubaydullaxon II shayxlarga berilgan imtiyozlarning ko'pini bekor qiladi va o'ziga dushman orttirib oladi. Shayboniy hukmdor Abdullaxon II esa ularga juda kata imtiyozlar berib, yer-suv va maydonlar hadya qiladi.

Jo'ybor hojalari haqidagi ma'lumotlar juda ko'plab manbalarda uchraydi. Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma", Abulfazl Allomiy "Akbarнома", Muhammad Amin Buxoriy "Ubaydullanoma", Muhammad Aminning "Muhit at-tavorix", Muhammad Yoqub Doniyolbiyning "Gulshan ul-muluk", Muhammad Karmaganiy va Niyozqulibek Nasafiylarning "Tuhfat ul-xoniy", Mir Husayn Saraxsiyning "Sa'diya", Abulabbos Muhammad Tolibning "Matlab ut-tolibin" asarlari shular qatoriga kiradi³⁶⁰.

Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" (Sharafnomayi shohiy) asarining rus tilidagi nashri sharqshuns olimi M.Saloxetdinova tomonidan tarjima qilingan va 1983yilda Moskvada ilk nashr ishlari amalga oshirilgan. I.Umnyakovning ta'kidlashicha bu asar taxminan 1917-yilda L.A.Zimin tomonidan rus tiliga tarjima qilina boshlangan va 1918-yilda Toshkentda nashr etilgan. V.Bartold 1924-yil Bokuda bo'lganida L.Zimin tarjimasi va bu asar haqidagi boshqa ma'lumotlarni to'plab uni nashr qilish zarurligini ta'kidlagan³⁶¹.

³⁶⁰ Ахмедов Б. Бухоро хонлигининг XVI – XVII асрлардаги ижтимоий-сиёсий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тутган мавқеи ҳақида / Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 24.

³⁶¹ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом («Шарафномаи шохий»). Биринчи китоб / Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б. Ахмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 3.

Yevropalik mashhur tarixchi olim A.Vamberi o‘zining “O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat” asarida ham Buxoro xonligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan. Asarda Buxoro xonligining etnik tarkibi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Xonlikning aholisi 2,5 million. Bundan tashqari asarda xonlikdagi lavozimlarga ham ta’riflar berib o‘tilgan³⁶².

Ashtarxoniylar davriga oid yana bir muhim manba bu - Muhammad Yusuf Munshining “Tarixi Muqimxoniy”³⁶³ asaridir. Asarning katta qismi A.A.Semyonov tomonidan tarjima qilingan. Bu asar XIX asrda Rossiya va Yevropa tarixchilari uchun Buxoro xonligi tarixini o‘rganishdagi asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Asar ashtarxoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan Balx hokimi Muqimxon tashabbusi bilan yozilgan. Asarda asosan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ma’lumotlar keltiriladi. Biroq

XIX asrning birinchi yarmida N.Xanikov³⁶⁴ “Buxoro xonligi tavsifi” nomli asarini nashrdan chiqardi. N.Xanikov mashhur sharqshunos olim, sharq tillarini mukammal bilgan. Perovskiy ekspeditsiyasi tarkibida 1839-yil Xivaga sayohat qilgan. 1841-yilda esa Buxoroga kelgan. Shu tariqa o‘zining asarini yozishga kirishadi.

Xonlikdagi ijtimoiy va iqtisodiy hayot haqida to‘xtalar ekan, bu yerda asosan dehqonchilik, savdogarlik va hunarmandchilik taraqqiy etgan. Manufaktura umuman mavjud emas. Asarda yana Buxoro xonligining etnik tarkibi, tanga pullari va ularning miqdori, hunarmandchilik turlari, soliqlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar beriladi³⁶⁵.

³⁶² Вамбери А. Ўрта Осиё бўйлаб саёҳат. – Москва: 2003. – Б. 170.

³⁶³ Муҳаммад Юсуф Мунший. Тарихи Муқимхоний. Тошкент: 1956. – Б. 302.

³⁶⁴ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб.: 1843. – С. 148.

³⁶⁵ Ўша асар. – С. 110-179.

Ashtarxoniylar davrida davlat tizimi va boshqaruvi o'z tuzilishi, mohiyati jihatidan shayboniylar davridagidan deyarli farq qilmas edi. Davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir masalalar rasman oliy hokimiyat boshlig'i - Xon ixtiyori bilan hal qilinardi. Markaziy va mahalliy hokimiyat boshqaruvida ham shayboniylar davrida amalda bo'lgan lavozimlar saqlanib qolgan. Shunday bo'lsa-da, ayrim o'zgarishlar ham amalga oshirilgan. Chunonchi, shayboniylar davrida devonbegi xondan keyingi shaxs bo'lgan bo'lsa, endi otaliq lavozimidagi shaxs bunday martabaga ega bo'lgan. Shuningdek, ashtarxoniylar davrida saroy qutvoli davlat lavozimi joriy etilib, u davlat mablag'i hisobiga amalga oshiriladigan qurilish, suv inshootlari barpo etish va obodonchilik ishlarini boshqargan.

Ashtarxoniylar hukmdori Nodir Muhammad topshirig'i bilan yozilgan Mahmud ibn Vali muallifligidagi "Bahr ul-asror"³⁶⁶ asari Buxoro xonligi tarixiga oid noyob manbalardan biri hisoblanadi. Asarda xonlikning geografik, tarixiy-etnografik va iqtisodiy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Muallif Buxoro shahriga ta'rif berar ekan, uning joylashuvi, aholisi, ilm-fan va olimlari, asosiy mashg'ulotlari va asosiy dehqonchlik ekinlari, meva va sabzavotlari haqida ham to'xtalgan. Jumladan: uzum va qovun eng shirin mevalardan bo'lib, ularning tengi dunyoda yo'qdir. Buxoro 10 ta tumandan iboratdir³⁶⁷. Bundan tashqari muallif xonlikdagi boshqa shaharlarga ham shu tartibda ta'rif berib o'tgan.

Ashtarxoniylar davrida yerga egalik qilishning, ilgari asrlarda amalda bo'lganidek mulki sultoniylar, xususiy mulk hamda vaqf yerlari

³⁶⁶ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (Бахр ал-асрар). – Ташкент:Фан, 1977. – С. 184.

³⁶⁷ Ўша асар. – С. 22-23.

shakllari mavjud edi. Mulki sultoniyl davlat yerlari hisoblanib, undan keladigan daromad xon xazinasiga kelib tushardi. Davlat yerlaridan o'sha joylarda yashagan dehqonlar foydalangan, ular yerni ishlatib, olingan hosildan xiroj solig'i to'laganlar. Xon davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din ulamolari va sayyidlarga suyurg'ol shaklida, harbiy qism boshliqlari va saroy amaldorlariga tanho shaklida in'om qilardi. Suyurg'ol qilingan katta yer egalari xon xazinasiga soliq to'lamas edi. Tanho shaklida in'om qilingan yerlar tanhodorning xususiy mulki bo'lmagan. Bu o'rinda tanhodor o'sha yerlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq yig'ib olish huquqiga ega bo'lgan. Xon ayrim shaxslarga hukmdorga ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun ham yer-mulklar in'om etardi. Bunday mulklar soliqlardan ozod qilinardi va shu boisdan ular "mulki hurri xolis" deb atalardi.

P.Ivanov³⁶⁸ XVI-XIX asrlarda O'rta Osiyoning tarixiga bag'ishlangan asarini yozgan. Muallifning fikricha mitaqaning XVI-XIX asrlardagi yaxlit tarixi ungacha mukammal o'rganilgan emas. U o'z asarini aynan XVI asrdan boshlashiga sabab qilib dunyoda Buyuk geografik kashfiyotlar boshlanganligi, shu davrdan boshlab dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar bo'lganligi, O'rta Osiyo davlatlarining esa bu jarayondan chetda qolganligi bilan izohlaydi³⁶⁹.

P.Ivanov o'zi foydalangan manbalarni asriga qarab tahlil qiladi. Ashtarxoniylar davri, ya'ni XVII-XVIII asrga oid manbalarga: Tarixi Muqimxoniy, Muhit ut-tavorix, Shajarai turk, Ubaydullanoma, Tarixi Rahimxoniy va Firdavs ul-iqbol kabi asarlarni kiritgan. Bundan tashqari rus tadqiqotchilari, xorijiy tadqiqotchilar, elchilik va savdo hujjatlari,

³⁶⁸ Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI в. – середина XIX в.) – Москва: 1958. –С. 251.

³⁶⁹ Ўша асар. – С. 6.

rasmiy hujjatlardan ham foydalangan. Umuman olganda P.Ivanovning asari o‘zi ta’kidlaganidek O‘rta Osiyoning XVI-XIX asrga oid tarixi bayon etilgan mukammal asarlar qatoriga kiradi.

P.Ivanov Buxoro xonligidagi yer-suv munosabatlari haqida yozib, quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Buxoro xonligida ham boshqa O‘rta Osiyo xonliklaridagi yer shakli saqlanib qolgan. Ular 3 qismga bo‘linadi. Davlat yerlari (mulki podshoh), xususiy yerlar (mulk) va vaqf yerlari. Yerlarning bu tarzda taqsimlanishi XVI asrdayoq shakllangan va ko‘p vaqt davomida o‘zgarmasdan qolgan. Yerlarning miqdoriga to‘xtaladigan bo‘lsak, eng ko‘p yerlar hukmdorga tegishli bo‘lgan. Undan keyingi o‘rinda esa vaqf yerlari turgan. Aholidan olinadigan soliqning asosiy turi “xiroj” bo‘lib, u mahsulot yoki pul ko‘rinishida yig‘ilgan.

P.Ivanovning yuqorida keltirgan ma’lumotlari qisman to‘g‘ri bo‘lsa-da, undagi ba’zi ma’lumotlarga qo‘shilmaslik mumkin. Misol uchun yerning 3 turga bo‘linishi xususida. Bilamizki o‘zbek xonliklarida alohida xizmatlari uchun yer-mulklar taqdim etgan. Suyurg‘ol va tanho kabi yerlar shu tariqa shakllangan. Ularning miqdori ham ancha katta bo‘lgan.

Xorijiy davlatlarda esa Buxoro xonligi tarixiga qiziqish asosan XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida boshlangan. Ayrim tarixchi olimlarning fikriga ko‘ra rossiyalik va ingliz tarixchi olimlarining xonlikni o‘rganishdagi asosiy maqsadi mustamlakachilik g‘oyalari bo‘lishi mumkin. Biroq hozir kunda ham Buxoro xonligi tarixi bilan qiziqish butun dunyoda mavjud va ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hali o‘rganilmagan va tahlil qilinmagan manbalar va rasmiy hujjatlar talaygina. Xorij tarixshunosligida Buxoro xonligi tarixi Peter B.Golden³⁷⁰,

³⁷⁰ Central Asia in world history. / By Peter B. Golden. The New Oxford World History Series. Oxford: Oxford University Press, 2011. – P.115.

B.V.Norik³⁷¹, R.D.Makchesney³⁷², Ye.A.Davidovich³⁷³, L.Karoli³⁷⁴, D.Devis³⁷⁵ kabi tarixchi va sharqshunoslar tomonidan o‘rganilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XVI asr boshlaridan to-XVIII asr o‘rtalarigacha Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid tadqiqot va ilmiy izlanishlar juda ko‘plab olib borilgan. Bu borada shayboniy va ashtarxoniylar davridagi manbalarning o‘rni beqiyosdir. Mustaqillikning ilk-yillaridanoq O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridagi tarixchi olimlar bu borada ulkan ishlarni amalga oshirishdi. Bugungi kunda ham bu mavzuga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

III.2. Xonlik ilm-fan taraqqiyotining ilmiy izlanishlarda yoritilishi

Shayboniy va Ashtarxoniylar sulolalari davrida Buxoro xonligida ilm-fan taraqqiyoti boshqa sohalarga nisbatan yuqori darajada bo‘ldi. Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Ko‘chkunchixon, Abdulazizxon va Subhonqulixon singari hukmdorlar mamlakatning ma‘naviy va madaniy qiyofasini yuksaltirish maqsadida yetarlicha ijobiy ishlarni amalga oshirishgan. XX asr oxiri va mustaqillikning ilk-yillaridayoq Buxoro xonligidagi ilm-fan tarixini o‘rganish yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Iste’dodli va mohir davlat hukmdorlari ilm-fan sohiblarini o‘z himoyasiga olib, xonlikda yuqori darajadagi ilmiy muhitni yaratishga erishdilar. Muhammad Shayboniyxon shaxsan o‘zi tomonidan bitilgan “Devon”, Ubaydullaxonning ijodiga bag‘ishlagan to‘plam,

³⁷¹ Норик Б. В. Роль шибанидских правителей в литературной жизни Мавераннахра XVI в. // Рахмат-наме. – СПб: 2008. – С. 230.

³⁷² McChesney R. D. The reforms of Baqi Muhammad Khan // In Central Asiatic Journal 24, 1980, p. 78.

³⁷³ Давидович Е. А. История монетного дела Средней Азии XVII-XVIII вв. [Текст] : (Золотые и серебряные монеты Джанидов). – Душанбе: Изд-во Акад. наук Таджик. ССР, 1964. –С. 317.

³⁷⁴ Karoly L. A Turkic Medical Treatise from Islamic Central Asia: A Critical Edition of a Seventeenth-Century Chagatay Work by Subhān Qulī Khan. – BRILL. 2014. P. 5.

³⁷⁵ DeWeese D. Bukhara Khanate / In the Oxford Encyclopedia of the Islamic World. Edited by: John L. Esposito. Oxford University Press.

ashtarxoniyl hukmdor Subhonqulixon kabi hukmdorlar bu borada ko'zga ko'rinarli ishlarni amalga oshirishgan. Shayboniy Ko'chkunchixon buyrug'i bilan Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qildirilgan. Umuman olganda bu davrda tarix fani boshqa ilm-fan sohalariga nisbatan ancha rivojlandi. XVI-XVIII asrlarga oid tarixiy manbalarning soni juda ko'pligi bu fikrni isbotlaydi.

R.G.Mukminova³⁷⁶ Buxoro xonligi tarixiga oid juda ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Olima 1972-yilda "Samarqand va Buxoroning XVI asr hunarmandchiligi" mavzusida dissertatsiyasini muvafaqqiyatli himoya qildi. 1976-yilda esa olima o'zining "Buxoro tarixi" asarini nashrdan chiqardi. Bu asar ilmiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi.

Tadqiqotchi B.V.Norik³⁷⁷ XVI asrda shayboniy hukmdorlarning mamlakatdagi adabiy muhitga ta'siri haqida risola chop etdi. Tadqiqotda asosiy e'tibor shayboniy hukmdorlar shaxsiga qaratilgan. Abulxayrxon va Muhammad Shayboniyxonlar o'zlari ham she'r va g'azal yozib turishlari, adabiyot ilmi bilan shug'ullanuvchi shoirlarni hurmat qilishlari haqida fikr yuritiladi. Olim o'z tadqiqotida shayboniy hukmdorlar tomonidan yozilgan g'azal va she'rlardan misollar keltirgan. Umuman olganda shayboniy hukmdorlar adabiyotga begona bo'lishmagan. Bu sifat albatta, mamlakatda ilm-fan rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etgan³⁷⁸.

Shayboniylar davrida Buxoro xonligida, tibbiyot sohasida yozilgan asarlar³⁷⁹, ayniqsa kuchaydi. Ularda ilgari surilgan davo usullari, tashxis

³⁷⁶Мукминова Р.Г. Култура в XVI в. // История Узбекской ССР. – Т. II. – Ташкент: 1967. – С. 539-549. Ўша муаллиф: Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре. Ташкент: 1976. –С. 261.

³⁷⁷ Норик Б.В. Роль шибанидских правителей в литературной жизни Мавераннахра XVI в. // Рахмат-намэ. – СПб: 2008. – С. 230.

³⁷⁸ Ўша асар. – С. 230.

³⁷⁹ Зокиров Ш. Маданият юксалган давр // Маърифат. 2000 йил.

qo'yish, dorilar tayyorlash o'rta asr musulmon sharq tibbiyotiga xos ilg'or an'analar XVI asrda ham davom etganidan dalolatdir.

N.Xanikov³⁸⁰ tomonidan nashr etilgan risolada Buxoro xonligidagi ta'lim tizimiga alohida to'xtalib o'tilgan. Shayboniy va ashtarxoniylar davrida ham ta'lim tizimiga alohida e'tibor berilgan. Madrasalardagi ta'lim tizimi, unda o'qitiladigan kitoblar, o'qish muddati haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Boshlang'ich ta'lim 7 yilni tashkil etadi. Madrasaga 5-7 yoshdan boshlab qabul qilinadi³⁸¹. N.Xanikov madrasada o'qiydigan talabalar boshlang'ich kursda o'tiladigan kitoblarni deyarli tushunishmagan. Ularni faqat yodlash bilan mashg'ul bo'lishgan degan xato fikrni keltirgan bo'lishi mumkin. Bilamizki XVI-XVIII asrlarda Buxoro xonligi aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil etgan va ularga diniy saboqlar yoshligidan oilasida berila boshlangan. Shuni hisobga olgan holda muallifning fikriga qo'shilmaslik uchun yetarlicha asosimiz bor.

Akademik V.V.Bartold, G.Ete, Z.Validov (To'g'on) va B.F.G'ofurov kabi tadqiqotchilar Buxoro xonligi tarixiga oid noyob manba Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" asari ustida ilmiy izlanishlar olib borishgan³⁸². B.Ahmedov ushbu manba haqida yozar ekan, uni qomusiy asar deb atab, o'rta asr fanining ilmi nujum, javohirshunoslik, o'simlikshunoslik, jug'rofiya va tarix sohalarini o'z ichiga oladi deb aytib o'tgan. Asar ashtarxoniylardan Balx xoni Nadr Muhammadxon topshirig'iga binoan yozilgan³⁸³.

³⁸⁰ Ханыков. Н. Описание Бухарского ханства. – СПб: 1843. – С. 148.

³⁸¹ Ўша асар. – С. 211.

³⁸² Аҳмедов Б. Маҳмуд ибн Валининг "Баҳр ул-асрор" асарининг ўрганилиши / Тарихдан сабоқлар. Тошкент: 1994. – Б. 223-234.

³⁸³ Ўша асар. – Б. 223.

Rus tarixchi va olimlari Buxoro xonligidagi ilm-fan tarixiga oid juda ham ko‘p tadqiqotlarni olib bordilar. Bu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda. P.P.Ivanov³⁸⁴, A.A.Semyonov³⁸⁵, A.Yakubovskiy³⁸⁶, V.V.Bartold³⁸⁷, N.I.Veselovskiy³⁸⁸ hamda V.Vyatkin³⁸⁹ kabi sharqshunos olimlarning maqola, monografiya va asarlari nashr etilgan.

P.Ivanov O‘rta Osiyoning XVI asrdagi madaniy hayoti haqida to‘xtalib, madaniy hayot mintaqada ancha yuqori bo‘lgan, ayniqsa Buxoro xonligida. Buxoro, Samarqand, Toshkent va Buxoro xonligining boshqa yirik shaharlarida savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy hayot yuqori bo‘lgan. XVII asrga kelib esa bu jarayon bir oz vaqt orqada qolgan deb yozib qoldirgan³⁹⁰. P.Ivanovning XVII asrda madaniy hayot bir oz ortda qolgan degan fikriga qo‘shilmaymiz. Sababi, bilamizki hozirgi kunda butun dunyoga mashhur, Samarqand shahrining ramzi bo‘lgan Registon maydonidagi Sherdor va Tillaqori, Buxorodagi Mir Arab madrasalari aynan XVII asrda barpo etilgan. Muallif bu borada xato fikr bildirgan deb xulosa qilsak bo‘ladi. XVI-XVII asrlarda xonlikdagi ilmiy muhitning rivojida birinchi o‘rinda – madrasalarning o‘rni yuqori bo‘lgan. Shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronligi davrida ham Buxoro, Toshkent, Samarqand va Balx shaharlarida bir nechta yangi madrasalar barpo etilgan. P.Ivanov o‘z asarida Buxoro xonligidagi ilm-fan taraqqiyotining bir omili sifatida Eronda tashkil etilgan yangi sulola

384 Иванов. П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). – Москва: 1958. – С. 251.

385 Семёнов А.А. К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана // Труды Академии наук Таджикской ССР. Т. XII. Вып. 1. 1954. – С. 7-37.

386 Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа [Текст] / проф. А. Ю. Якубовский; Юбилейный ком. Навои при СНК УзССР. – Ташкент: Изд-во УзФАН, 1941. – С. 18.

387 Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. - Л.: Изд-во АН СССР, 1927. – С. 262.

388 Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов: (русский посланник в Персию и Бухару в XVII в.). - Санкт-Петербург : тип. В. С. Балашева, 1891. – С. 27.

389 Вяткин В.Л. Шейхи Джуйбари / В.В.Бартольд. Туркестанские друзья, ученики и почитатели. – Ташкент: 1927. – С. 566.

390 Иванов. П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). – Москва: 1958. – С. 79.

Safaviylarning ham o'zni bor deb hisobladi. Sababi, Safaviylar Islom dinining shia oqimini davlatga olib kirishdi. Sunniy mazhabida bo'lgan ko'plab olim va mutafakkirlar esa Buxoro xonligiga ko'chib kelishgan.³⁹¹

A.A.Semyonov³⁹² Abdurahmon Tole'ning "Tarixi Abulfayzxon" asarini rus tiliga tarjima qildi. Bu asarning tarjima qilinishi Ashtarxoniylar davrida hukmronlik qilgan ikki hukmdor Ubaydullaxon va Abulfayzxon davrlariga oid juda qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Bundan tashqari asar muallifi haqida ham qo'shimcha ma'lumotlar keltirilgan.

A.A.Semyonovning yana bir ulkan ilmiy merosi bu Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma"³⁹³ asarini tarjima qilganligidir. Ushbu asar Buxoro xonligining Ashtarxoniylar sulolasiga mansub bo'lgan Ubaydullaxon II (1702-1711) davriga bag'ishlanadi. Asar o'sha davrdagi boshqa manbalardan o'zining tanqidiy materiallar ko'pligi bilan ajralib turadi. Umuman olganda XVI-XVIII asrlar Buxoro xonligi tarixini yoritishda A.Semyonovning bajargan ishlarini yuqori baholash mumkin.

Azamat Ziyo³⁹⁴ shayboniylar davrida ilm-fan haqida to'xtalar ekan, bunda ushbu sulola namoyondalarining o'zni katta bo'lganligi haqida yozadi. Avvalo ularning o'zlari nihoyatda o'qimishli shaxslar edilar. Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdulazizxon va Juvonmardali Sulton kabi shayboniylar turkiy va forsiyda she'r bitganlar, diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo'lganlar. Abdulazizxon va Abdullaxon II ga tegishli kutubxonalar o'z zamonasining eng yirik kitob xazinalari hisoblangan. XVI asr tarixini

³⁹¹ Ўша асар. – С. 81.

³⁹² Абдурахман-и Талиъ. История Абулфейз-хана / Перевод А.А.Семёнова. – Ташкент. Изд. АН УзССР, 1959.

³⁹³ Амин-и Бухари, Мир Мухаммед. Убайдулла-наме [Текст] / Пер. с тадж. с примеч. чл.-кор. Акад. наук УзССР проф. А.А.Семенова; Акад. наук Узбек. ССР. Ин-т востоковедения. – Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1957. – С. 326.

³⁹⁴ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 252.

yoritib beruvchi “Tavorixi guzida, Nusratnoma”, Mulla Shodiyning “Fatxnoma”, Binoiyning “Shayboniynoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Abdulloh Nasrullohiyning “Zubdat al-asor”, Fazlulloh Ruzbexonning “Mehmonnomayi Buxoro”, Zayniddin Vosifiyning “Badoe ul-vaqoe”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” kabi mumtoz tarixiy asarlari fikrimizning isboti bo‘la oladi. Bundan tashqari Muhammad Shayboniyxon davrida Binoiy “Ajoyib ul-mahluqot” geografik asarini, Ko‘chkunchixonning buyrug‘i bilan Muhammad Buxoriy Rashididdin Fazlulloh “Jame at-tavorix” asarini, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiladilar³⁹⁵.

Tarixiy ma’lumotlardan kelib chiqib shuni alohida ta’kidlash kerakki XVI asrda Buxoro xonligida tarixnavislik bilan birgalikda tarjima san’ati ham rivojlandi. Tarix ilmiga oid mashhur asarlar fors va arab tillarida o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Abdullaxon soniy zamonida tarixshunoslik sohasida ham ko‘zga ko‘rinarli asarlar yaratilib, bunga misol tariqasida Buxoroda yashab ijod qilgan Hasanhoji Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asarini (“Do‘stlar yodnomasi”) keltirib o‘tish mumkin. Bu asarda XVI asrda Movarounnahrda, shuningdek, Afg‘oniston, Hindiston, Eron, Turkiya va Qoshg‘arda yashab o‘tgan 228 nafar shoir haqidagi ma’lumotlar jamlangan. Ular orasida o‘z asarlari bilan o‘zbek va tojik adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Bobur, Hiloliy, Majlisiy, Xoja, Shayboniy, Uvaysiy, Komron, Bayramxon va Mushfiqiy kabi yirik so‘z san’atkorlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar bor. Abdullaxon Ikkinchiga bag‘ishlab yozilgan bu asar Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat shuaro”, Alisher Navoiyning

³⁹⁵ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 252-253.

“Majolis un-nafois” asarlaridan keyin “uchinchi tazkira” hisoblanadi va XVI asrda Oʻrta Osiyo, Eronu Hindistondagi adabiy muhitni va adabiy hayotning boshqa masalalarini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shayboniylar davrida tarixnavislik sohasidagi katta yutuqlardan biri, bu katta ilmiy qimmatga ega boʻlgan, xususan Muhammad Solihning “Shayboniynoma” va Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarlarini alohida taʼkidlab oʻtish joizdir.

Tadqiqotchi T.Saidqulov³⁹⁶ ham Buxoro xonligidagi ijtimoiy fanlar jumladan tarixnavislik fanida amalga oshirilgan ishlar haqida ilmiy izlanishlar olib borgan.

B.Ahmedov, A.Ziyo, Z.Muqimov, R.Mukminova, A.Ivanov, V.Bartold, Madraimov A, Fuzailova G³⁹⁷, X.Toʻrayev³⁹⁸, Sagdullayev A³⁹⁹ kabi tarixchi olim va olimalar Buxoro xonligida ilm-fan tarixiga oid koʻplab ilmiy ishlar olib borib nashr etishgan.

Azamat Ziyo Ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvi davrida madaniy hayotga toʻxtalar ekan, eng avvalo shuni qayd etish lozimki, hukmron sulola namoyondalari, siyosiy va harbiy arbob boʻlish bilan birga, oʻz davrining yetuk ilm egalari ham edilar⁴⁰⁰. Bu jihatdan shayboniy va ashtarxoniy hukmdorlar bir-biriga oʻxshashligini koʻrishimiz mumkin. Bunday siyosatning hukmdorlarda boʻlganligi, albatta Buxoro xonligida ilm-fanning rivojlanishida asosiy rolni oʻynagan.

³⁹⁶ Саидкулов Т.С. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б. 4-5.

³⁹⁷ Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Тошкент: Фан, 2007. –Б. 295.

³⁹⁸ Тураев Х. Роль Джуйбарских ходжей в общественно-политической и духовно-культурной жизни Бухарского ханства XVI-XVII- веков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. Ташкент: 2007.

³⁹⁹ Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. I-қисм / Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон Республикаси ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиш Академияси Ўзбекистоннинг энг янги тарихи Маркази. - Тошкент: Академия, 2000. – Б. 272.

⁴⁰⁰ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 273.

Azamat Ziyo O‘zbek davlatchiligi tarixi kitobida Imomqulixon, Nazr Muhammadxon, Abdulazizxon va Subhonqulixonlar she‘r yozganliklari ma‘lum. Subhonqulixon Nishoniy, Abdulazizxon Aziziy taxallusi bilan ijod qilgan. Abdulazizxon nasx va nasta‘liq xatlarida yozishni, maktub va insho mashqini zamonasining eng yetuk vakillaridan o‘rgangan. Keyinchalik oliy hukmdor darajasiga yetishganda Hindiston, Eron va Rumga xoh turkiy, xoh forsiyda bo‘lsin noma bitilar ekan, ularni o‘zi tahrir qilib yoqmasa boshqatdan yozar ekan.⁴⁰¹ Bu haqdagi ma‘lumotlar Tarixi Muqimxoniy asarida keltirilgan.

Buxoro xonligida XVII asrda ijod qilgan olimlar, shoirlar va mutafakkirlar soni avvalgi davrdan kam bo‘lmagan. Muhammad Badi Samarqandiy⁴⁰² tomonidan XVII asr oxirida yozilgan asarda XVII asrda yashab ijod qilgan 165 nafar ijodkorning nomi tilga olinadi.

Ashtarxoniylar hukmronligi davrida tarixnavislik, ayniqsa, rivojlandi. Bunda biz “”Musaxxir al-bilod”, Mahmud ibn Valining “Baxr ul-asror”, Samandar Termiziyniing “Dastur ul-muluk”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Muqimxon tarixi”, Muhammad Amin Buxoriyniing “Ubaydullaxon tarixi”, Abdurahmon Tole’ning “Abulfayzxon tarixi”, Xojamqulixon Balxiyniing “Qipchoqxon tarixi” asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin⁴⁰³.

A.Jumanazarov⁴⁰⁴ning 2017-yilda “Buxoro ta’lim tizimi tarixi” nomli kitobi nashrdan chiqdi. Asarda Buxoro xonligidagi ta’lim tizimi tarixi, madrasalar nomlari va soni, undagi talabalar, mudarrislar va

⁴⁰¹ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 273.

⁴⁰² Муҳаммад Бади Самарқандий. “Музаққир ал-аҳбоб”. Ўзбекистон ФА ШИ. Рақами 4270.

⁴⁰³ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 274.

⁴⁰⁴ Жуманазаров А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент. Академ нашр, 2017. – Б. 592.

ularning ijtimoiy himoyasi, ularga berilgan imkoniyatlar haqida juda ko‘plab qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Madrasalarda dars beruvchi o‘qituvchilar soni ko‘pchilikni qiziqtirgan. Professor Anvar Qodirov va tarixchi olim Erkin Orifjonov yozadi. “Biz taxmin qilishimizcha, Buxorodan boshqa shaharlarda 80 atrofida madrasa bo‘lgan. Demak, umuman amirlikda jami 250 atrofida madrasalar faoliyat yuritgan. 3 million aholisi bo‘lgan Buxoro xonligi uchun bu ko‘rsatkich salmoqli deb o‘ylaymiz”⁴⁰⁵.

Buxoro xonligida XVI-XVIII asrlarda tasviriy san’at ham ancha rivojlangan. Xattotlik san’atining o‘rni bu sohada yetakchilik qilgan. P.Ivanov asli kelib chiqishi o‘zbeklardan bo‘lgan Bobo Naqqosh Sulton Boyazid II saroyida faoliyat yuritgan. Aynan Bobo Naqqosh Turkiyaga tasviriy san’atning o‘ziga xos uslubini olib kirganligi haqida yozib qoldirgan⁴⁰⁶.

G.G.Xabibova⁴⁰⁷ 2020-yilda “XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligida maktab ta’limi va tarbiyaning o‘zi xosligi” nomli maqolasini e’lon qildi. Maqola juda sayoz holda yozilgan. Foydalanilgan adabiyotlar soni juda kam. Maqolada Buxorodagi madrasalarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar soni, madrasalar soni, unda o‘qitiladigan kitoblar, ta’lim muddati haqidagi birlamchi ma’lumotlar berilgan. Foydalanilgan adabiyotlarning soni ham juda kam (4 ta) bo‘lib, uni maqolaning umumiy hajmi 3-4 betni tashkil qiladi.

⁴⁰⁵ Ўша асар. – Б. 77.

⁴⁰⁶ Жуманазаров А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент. Академнашр, 2017. – Б. 84-85.

⁴⁰⁷ Хабибова Г. Вестник науки и образования № 12(90). Часть 2. 2020.

Xorijiy davlatlarda ham Buxoro xonligida XVI-XVIII asrlarda ilm-fan taraqqiyotiga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Laslo Karoli⁴⁰⁸, R.D.Makchesney⁴⁰⁹, A.J.E.Bodrogligeti⁴¹⁰ va P.B.Golden⁴¹¹ shular jumlasidandir.

Laslo Karoli 2015-yilda ingliz tilida Markaziy Osiyodagi turk tibbiyotiga oid risola: XVII asrdagi Subhonqulixon asarining tanqidiy tahlili nomli tadqiqotini chop etdi. Bu Yevropadagi XVII asr O‘rta Osiyo tibbiyotiga oid ilk jiddiy tadqiqot bo‘lib, Markaziy Osiyoning XVII asrdagi til va madaniyatiga oid muhim manbadir. Muallif o‘z tadqiqotida ashtarxoniy hukmdor Subhonqulixonning tibbiyotga oid risolasini tadqiq qilib, u haqida o‘z fikrlarini bayon etgan.

N.Elias va E.Denison Ross Mirza Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarini bir qismini tarjima qilib izohlar bilan to‘ldirganlar. Asarning qisqartirilgan ilk ingliz tilidagi tarjimasi 1895-yilda Londonda nashrdan chiqqan. 1996-yilda esa Toshkentda rus tilidagi tarjimasi chiqqan. Asarda XVI asr Buxoro xonligi tarixiga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Buxoro xonligi ilm-fan tarixiga oid yana bir muhim manba Hofiz Tanish Buxoriyning “Ubaydullanoma” (Sharafnomayi shohiy) asari M.A.Salohiddinova tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. O‘zbek tiliga esa fors tilidan Sodiq Mirzayev tarjima qilgan, Bo‘riboy Ahmedov izoh va qo‘shimchalar kiritgan. Bu asarning Ozarbayjon va Tojikistonda saqlanayotgan nusxalari boshqalariga qaraganda ancha mukammalroqdir.

⁴⁰⁸ A Turkic Medical Treatise from Islamic Central Asia: A Critical Edition of a Seventeenth-Century Chagatay Work by Subhān Qulī Khan. / Edited, Translated and Annotated by László KÁROLY. Brill, 2014. –P. 462.

⁴⁰⁹ McChesney, R. D. The reforms of Baqi Muhammad Khan // In Central Asiatic Journal 24, no. 1/2 1980. – P. 78.

⁴¹⁰ Bodrogligeti A.J.E «Muhammad Shaybani’s Bahru’l-huda: An Early Sixteenth Century Didactic Qasida in Chagatay», Ural-Altische Jahrbücher, vol.54 (1982), p. 1 and n.4

⁴¹¹ Central Asia in world history. / By Peter B. Golden. The New Oxford World History Series. Oxford: Oxford University Press, 2011. – P. 115.

Buxoro xonligining madaniy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar bu asarda ham keltirilgan.

J.A.Burton⁴¹², M.B.Dickson⁴¹³, Idem⁴¹⁴, M.E.Sabtelni⁴¹⁵, A.B.Vildanova⁴¹⁶ kabi xorijiy tadqiqotchilar ham Buxoro xonligida ilm-fan taraqqiyoti mavzusida bir qancha kichik tadqiqotlarni olib borganlar.

Buxoro xonligi XVI asrda mintaqadagi eng kuchli davlatlardan biri bo'lgan. Keyingi asrlarda esa xonlik bo'linib, bir qancha muhim hududlar xonlik tarkibidan mustaqil bo'lib chiqib ketadilar. Mamlakatda ilm-fan taraqqiyoti uchun birinchi navbatda tinchlik, siyosiy birdamlik muhim masala hisoblanadi. Buxoro xonligi tarixi XVI-XVIII asrlarda sulolalar almashinuvi, ichki nizo va urushlar ostida kechgan bo'lsa-da ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti to'xtab qolmadi. To'g'ri shayboniylar va ashtarxoniylar "Temuriy" larga munosib voris bo'la olishmadi. Biroq ta'lim tizimi, me'morchilik, tarix, tasviriy san'at, tibbiyot va astronomiya kabi sohalarda yetarlicha ishlar amalga oshirildi. Ilm-fanning aniq va tabiiy fanlar sohasida ortda qolishi kuzatildi. Jarayon bir tekisda davom etsa-da, rivojlanish bo'ldi deb ayta olmaymiz. Mamlakatda ilm-fanning rivojida taxtda o'tirgan hukmdorning fanga qanchalik qizishiga bog'liq bo'lib qoldi.

Buxoro xonligidagi ilm-fan tarixiga oid tadqiqotlarni olib borish mustaqillik-yillarida ancha jonlandi. A.Ziyo, B.Ahmedov, A.Asqarov⁴¹⁷

⁴¹² Burton J.A. Who were the First Ashtarkhanid Rulers of Bukhara. *BSOAS* 51, 1988. - P. 482-488.

⁴¹³ Dickson M.B. Shah Tahmasb and the Ozbeks. Ph.D. dissertation. – Princeton, 1958.

⁴¹⁴ Idem. "Tserimonial pri dvore uzbekskikh khanov v XVII veke," in *Sochineniya* II/2, Moscow, 1964, -P. 388-99.

⁴¹⁵ Subtelny M.E. Art and Politics in Early 16th Century Central Asia // *Central Asiatic Journal*, 27/1-2, 1983. – P. 121-148.

⁴¹⁶ Vil'danova A. "Vakf Subhan-quli-khana Bukharskogo 1693 g.," *Pismenne pamiatniki Vostoka*, 1973, pp. 213-35.

⁴¹⁷ Аскарлов А., Ахмедов Б.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи (дастлабки мулоҳазалар) // Ўзбекистон овози, 1994.

Z.Muqimov⁴¹⁸, N.Tursunov⁴¹⁹, I. Saydahmedov⁴²⁰ kabi olim va tadqiqotchilar samarali faoliyat yuritishdi.

Rus va xorijiy tadqiqotchilar ham XIX asr oxiri va XX asrda Buxoro xonligidagi ilm-fan taraqqiyotini o'rganishda salmoqli hissalarini qo'shishgan. Bugungi kunda xorijiy davlatlarda ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

XVI-XVIII asr o'rtalarigacha bo'lgan davrdagi Buxoro xonligi ilm-fani tarixini o'rganishda albatta, shu davrda yozilgan manbalarni tahlil qilish birlamchi vazifadir. Afsuski hozirgi vaqtga qadar hali tarjima qilinmagan va tahlil qilinmagan manbalar yetarlicha. Sanoqli manbalargina rus va o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, sharq tillarini (fors, arab) bilmaydigan yosh tadqiqotchilar o'rta asrlar tarixini o'rganishda qiyinchilikka duch kelishadi. Bu muammo hali bartaraf etilmagan. Buxoro xonligi tarixi va tarixshunosligida manbalarni o'qish va tahlil qilish asosiy vazifa bo'lib qolaveradi.

III.3. Xonlikda me'morchilik va san'at rivojiga oid ilmiy adabiyotlar tahlili

Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida sulola hukmdorlarining me'morchilik va san'at taraqqiyotiga e'tibori, homiyligi natijasida Buxoro xonligining bir qator shaharlarida me'morchilik, shaharsozlik va xattotlik kabi san'at turlari ancha rivojlangan. Sovet tarixshunosligida Buxoro xonligida me'morchilik va san'at tarixi G.A.Pugachenkova, L.Rempel,

⁴¹⁸ Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 162.

⁴¹⁹ Турсунов Н.О. Шайбонийхон даврида Ал-жомий ас Саҳиҳнинг талқин ва тадбиқ этилиши. // Имом ал Бухорий ва унинг дунё маданиятида тутган ўрни мавзусидаги 23 октябрь 1998 йилдаги халқаро конференция материаллари. – Самарқанд: Фан, 1988. – Б. 75-77.

⁴²⁰ Сайидахмедов И. Письмо Шейбанидов – важный исторический источник. Дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. Ташкент: 1992. – С. 182.

L.Yelkovich va M.Masson⁴²¹ kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Bu davrda olib borilgan tadqiqotlar Buxoro xonligidagi me'morchilik va san'at sohalari rivojini mukammal yoritib bermagan bo'lsa-da, ancha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

G.A.Pugachenkova⁴²² Buxoro xonligi tarkibida bo'lgan Termiz va Shahrisabz shaharlaridagi me'moriy obidalar haqida batafsil ma'lumot bergan. Shaharda joylashgan tarixiy yodgorliklar, ularning qurilish uslubi, maydoni, davri va holati haqida yozib qoldirgan. G.A.Pugachenkova⁴²³ o'zining boshqa asarida esa bevosita Buxoro va Samarqand shahrida me'moriy obidalarga to'xtalib o'tgan. U O'rta Osiyo me'morchiligini juda yuqori baholaydi. Olimaning O'zbekistondagi tarixiy me'moriy obidalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi juda yuqori bo'lganidan, asosiy ilmiy faoliyati shu sohaga bag'ishlanadi. G.A.Pugachenkova va O.Galerkina bilan hammualliflikda O'rta Osiyo san'ati⁴²⁴ haqida ham tadqiqot olib borib, kitob nashr ettirgan. Kitobda qadimgi davr o'rta O'rtasiyodagi san'at turlari, ularning rivojlanishi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

G.A.Pugachenkova Termizdagi Kokildor ota (XVI asr) tarixiy yodgorligiga to'xtalar ekan, uning qurilish uslubi bir tarafdin Buxoro uslubiga, yana bir tarafdin Balx uslubiga o'xshab ketadi deb yozadi. Biz

⁴²¹ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И., Бухара. (Узбекистан). (Серия «Сокровища зодчества народов СССР»). Москва: 1949. –С. 67.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент: 1958. – С.292.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И.Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. – Ташкент: 1960. – С.328.; Пугаченкова Г. А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. Москва: Искусство, 1965. – С.688.; Самарканд. Бухара. (По древним памятникам). (Серия «Архитектурно-художественные памятники городов СССР»). Москва: Искусство, 1961. – С. 213.; Термез. Шахриябз. Хива. (Серия «Архитектурно-художественные памятники городов СССР»). Москва: Искусство, 1976. –С. 207.; Пугаченкова Г.А., Галеркина О.И. Миниатюры Средней Азии в избранных образцах: (Из советских и зарубежных собраний). – Москва: Изобразительное искусство, 1979. –С. 208.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии: Древность и средневековье. Москва: Искусство, 1982. –С. 288.; Шедевры Средней Азии: альбом. – Ташкент: 1986. –С. 220.

⁴²² Пугаченкова Г.А. Термез, Шахриябз, Хива. Москва: 1976. – С. 207.

⁴²³ Пугаченкова Г.А. Самарканд, Бухара. – Москва: 1968. –С. 203.

⁴²⁴ Пугаченкова Г.А., Галеркина О.И. Миниатюры Средней Азии в избранных образцах: (Из советских и зарубежных собраний). – Москва: Изобразительное искусство, 1979. – С. 208.

buni Termizning geografik joylashuvi bilan bog‘liq deb o‘ylaymiz. XVI-XVIII asrlarda barpo etilgan inshootlar deyarli bir xil usulda bunyod etilgan, kirishda ark qismi, asosan ikki qavatli, gumbaz ko‘rinishidagi tepa qismi, pishiq g‘ishtdan foydalanilganligi haqida olimlar yozib qoldirgan⁴²⁵.

L.I.Rempel⁴²⁶ Buxoro xonligi san‘at va me‘morchilik tarixi bo‘yicha salmoqli tadqiqot olib borgan tarixchi olimlardan biri hisoblanadi. Olim o‘zining ishlarida Buxoro xonligidagi ma‘morchilikka batafsil to‘xtalib o‘tgan. Boshqa tadqiqotlardan farqi, u Buxorodagi madrasa va tarixiy xonaqohlarning qurilish uslubi va arxeologik chizmalarini batafsil tasvirlagan. Asarda Buxorodagi V-VI asrdan XX asr oralig‘ida bunyod etilgan majmualar haqida ham ma‘lumotlar berilgan. Karvonsaroylar, xonaqohlar, bozorlar, oddiy aholining uylari qurilishiga oid ma‘lumotlar ham bor. L.I.Rempel juda ham ko‘p⁴²⁷ asarlarni chop etgan. Umuman olganda olim Buxorodagi me‘morchilik va san‘at taraqqiyotiga ijobiy baho beradi.

L.Rempel Buxorodagi ganchkorlik san‘atiga ham to‘xtalib, inshoot qurilishi uchun me‘mor, muhandis, gulkor va naqqosh ishtirok etishini yozadi. Buxoroda ganch va naqshlar ishlab chiqaradigan maxsus ustaxonalar borligi, ularda ustoz-shogird an‘anasi davom etib kelayotganligi haqida yozib o‘tadi. Asarda Buxoro naqqoshlik va ganch san‘ati namunalari tasvirlari keltirib o‘tiladi. Muallif buxorolik ustalarning san‘atlarini yuqori baholaydi. Qo‘l mehnati bilan bunyod qilingan ganch va mayda naqshlarni yuqori san‘at asariga tenglashtiradi⁴²⁸.

⁴²⁵ Пугаченкова Г.А. Термез, Шахриябз, Хива. – Москва: 1976. – С. 207.

⁴²⁶ Ремпель Л.И. Бухарские записи. Ташкент: 1981. – С. 304.

⁴²⁷ Ремпель Л.И. Архитектура старого джуйбара / Архитектурные наследие Узбекистан. – Ташкент: 1960.; Ремпель Л.И. Архитектура народного жилища в Средний Азии / Архитектура СССР. 1937. №1; Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. – Ташкент: 1961.

⁴²⁸ Ремпель Л.И. Бухарские записи. – Ташкент: 1981. – С. 199-237.

Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar ichida B.Baklanovning ilmiy izlanishlarini alohida qayd etib o'tish joiz. Olim o'z ishida XVI asrdagi o'zbek ustalarining o'ziga xos sifatlari va uslublarini yuqori baholab, ulardagi yutuq va kamchiliklarni sanab o'tgan. Go'yoki bu davrda qurilgan me'moriy obidalar deyarli bir xil uslubda qurilgan. Asosiy qurilish mahsuloti g'isht, foydalanilgan ranglar ham asosan moviy rang deb yozadi⁴²⁹ tadqiqotchi.

V.A.Shishkin Buxoro shahridagi tarixiy yodgorliklar haqidagi risolasida⁴³⁰ Buxoroning bir necha asr davomida poytaxt bo'lganligi, shu sabab u yerdagi bino va inshootlar haqidagi ma'lumotlar u o'ylaganidan ham kam ekanligiga ishora qilgan. U faqatgina N.Xanikovning⁴³¹ tadqiqotini bilishini aytib o'tgan. Ammo bu fikr xato berilgan. V.Shishkin o'z ishini 1936-yilda yozganini inobatga olsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro xonligiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilganini yuqorida keltirib o'tdik. Olim XVI asrni Buxoro xonligi me'morchiligida qayta uyg'onish davriga qiyoslab, aynan shu asrdan boshlab shaharda keng ko'lamli qurilish ishlari amalga oshirilganini ta'kidlab o'tgan. Mir Arab, Qo'shmadrassa va Ko'kaldosh madrasalari qurilishi orqali Buxoro xonlari o'zlarini Amir Temur tomonidan bunyod etilgan Oq Saroy, Bibixonim va Ahmad Yassaviy me'moriy obidalariga tenglashtirmoqchi bo'lishganini yozadi⁴³². Buxoro shahrini o'rab turgan qal'a devori haqida ham muallif o'z fikrlarini bayon etgan. Umuman bu risola Temuriylar davri va Shaybniylar davri aritekturasini bilan ko'p taqqoslanganligi bilan ajralib turadi. Risolada ko'p sub'ektiv va xato fikrlar ham keltirilgan.

⁴²⁹ Бакланов Н.Б. Архитектурные чертежи узбекского мастера XVI века. Вып. IV. – Москва: 1944.

⁴³⁰ Шишкин. В.А. Архитектурные памятники Бухары. Ташкент: 1936. – С. 53.

⁴³¹ Ханыков. А. Описание Бухарского ханства. – Москва: 1843. –С. 279.

⁴³² Шишкин. В.А. Архитектурные памятники Бухары. – Ташкент: 1936. – С. 54.

G.A.Pugachenkova o‘z maqolasida⁴³³ Buxoro arxitekturasida xonaqohlar haqida to‘xtalib, Shayboniylar davriga kelganda Buxoro shahri va viloyati bo‘ylab xonaqohlar qurilishi keng ko‘lamda amalga oshirilganligi haqida yozadi. Olimaning fikricha bu davrda qurilgan xonaqohlar bir xil uslubda qurilgan va bu holat musulmon sharqidagi boshqa hududlarda deyarli uchramaydi. Xonaqohlar deyarli bir xil usulda qurilgan bo‘lsa-da, musulmon olamida o‘ziga xos “Buxoro usuli” degan nomni olib kirgan.

B.N.Zasipkin⁴³⁴ Buxoroning eng qadimgi davridan XX asrgacha bo‘lgan vaqt oralig‘idagi tarixiy inshootlar haqida o‘z asarini chop etgan. Muallif aynan XVI asrni Buxoro xonligi madaniy va ma‘naviy hayotida tub burilish sodir bo‘lgan davrga qiyoslaydi. Buxoro poytaxt sifatida musulmonlar uchun ham siyosiy, ham madaniy, ham ma‘naviy poytaxtga aylandi. Buxoro xonlaridan Abdullaxon II ni shaharning ma‘naviy madaniy qiyofasini tiklashdagi asosiy shaxs deb e‘tirof etdi⁴³⁵.

Mustaqillik-yillariga kelib, tarixning barcha sohalari singari Buxoro xonligi me‘morchiligi va san‘at tarixiga oid tadqiqotlar yangi bosqichga chiqdi. Ko‘plab o‘zbekistonlik, O‘rta Osiyolik va xorijiy tadqiqotchilar salmoqli mehnat qildilar. Jumladan B.Ahmedov, A.Ziyo, M.Abduraimov, J.Barakayev, Y.Haydarov, N.Yo‘ldoshev, X.Qurbonov, A.Muhammadjonov, Y.G.Nekrasova, Q.Rajabov, R.Maqsudov, Sadriddin Salim Buxoriy, A.Qandaxarov va H.Hamidov⁴³⁶ kabi tarixchi olimlar Buxoro xonligi tarixiga oid tadqiqotlar olib bordilar.

⁴³³ Ўзбекистон ўрта асрларда. Тарих ва маданият. – Тошкент: 2003. – Б. 145-148.

⁴³⁴ Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – Москва: 1948. – С. 159.

⁴³⁵ Ўша асар. – С. 115.

⁴³⁶ Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. –Б. 432.; Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.368.; Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI пер.пол. XIX в. Т.1. –Ташкент: Фан, 1966. – Б. 368.; Баракаев Ж., Ҳайдаров Й. Бухоро тарихи (энг қадимги

Buxoro xonligida bu asrlar oralig'ida siyosiy vaziyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar, me'morchilik, san'at, fan va adabiyot rivojlangani haqida A.Ziyo o'zining asarida yozib qoldiradi⁴³⁷. Asarda humdorlarning nafaqat o'z davlatlarida, balki boshqa chet davlatlarda ham qurilish ishlari amalga oshirilganligi yuqori baholanadi. Jumladan, Imomqulixon Madinada qurdirgan chorbog', Nur tog'idagi hovuz, Makkada Ka'baga kiraverishdagi darvozalardan biri ostonasi uchun ishlatilgan oltin va kumush tutqichli yog'och zinalar fikrimizning yorqin dalilidir⁴³⁸. XVI asrdagi madaniy hayot haqida esa muallif quyidagilarni ma'lum qilgan. XVI asrda mamlakatning turli markazlarida yuzlab olimlar, shoirlar, tarixchilar, rassomlar va xusnixat egalari faoliyat ko'rsatganlar⁴³⁹. A.Ziyo keltirgan ma'lumotlar ko'proq umumiy tarix haqida yozilgan. San'at va me'morchilik haqida batafsil to'xtalib, yaxlit ma'lumotlar keltirilmagan. Muallif asosiy e'tiborini siyosiy tarixga qaratadi va o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun, sodda, qisqa va tushunarli tilda bayon etadi.

M.Vaxitov me'morchilik tarixiga oid asarida Buxoro va Samarqand arxitekturasini va madaniy meros ob'ektlari haqida ma'lumotlar bergan. Tadqiqotchining asarida dunyodagi eng qadimgi davrdagi davlatlarning qurilish uslublari (Sharq, Yevropa) haqida ham qiziqarli ma'lumotlar bor va o'quvchiga yurtimizdagi va dunyodagi me'morchilik uslubining o'ziga

даврдан Улуғ Октябрь инқилобига). – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.145.; Йўлдошев Н., Қурбонов Х. Бухоро шаҳри ва унинг атрофидаги зиёратгоҳлар тарихи. – Бухоро: 2001. – Б.48. ; Муҳаммаджонов А. Тарих фалсафаси – маънавият кўзгуси. Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б.272.; Некрасова Е.Г. Позднесредневековые мемориально-культовые комплексы Бухары и Бухарской области по археологическим данным. Автореф. дис... канд. ист. наук. – Ташкент: 1994.; Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: Тафаккур, 2016. – Б.460. ; Садриддин Салим Бухорий. Табаррук зиёратгоҳлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1993. – 48 б.; Қандахаров А. Бухоро хонлигида Карманнинг тутган ўрни (XVI аср). Тошкент: Фан ва технологиялар, 2016. –Б. 64.; Ҳамидов Ҳ. XVI-XIX асрлар юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 110.

⁴³⁷ Зиё. А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 273.

⁴³⁸ Ўша жойда.

⁴³⁹ Ўша асар. – Б. 252.

xos jihatlari bilan tanishish imkonini beradi⁴⁴⁰. Tadqiqot muallifi “texnika fanlari doktori” bo‘lganligi bois, uning asarida asosan bino va inshootlarning texnik sifatlariga e’tibor ko‘proq qaratilgan. Yana bir kamchilik esa, Samarqand arxitekturasini haqida gap ketganda, XVI-XVIII asrlar oralig‘ini olsak faqat Sherdor va Tillakori tarixiy yodgorliklari tasviri berilgan xolos. Buxoro shahri haqida ham xuddi shu fikrni takrorlashimiz mumkin. Yana o‘sha Masjidi Kalon, yana o‘sha Mir Arab madrasalari haqida umumiy tarixiy ma’lumotlar⁴⁴¹.

A.Qandaxarov Karmana shahrining tarixi haqida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borib, monografiya va maqolalar nashrdan chiqargan⁴⁴². U chiqargan monografiyasida Buxoro xonligining ma’morchilik va san’ati haqida ham ma’lumotlar taqdim etadi. Shayboniy Ubaydullaxon musiqa ilmiga kata rag‘bat ko‘rsatib, husnixat va san’at bilan shug‘ullandi. Olim shayboniylar davridagi san’at va me’morchilikni temuriylar davri bilan taqqoslab Shayboniylar hukmronligidagi Movoraunnahrda fan va madaniyat temuriylar davridagidek butun dunyo olimlari tomonidan e’tirof etadigan Sharq Renessansi (Uyg‘onish) darajasida bo‘lmasa-da, o‘ziga xos tarzda, ya’ni mahalliydashgan xolda taraqqiy etdi⁴⁴³ deb fikr bildirgan. A.Qandaxarov xonlikdagi xattotlik san’atiga ham to‘xtalib, xattotlar tomonidan yuqori saviyada ko‘chirilgan asarlar rassomlar tomonidan go‘zal miniatyura va zarvaraqlar bilan ziynatlanib, Abdulazizxon

⁴⁴⁰ Меъморчилик: дарслик / М.М. Вахитов. Ш.Р.Мирзаев; Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта-махсус таълим вазирлиги. – Тошкент: Тафаккур. Қисм II : Меъморчилик тарихи. – Б. 368.

⁴⁴¹ Вахитов М.М. Ўша асар – Б. 154, 179, 183.

⁴⁴² Қандахаров А.Кармананинг икки буюк алломаси. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2016. – Б. 76.; Ўша муаллиф: Бухоро хонлигида Кармананинг тутган ўрни (XVI аср). – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2016. – Б.64.; Ўша муаллиф: Бухоро хонлиги ва унда карманалик шайхлар фаолияти. Монография. – Тошкент: Тафаккур каноти, 2018. – Б. 203.

⁴⁴³ Қандахаров А. Бухоро хонлиги ва унда карманалик шайхлар фаолияти: Монография. – Тошкент: Тафаккур каноти, 2018. – Б. 41.

kutubxonasida saqlanganligini bayon qiladi. Muallif shayboniylar davrida san'at sohalari rivojlanishdan to'xtab qolmaganligini alohida qayd etadi.

Buxoro xonligidagi me'morchilik taraqqiyotiga oid tadqiqotlar ichida Sadridin Salim Buxoriyning ishlariga yuqori baxo berish lozim. S.S.Buxoriy⁴⁴⁴ o'z kitobida Buxoroning uch ming-yildan ortiq davr mobaynida yashab o'tgan, nomlari va ayrimlarining asarlari bizning davrimizgacha yetib kelgan besh yuzdan ortiq ma'naviyatimiz darg'alarining ilmiy-ma'rifiy merosi, tabarruk ziyoratgohlari, ularning ibratli hayot yo'li, xulqu odobi, kasbu kori, ilmu ma'rifati, iymon e'tiqodi haqida qisqa-uzun fasllarda hikoya qilinadi. Sadriddin Salim Buxoriy Buxoro xonligining poytaxti bo'lmish, Buxoro shahridagi deyarli barcha muqaddas qadamjolar haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Me'morchilik va san'at taraqqiyoti tarixini o'rganishda, bu har bir tadqiqotchiga qo'l keladi.

M.Q.Ahmedov⁴⁴⁵ O'rta Osiyo me'morchiligi haqidagi kitobida Buxoro xonligi me'morchiligi haqida ham to'xtalib o'tgan. Muallif Shayboniylar davridagi me'morchilik rivojini hukmdor Abdullaxon bilan bog'lab, u qurdirgan bino va inshootlarni bugungi kunda ham Buxoro viloyatidan to Sirdaryo vohalarigacha uchratish mumkinligini yozadi. Asosiy ma'lumotlar Buxoro arki haqida bo'lib, Shayboniylar davrida uning ikkita darvozasi bo'lganligi, Ark boshqaruv shaharchasi bo'lib zich xolda qurilganligi yozilgan. M.Ahmedov Buxoro turar-joy binolari me'morchiligi me'morchilik san'ati tarixini o'rganishda butun bir xazina bo'lib xizmat qiladi deb ta'kidlagan. M.Ahmedov me'moriy ansambllar

⁴⁴⁴ Бухорий С. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Дурдона, 2012. – Б. 302.

⁴⁴⁵ Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланмаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 142.

to'g'risida ham o'z fikrlarini bayon etgan. O'rta Osiyoda me'moriy ansambllar tuzish san'ati qadimdan taraqqiy etgan bo'lsa-da, aynan XVI-XIX asrlarda juda ko'plab yangi usullarni keltirib chiqarganligi haqida yozadi. Masalan, mahalla ansambllarini Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shahrisabz, Qo'qon va G'ijduvon kabi shaharlarda saqlanib qolgan o'nlab mahalla markazlarida ko'rishimiz mumkinligi ta'kidlangan. L.Asrorova⁴⁴⁶ ham so'nggi-yillarda Buxorodagi madrasalar haqida tadqiqotlar olib bordi. Biroq uning ilmiy izlanishlari, Buxoro xonligidagi madrasalarning me'moriy tuzilishidan ko'ra ko'proq madrasalardagi ta'lim tizimiga ko'proq e'tibor qaratilgan. Xorijiy olimlardan Buxoro xonligi, jumladan me'morchilik va san'at rivoji tarixi DeWeese, Devin, A.J.E.Bodrogligeti, Svat Soucek, Peter Golden, Ira Marvin Lapidus, Becker, Seymour, Ali Rezaipuya⁴⁴⁷ kabi tarixchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Turk tadqiqotchichi Murat O'zkan⁴⁴⁸ Buxoro xonligining 1500-1920-yillardagi tarixi haqida o'z kitobini nashr ettirdi. Asarning asosiy qismi siyosiy tarixga bag'ishlansa-da, beshinchi bobda muallif Buxoro xonligining madaniy hayoti haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tgan. Jumaldan, Buxoro madrasalari, Buxorodagi me'moriy obidalar haqida qisqacha to'xtalib o'tgan. U Buxoro xonligida ma'morchilik va san'at taraqqiyotida yuqori baholaydi⁴⁴⁹. XVI asr Buxoro xonligi tarixiga oid kitoblar nashr qilgan

⁴⁴⁶ Asrorova L. Buxoro madrasalari tarixidan. II-tom. Toshkent: Xilol. 2016. 104 b. / Buxoro madrasalari tarixidan. – Toshkent: Xilol, 2017. – B. 247.

⁴⁴⁷ DeWeese, Devin (2009). *Bukhara Khanate*. In *Esposito, John L.* (ed.). *The Oxford Encyclopedia of the Islamic World*. Oxford University Press.; Bodrogligeti A.J.E. «Muhammad Shaybani's Bahru'l-huda. An Early Sixteenth Century Didactic Qasida in Chagatay», *Ural-Altaische Jahrbücher*, vol.5.4 (1982), pp. 1 and n.4; Soucek, Svat. *A History of Inner Asia* (2000), -P. 180.; Peter B.Golden (2011) *Central Asia in World History*, -P. 115; Ira Marvin Lapidus - 2002, *A history of Islamic societies*, -P. 374 / Becker, Seymour. *Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924*. Cambridge, Mass.: *Harvard University Press*, 1968. / Резаипуя Али *Изменение политической легитимности в Бухарском ханстве (вторая половина XV в. – первая половина XVIII в.)* Phd.

⁴⁴⁸ Murat Ozkan. *Buhara hanlig'i*. – Istanbul: 2021. –С. 126:

⁴⁴⁹ Ўша асар. – С. 111-113.

muallif Mansura Haydar⁴⁵⁰ o'z tadqiqotlarini asl manbalarga asoslanib yozganligi, boshqa hech qaysi kitobda bunchalik batafsil O'rta Osiyoning XVI asr tarixi yoritilmaganligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XVI-XVIII asrlarda Buxoro xonligida me'morchilik va san'at rivoji taraqqiyotiga oid ilmiy izlanishlar nafaqat O'zbekistonda, butun O'rta Osiyo va boshqa xorijiy davlatlarda ham olib borilgan. Sovet davriga kelib bu sohadagi izlanuvchilar soni ancha ortdi. Asosiy ilmiy tadqiqotlar XX asrdan boshlab olib borilgan bo'lsa, mustaqillik-yillarida esa bu harakatlar yangi pog'onaga chiqdi. Buxoro deb so'z boshlaganda hammaning ko'z o'ngiga birinchi navbatda ilm-fan, islom dinining markazi bo'lgan va ko'plab tarixiy madrasa, masjid, xonaqoh va saroylari bo'lgan shahar keladi. Tadqiqotchilarning deyarli barchasi XVI asrdan boshlab Buxoro xonligidagi shaharlarda me'morchilik va san'at sohasiga yangi yo'nalish va o'zgacha uslub kirib kelganligini takrorlashadi. Aksariyat nashrlarga e'tibor bersak, asosiy urg'u poytaxt Buxoro, undan so'ng Samarqand shaharlariga qaratiladi. Xattoki, Termiz, Shahrisabz va Qarshi shaharlari tarixi ham kam o'rganilgan. Xonlikning boshqa shaharlaridagi ilm-fan, ta'lim, me'morchilik, san'atning qay darajada bo'lganligi hammaga qiziq deb o'ylaymiz. Buxoro xonligi tarixshunosligidagi asosiy kamchilik shu. Yana bir o'ziga xos jihat, sovet davrida nashrdan chiqqan ayrim kitoblarda Buxoro xonligidagi umumiy ahvol Temuriylar davri taqqoslanadi va ularning temuriylarga munosib voris bo'la olishmagani haqida ham gap boradi. Umuman olganda Buxoro xonligi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mintaqaning eng kuchli davlati bo'lmasa-da, me'morchilik va

⁴⁵⁰ Mansura Haidar. *Medieval Central Asia: Polity, Economy and Military Organization, Fourteenth to Sixteenth Centuries*. – New Delhi: Manohar Publishers Distributors, 2004. -P. 525.

san'at sohasida bu borada yetakchilardan biri bo'lgan deb bimalol ayta olamiz.

XULOSA

XIX asrdan bugungi kungacha mahalliy va xorijiy tarixshunosligida Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining turli masalalariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar qilinganini aytish mumkin. Bir yarim asrdan ortiqroq vaqt davomida ushbu davr tarixshunosligiga doir ana'naviy konsepsiyalar haqida fikr-mulohazalar bildirilgan bo'lsa-da, Buxoro xonligining tashkil topishidan to mang'itlar hukmronligi o'rnatilgunga qadar bo'lgan tarixshunosligini yaxlit ochib beruvchi tadqiqot hanuzgacha yaratilmaganini ta'kidlash lozim. Shuning uchun ham ushbu davr tarixini tahlil qilish tarixshunosligimizdagi dolzarb masalalardan biridir.

Davr tarixiga oid yozma manbalar tarjimalarining dastlab maqola, keyinroq, risola va faqatgina sanoqlilari alohida kitob shaklida nashr qilinishi kuzatiladi. Tarjima qilingan manbalar hamda ulardan qilingan ayrim turli tillarga tarjimalar ushbu davr tarixini yoritishda asosiy ma'lumotlar bo'lib xizmat qiladi.

Shayboniylar va Ashtarxoniylar davriga oid tarixiy asarlarni o'rganish, tarjima qilish, izoh va ko'rsatkichlar bilan tayyorlash borasida ko'plab manbashunos olimlar V.V.Bartold, A.A.Semyonov, K.Pishulina, M.Saloxetdinova, S.Mirzayev, Yu.Hakimjonov, B.Ahmedov, D.Yusupova, B.Ismoil, D.Sangirova va b. kabi yetuk sharqshunos olimlarning xizmati ulkanligi e'tiborga sazovordir. Afsuski, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek XVI – XVIII asrlar haqida yozma manbalar ko'p bo'lib, ularning aksariyati hali ilmiy muomalaga kiritilmagan. Ularni ham o'zbek tiliga tarjima qilib, ilmiy tanqidiy matnlari amalga oshirilsa, Buxoro xonligi

siyosiy hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniy rivoji xususida yetarlicha yangi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Manbalardagi faktik materiallarning bir-biriga qiyosiy tahlili asosida esa mavzuga oid turli masalalarning ilmiy yechimini topishda ko'mak bo'lgan bo'lardi. Har qanday davr tarixining o'rganilishida manbalarning ilmiy izohli tarjimalarining o'rni beqiyosdir. Aynan manbashunoslik doirasidagi ilmiy tadqiqotlarni izchillik bilan davom ettirish, ularning tanqidiy matni hamda qiyosiy tahliliga asoslangan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish asnosida o'rganilayotgan davr tarixiy jarayonlarni yanada to'laroq yoritish imkonini beradi.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlarda Shayboniylar sulolasi davrida Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II lar tomonidan katta qiyinchiliklar va janglar orqali tuzilgan, nisbatan bo'lsa ham markazlashtirishga erishilganligini ko'rsatadi. Lekin tadqiqotlardagi dalillarga ko'ra Buxoro xonligining Shayboniylar hukmronligi ostidagi yillar davomida O'rta Osiyo hududining uch qismga bo'linib ketishiga zamin yaratildi. Bundan tashqari o'zbek tarixshunosligida faqatgina Abdullaxonning o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'rni va roliga asosiy e'tibor berilgan. Lekin manba va adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ushbu sulola asoschisi va mazkur sulola vakillaridan Ubaydullaxonning mamlakat mustaqilligini asrab qolish va uni mustahqamlash yo'lidagi xizmatlari o'zining haqqoniy bahosini topishi lozim. Bu sulola orasidagi Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon I lar Abdullaxon II qatorida O'zbek davlatchiligi tarixida o'chmas iz qoldirgan hukmdorlar sifatida o'rin olishi adolatdan bo'lar edi.

O'rganilgan adabiyotlar asnosida shu ma'lum bo'ladiki, Buxoro xonligining ashtarxoniylar hukmdorlar siyosiy boshqaruvi davomida umumiy zaiflashib ketishiga mamlakat ichidagi markaz va hududlar o'rtasidagi o'zaro ichki kurashlar, sulola orasida taxt uchun kurashlar, bundan tashqari Safaviy Eroni, Hindiston Boburiylari, Xiva va qozoq xonlarining doimiy tazyiqlari sabab bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Shunday bo'lsa-da, Ashtarxoniylar ham juda ko'plab xalqlarning siyosiy, etnik va madaniy hayotida o'chmas iz qoldirganliklarini alohida ta'kidlash lozim. Ashtarxoniylar davri tarixi yodgorliklari nafaqat O'zbekiston tarixi me'morchiligining durdonalari sifatida, balki jahon madaniyatining noyob merosi namunalari hisoblanadi.

Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil etgan holda olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish asnosida shu ma'lum bo'ladiki, Buxoro xonligi o'z davrida Rossiya, Hindiston, Eron, Yorkend va qozoq xonliklari bilan qizg'in aloqalar olib borgan. Buxoro xonligining Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi-yillarida Eron Safaviylari bilan olib borgan XVI asr boshlaridan to Ashtarxoniylar sulolasi hokimiyatdan ketishiga qadar bo'lgan o'zaro munosabatlar tarixi islom dinining ikki mazhabiga e'tiqod qiluvchilar o'rtasidagi mafkuraviy kurashgina bo'lib qolmasdan, balki Safaviylarning Xuroson ustidan nazorat o'rnatishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida Buxoro xonligining g'arbga, ya'ni O'rta yer dengiz sohillariga olib boruvchi savdo yo'llarini, balki Hindistonga boradigan karvon yo'llaridan ham ayrilishiga olib keldi. Aynan xalqaro karvon yo'llari ustidan nazoratning yo'qotilishi butun Markaziy Osiyo mintaqasining dunyoviy taraqqiyotdan ortda qolishiga olib kelgan.

XVI-XVIII asrlardagi Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir tadqiqot va ilmiy izlanishlar ko'plab olib borilgan. Bu borada shayboniy va ashtarxoniylar davridagi manbalarning o'rnini beqiyosdir. Mustaqillikning ilk-yillaridanoq O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridagi tarixchi olimlar bu borada ulkan ishlarni amalga oshirishdi. Bugungi kunda ham bu mavzuga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

